

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Erkin NURIDDINOV, G‘ulom MIRZAYEV

JAHON TARIXI

**Eng yangi davr
(1918-1945 yillar)**

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT-2020

Nuriddinov E.Z., Mirzayev G'.R. Jahon tarixi. Eng yangi davri (1918-1945 yillar). O'quv qo'llanma. – T.: TDPU. 2020. – 132 b.

Mazkur o'quv qo'llanma seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan bo'lib, undan Jahon tarixining eng yangi davri birinchi qismi 1918-1945 yillar tarixini chuqurroq o'zlashtirishga hamda o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga ko'maklash maqsadida foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

Tillaboev S.B.

Nizomiy nomdagi TDPU "Tarix va uni o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri, t.f.n.

Taqrizchilar:

Abdullaev D.N.

Nizomiy nomdagi TDPU "Tarix va uni o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD);

Ismailov A.F.

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bo'lim boshlig'i, p.f.f.d. (PhD).

Kirish

Tavsiya etilayotgan mazkur qo'llanma Davlat ta'lim standartlariga to'la mos bo'lib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix o'qitish metodikasi yo'nalishida o'qitilayotgan "Jahon tarixi" faniga asoslanib tayyorlangan.

Bugungi kunda yuksak bilim va tafakkurga, professional va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan hamda intellektual jihatdan boy bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Pedagog kadrlarda ushbu sifatlarni shakllantirishda pedagogik bilimlarni oshirishning o'рни va roli beqiyosdir. Hozirda jahonda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar hamda o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, to'g'ri xulosalar chiqarishlarida talabalar uchun "Jahon tarixi" fani katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur seminar mashg'ulotlari va mustaqil tayyorgalik uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanma yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, fanni chuqurroq o'zlashtirishga hamda o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga ko'maklashadi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o'qituvchi tomonidan har bir o'quv mashg'uloti eng zamonaviy pedagogik usul va uslublardan foydalangan holda o'tkazilishi lozim.

Zamonaviy o'quv mashg'ulotiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. axborotlar yangiligi;
2. har bir o'quv mashg'ulotining mantiqiy jihatdan yakunlanganligi va muayyan darajada rejaga asoslanganligi;
3. o'quv mashg'ulotida talabalar bilan ishlash sur'ati faollashtirilgan, uyushqoqlik va aniq maqsadga qaratilgan diqqat-e'tiborni shakllantirilishi;
4. talabalarning mustaqil fikrlashlarini shakllantiruvchi, o'zaro muloqotning mavjudligi;
5. o'quv mashg'ulotini zamonaviy texnik vositalar bilan boyitilishi.

"Jahon tarixi" fanidan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish yuzasidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- ilg'or pedagogik metodlarni qo'llay bilish;
- talabalarni jahonda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni bilishlari va tahlil etishga o'rgatish;
- dasturiy materiallarni tanlash va umumlashtirish bo'yicha talabalar bilan faol ishlashni tashkillashtirish;
- reja asosida o'quv mashg'ulotlarida ma'ruza matni, o'quv qo'llanma, darsliklar bilan ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya birligi tamoyillariga amal qilish;
- o'qitilayotgan fan nazariyasi bilan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o'zgarishlar bilan aloqadorligini bog'lab borish;
- olingan bilimlardan talabalarda tahliliy mulohazalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish;
- zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llash orqali talabalarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshirib borish.

Ushbu o'quv qo'llanma talabalar tomonidan olingan o'z bilimlarini tahlil qilish va umumlashtirishlari, voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildirishlari, mustaqil ravishda baholay olishlari, xulosalar chiqarishlari va siyosiy xaritalar orqali bilim va ko'nikmalarini rivojlantirilishi ularda og'zaki va yozma nutqni rivojlanishiga ko'mak beradi.

I BOB. 1918 - 1945 YILLARDA BUYUK BRITANIYA

1-§. Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Buyuk Britaniya

Birinchi jahon urushi yillarida Angliyada ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi o'sdi. Kichik va o'rta korxonalarning majburiy kooperativlashtirilishi hamda banklarning birlashuvi ro'y berdi. Ayni shu jarayonda yirik London banklari - "Lloyd", "Barklay", "Midlend", "Vestminister" va ingliz bankidan iborat "katta beshlik" vujudga keldi. Ularning tasarrufida Angliya pul resurslarining 85 foizi jamlangan edi. Sanoatda oltita yirik monopoliya paydo bo'ldi. Bular "Royyal Datch shell" (neft), "Ingliz-Eron neft kompaniyasi" (neft), "Yunilever" (keng iste'mol mahsulotlari), "Imperial kemikl industriz" (kimyo sanoati), "Danlop rabbers" (kauchuk, rezina) va "Vikkers" (qurol-yarog') edi. Mazkur olti yirik monopoliya amalda ishlab chiqarishning barcha sohalarida hukmron edi. Beshta eng yirik bank bilan birgalikda ular Angliya ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlarini ham belgilardilar.

Biroq, Birinchi jahon urushida Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g'alaba ko'p zararlar evaziga bo'ldi. Angliya jahonda moliya ustunligidan mahrum bo'ldi. Urush harajatlari 11 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Davlat qarzi 1913 yilda 645 million funt sterling bo'lsa, 1919 yilda qariyb 7 milliard 800 million funt sterlingga yetdi. Urushdan oldin ko'pgina mamlakatlarga hatto AQSHga ham qarz berib kelgan Angliyaning o'zi AQSHdan (1919 yilda 850 million funt sterlingdan ortiq) qarzdor bo'lib qoldi. Urushda Angliya tomonidan 747,7 ming kishi halok bo'ldi, 1 million 693 ming kishi yarador bo'ldi. U savdo flotining 70 % idan ajraldi. Jahon bozorida Angliyaning pozitsiyasi sezilarli darajada bo'shashib qoldi. AQSH harbiy floti tez rivojlanib ketganligidan Angliya harbiy-dengiz flotining jahon flotidagi salmog'i kamaydi.

Urushdan so'ng Angliyaning iqtisodiyoti ancha zaiflashib, keyinchalik uzoq vaqtgacha deyarli turg'unlik holatida bo'ldi. Sanoat mahsulotining hajmi 1913 yildagiga nisbatan 1920 yilda 61%, 1921 yilda 62%, 1924 yilda 88%, 1929 yilda 99,1% ni tashkil qildi.

1919 yil yanvarida L.Jorj boshchiligida konservatorlar va liberallardan iborat ikkinchi koalitsion hukumat tuzildi. Mazkur hukumat mamlakatni 1922 yil kuzigacha boshqardi. Konservatorlar hukumat tepasida epchil liberal L.Jorjning bo'lishini afzal ko'rdilar, asosiy vazirlar esa o'z qo'llarida bo'ldi. Konservatorlar partiyasining vakillari Kerzon tashqi ishlar vaziri, Cherchel harbiy vazir qilib tayinlandi.

Lloyd Jorj hukumati (1919-1922 yy) Angliyaning xalqaro mavqeini saqlab qolishga intildi. U Rossiyaning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashdi. Angliyaning maqsadi Rossiyani bo'lib yuborish, 1916 yilda Fransiya bilan bitimda qayd etilgan va 1918 yil 13 noyabrda tasdiqlangan hududlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatish edi.

Hindistonda ingliz imperializmiga qarshi revolyusion harakat yuksaldi. Amritsar shahrida qonli voqea (1919 yil 13 aprel), Panjob viloyatida qo'zg'olon (1919 yil aprel-may) va Hindistonning boshqa joylarida kuchli ommaviy chiqishlar yuz berdi. Angliya hukumati o'z mustamlakachilik rejimini saqlab qolish maqsadida yon berishlarga, konstitutsion islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi.

1919 yilda Afg'oniston xalqi o'z mamlakatiga bostirib kirgan ingliz bosqinchilariga qarshi qurolli kurashga otlandi va uchinchi Angliya-Afg'oniston urushida o'z mustaqilligi uchun mardonavor kurashib g'alaba qildi. Angliya Afg'onistonning mustaqilligini tanishga majbur bo'ldi.

1919 va 1921 yillarda Misrda Angliya mustamlakachilariga qarshi katta namoyishlar, ish tashlashlar, politsiya bilan to'qnashuvlar va qurolli qo'zg'olonlar bo'ldi. 1922 yil fevralida Angliya yon berishga majbur bo'lib, Misr ustidan bo'lgan o'z protektoratini bekor qilajagini bildirdi. Misr rasman mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Lekin, Angliya qo'shinlari ilgargidek Misrda qoldirildi.

Angliya strategik jihatdan muhim O'rta Yer dengizi hududida tayanch nuqtasiga ega bo'lishni istar edi. Kipr Angliya tasarrufida bo'lib,

Gretsiyani ham o'z ta'sir doirasiga olish, O'rta Yer dengizi mintaqasi taqdirida Angliyaning rolini oshirib yuborar edi.

Angliyaning rejalarini Turkiya buzib yubordi. 1920 yilda Izmirning greklar tomonidan bosib olinishi bilan boshlangan grek-turk urushi 1922 yilgacha davom etdi. Angliya Egey dengizining har ikki tomonida Buyuk Gretsiya davlatini yaratish niyatida bo'lgan greklarning da'vosini qo'llab-quvvatladi. Ingliz siyosatining mohiyatini yaxshi tushungan Fransiya va Italiya esa Gretsiyaning kuchayishiga qarshi chiqdilar. Angliya birinchi jahon urushidan keyin birinchi marta yakkalanib qoldi.

Lloyd Jorj hukumatining ichki va tashqi siyosati xususan Irlandiyadagi voqealar mamlakatda norozilikni kuchaytirdi. Tashqi siyosatning muvaffaqiyatsizliklari va mustamlaka masalalarida boshqa davlatlarga yon berish 1922 yil oktyabrida konservatorlarni L.Jorj boshchiligidagi liberallar bilan aloqani uzishga majbur etdi, hamda 1922 yil oktyabrida Bonar Lou boshchiligida va 1923 yil mayida Stenli Bolduin boshchiligida konservatorlar hukumatlarining tuzilishiga olib keldi.

Angliya 1919-1920 yillarda vujudga kelgan imperialistik Versal tizimining asosiy tashkilotlaridan biri bo'ldi. Angliya Parij sulh konferensiyasining tor doiradagi kengashlarida (masalan To'rtlar kengashida) faol qatnashdi.

Angliya 1919 yilgi Parij konferensiyasida tashkil topgan Millatlar Ittifoqining boshliqlaridan biri bo'lib qoldi.

2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Angliya

1924 yildan boshlab ko'pgina kapitalistik mamlakatlarda, shu jumladan Angliya xalq xo'jaligida qisman stabillashuv davri boshlandi. Lekin Angliyadagi stabillashuv juda bo'sh va qisqa stabillashuv edi. Uning iqtisodiyoti asosan turg'unlik holati bilan xarakterlandi. U AQSH va hatto Fransiyadan ham ancha orqada qolib ketgan edi. Turg'unlik holati ko'proq metallurgiya, ko'mir, to'qimachilik va kemasozlik sanoatlarida ro'y berdi. Hatto 1929 yilga kelganda ham Angliyaning

sanoat mahsuloti 1913 yildagi darajasining 99,1% ini tashkil etdi. Ishsizlar 1 mln. kishidan ortiq edi. Tashqi savdoda ham Angliyaning hissassi kamaya bordi. Jahon bozori uchun kurashda AQSH va Yaponiyadan tashqari, tiklanib kelayotgan Germaniya ham Angliyaga raqobatchi bo'lib qolmoqda edi.

Angliya hukmron doiralari xo'jalikdagi turg'unlik holatidan chiqish va iqtisodiyotda barqaror stabillashuvga erishishga barcha choralar bilan urindilar. Bolduin Buyuk Britaniya sanoatini surunkali xastalik - ishsizlik va korxonalarning to'la quvvat bilan ishlamasligidan xolos etmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda erkin tijoratni bekor qildi va milliy iqtisodiyotni himoya qilish maqsadida bir qator boj soliqlari joriy etdi. Ammo, bu choralar foyda bermadi va ingliz iqtisodiyotidagi turg'unlik 1929 yilgacha davom etdi. Buning ustiga Angliya 1923 yil oxiriga kelib yana iqtisodiy jihatdan boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Birorta ham partiya undan chiqish yo'lini topa olmadi. Konservatorlarning boj siyosati ham ko'pchilik siyosiy arboblar tomonidan rad etildi.

Britaniya qiroli Georg Beshinchi 1923 yil 23 dekabrda Leyborist partiyasi rahbari Ramsey Makdonaldga Angliya tarixida birinchi marta leyboristlar hukumatini tuzishni topshirdi. 1924 yil yanvarida leyboristlar rahbari Ramsey Makdonald boshchiligida yangi, birinchi leyboristlar hukumati "ishchilar hukumati" tuzildi. Bu hukumat "ishchilar hukumati" deb atalgan bo'lsada, haqiqatda hukmron burjuaziya manfaatini ko'zlab siyosat yuritdi.

Leyboristlar hukumati ochiqdan-ochiq korxona egalarini yoqlab chiqdi, mustamlakachilik tarafdori bo'lib ish ko'rdi. "Ishchilar hukumati"ning siyosati amalda konservatorlar hukumatining siyosatidan farq qilmadi. Ishchilarning noroziligi kuchaya bordi. O'ziga-o'zi isnod keltirgan "ishchilar hukumati" 1924 yil noyabr boshidayoq iste'fo berishga majbur bo'ldi. 1924 yil 29 oktyabrda yangi parlament saylovlarini o'tkazdi. Konservatorlar parlamentda 413 ta, leyboristlar 151 ta va liberallar 40 ta deputatlik mandatiga ega bo'ldilar. 1924 yil noyabr boshida Bolduin boshchiligida konservatorlar hukumati tuzildi va mamlakatni 1929 yilgacha boshqardi.

Stenli Bolduin 1924 yilda hukumatga qaytib keldi va 1929 yilgacha Bosh vazir bo'lib turdi. Iqtisodiyotdagi turg'unlik hamon bosh muammo bo'lib qolmoqda edi. Qachonlardir jahon bozorida Britaniya hukmronligining asosi bo'lgan hamda Britaniya sanoatining yuksak foyda olishini ta'minlagan tijorat erkinligini tiklashni talab etilardi. Ammo buning uchun, eng avvalo, ingliz valyutasining (funt sterling) oltin asosini yaratish lozim edi. Ammo, hukumat boshqa mamlakatlarning pul birliklariga nisbatan funtning qiymatini yuksak darajada belgilaganligi tufayli ingliz mahsulotlarining narxлари keskin oshib ketdi, natijada ingliz mahsulotlari raqobatga bardosh berolmaydigan bo'lib qoldi. Bu esa turg'unlikni yanada kuchaytirdi va ishsizlikni keskinlashtirdi.

Ingliz sanoatchilari ko'pgina salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan eng so'nggi choraga qo'l urdilar - ishchilarning u siz ham past darajada bo'lgan ish haqini qisqartirishga qaror qildilar. Bunga javoban Tred-yunionlar Bosh kengashi (ingliz kasaba uyushmalarining rahbar organi) barcha ishchilarni yalpi ish tashlashga chaqirdi. 1926 yil 4 mayda Angliyada ishchilarning yalpi ish tashlashi boshlandi. Sanoatning ish tashlagan sohalarida faoliyat tamomila to'xtadi.

Bolduin hukumati tomonidan 1925 yilda moliya islohoti o'tkazilib qadrsizlanib ketgan pul (funt sterling)ning oltin standarti (banknotni oltinga tenglashtirish va oltinga almashtira olish) tiklandi.

Konservatorlar hukumati 1925 yil oktyabrida Lokarno bitimlarini tuzishda, Germaniya agressiyasini Sharqqa qaratish uchun zamin hozirlashda faol qatnashdi. Angliya "Daues rejasi"ga ko'ra, Germaniya harbiy sanoatining tiklanishiga katta yordam qilib turdi va yangi "Yung rejasi"ni qabul qilishda qatnashdi.

Jahon bozori, xom ashyo manbalari va chetga kapital chiqarish ob'ektlari uchun kurashdi, ayniqsa Angliya-Amerika ziddiyati keskinlashdi. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha rivojlangan Buyuk Britaniya dominionlari - Kanada, Avstriya va boshqalar, o'zlariga Angliya bilan teng iqtisodiy huquqlar berilishini talab qildilar. Angliya burjuaziyasi yon berishga majbur bo'ldi. 1926 yili imperiya konferensiyasida dominionlar Britaniya imperiyasi tarkibida qolgani

holda ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka erishdilar va Angliya bilan yuridik jihatdan tenglashdilar.

1931 yilda parlament akti (Vestminster statuti) bilan kuchga kiritildi va Britaniya mustamlaka imperiyasi “Britaniya millatlar hamkorligi” degan nom oldi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Angliya

Inqiroz Angliya iqtisodiyotini yanada orqaga surib yubordi. 1930 yildagi sanoat mahsuloti 1929 yildagi ko‘rsatkichning 92,4% ga, 1931 yilda esa 83,8% ga, 1932 yilda esa 82% ga tushib qoldi.

Ko‘mir, mashinasozlik, kemasozlik va boshqa ba’zi sanoat tarmoqlarining mahsuloti 40% ga kamayib, 1897 yildagi darajaga tushib qoldi. Angliyaning jahon savdosidagi roli ham pasaydi. Tashqi savdoning hajmi ikki hissa kamaydi. Xorijiy mamlakatlarning Angliyani an’anaviy bozorlardan siqib chiqarish jarayoni avj oldi.

Angliya iqtisodiyotining eng zaif joyi ishsizlik bo‘ldi. 1929-1932 yillardagi inqiroz ishsizlikning Angliya tarixida bo‘lmagan darajada o‘shishiga olib keldi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1930 yilda barcha ishchilarning 17% uzoq vaqt davomida ishsiz edilar, 1931 yilda ishsizlik darajasi 23% ga, 1932 yilda esa 25% ga o‘sdı. Iqtisodiy inqirozning boshlanishi leyboristlar partiyasining yana hukumat tepasiga kelish vaqtiga to‘g‘ri keldi. 1929 yil mayidagi parlament saylovlarida konservatorlar hukumatining ichki va tashqi siyosatidan norozi bo‘lgan ishchilar leyboristlarga ko‘p ovoz berdilar. 1929 yil iyunida R.Makdonald (1866-1937 yy) boshchiligidagi leyboristlarning ikkinchi hukumati tuzildi.

R.Makdonald boshchiligidagi ikkinchi leyboristlar hukumati qiyin ahvolda qoldi. Leyboristlar hukumati moliyaviy inqirozdan qutulish uchun 1931 yildan ijtimoiy ehtiyojlarga oid harajatlarni yanada qisqartirish va egri soliqlarni oshirishni mo‘ljalladi. Bu esa, leyboristlar partiyasining o‘zida ham norozilik tug‘dirdi, natijada partiya inqirozi, ixtilof va ajralish ro‘y berdi. Leyboristlarning ikkinchi hukumati 1931 yil avgustida iste’fo berdi. Angliya hukmron doiralari yirik siyosiy

nayranglarni amalga oshirishga ahd qildilar. 1931 yil avgustida R.Makdonald hukumati iste'foga chiqdi, biroq ertasi kuniyoq qirol Georg V (1865-1936, 1910-1936 yillarda hukmronlik qilgan) unga hamkorlik asosida konservatorlar ishtirokida yangi hukumat tashkil qilish vazifasini topshirdi. Hukumatdagi ko'pchilik o'rin konservatorlarga tegishli edi, biroq Bosh vazir kursida Makdonald qoldirildi. Bu yangi siyosiy xiylanayrang bo'lib, unda leyboristlar rahbarlik, konservatorlar esa hukmronlik qilardilar.

Yangi hukumat mehnatkashlarning ijtimoiy imtiyozlariga qarshi yoppasiga hujum boshladi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa 10% ga pasaytirildi. O'ng leyboristlar, konservatorlar va liberallar bilan birlashib, Makdonald boshchiligidagi reaksiyon "milliy hukumat" 1935 yil yozigacha hokimiyat tepasida turdi.

Angliya "Milliy hukumati" tashqi siyosatida, AQSH va Fransiya hukumatlari bilan birgalikda Yaponiyaning manchjuriyani bosib olishiga, Germaniyada hokimiyatning gitlerchilar qo'liga o'tishiga, urush o'choqlari va tugunlarining paydo bo'lishiga, urush olovining kuchayib borishiga yo'l berib qo'ydi va fashist agressorlarni rag'batlantirdi. 1933 yilda Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya o'rtasida "To'rtlar ahdnomasi" tuzildi va fashist agressorlar bilan til biriktirildi.

Angliya mustamlakachilari o'z mustamlakalarini, ayniqsa, Hindistonni tobora ko'proq talashga zo'r e'tibor berib keldilar. Ular Hindistonga chiqariladigan ingliz sanoat tovarlarining narxini pasaytirmaslikka, Hindiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini arzon bahoda olib turishga intildilar.

Angliya hukmron doiralari dominionlardagi aholiga nisbatan bir qancha yon berishlarga borishga majbur bo'ldi. 1931 yilda Angliya parlamenti uning biror-bir qonuni dominionlarga ularning rasmiy roziligisiz tadbiq etilmasligini ko'zda tutuvchi hujjatni qabul qildi. Dominionlar qabul qilgan qarorlar endi Angliya parlamenti tomonidan tasdiqlanmasdi. Angliya parlamentining bu hujjati Vestminster nizomi nomini oldi. U Angliya parlamentining mustamlaka va dominionlarda qabul qilingan istalgan qonunni bekor qilish huquqiga barham berdi. Vestminster nizomi dominionlarning mustaqilligini jilovlovchi so'nggi

huquqiy cheklovlarni yo‘q qildi (Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya). Shu bilan birga, Britaniya hukumati mustamlaka va dominionlarning Angliyaga qaramligini mustahkamlashga urindi. Ular Angliyaning sanoat ustaxonasi bo‘lib qolishlari lozim edi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Angliya

“Milliy hukumat”ning bosh vaziri Makdonald 1935 yil iyunida iste’fo berdi va konservatorlar lideri Bolduin bosh vazir qilib tayinlandi. 1935 yil noyabrda navbatdagi parlament saylovida Bolduin boshliq konservatorlar xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirish, kollektiv xavfsizlik siyosatini yuritish kabi va’dalar berish yo‘li bilan g‘alaba qildilar. Konservatorlar keng jamoatchilik oldida o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun 1937 yilga qadar milliy leyboristlar va milliy liberallar bilan bir blokda bo‘ldilar va Bolduin boshchiligida ikkinchi konservativ “Milliy hukumat” tuzdilar. 1937-1940 yillarda Nevil Chamberlen ushbu konservativ hukumat tepasida turdilar.

Bolduin va Chamberlen boshliq konservativ tashqi siyosatda hukumatlar leyboristlar partiyasining qo‘llab-quvvatlanishi bilan Angliya-Germaniya, Angliya-Yaponiya ziddiyatlarini SSSR hisobiga bartaraf qilishga intildi. Boltiq dengizida Germaniyaning pozitsiyasini kuchaytirish maqsadida 1935 yil 18 iyunda Angliya Germaniya bilan dengiz bitimi tuzdi.

Angliya AQSH va Fransiya bilan birgalikda “aralashmaslik” siyosati niqobi ostida ish ko‘rib, fashist davlatlarining agressiyasini rag‘batlantirdi va 1935-1936 yillarda Italiyaning Habashistonga qarshi, 1936-1939 yillarda Germaniya va Italiyaning Ispaniyaga qarshi intervensiya qilishlari va 1937 yilda Yaponiyaning Uzoq Sharqda Xitoyga qarshi urush ochish uchun keng imkoniyat yaratib berdi. Angliya, AQSH va Fransiya G‘arbda (mavjud holatni) saqlab qolish, fashizm agressiyasini Sharqqa - SSSRga qarshi qaratish uchun zo‘r berib urindilar. 1937 yil noyabrda Angliya hukumati lord Ralifaksni Germaniyaga yuborib, SSSRga qarshi Angliya, Germaniya Italiya va Fransiyadan iborat ittifoq tuzishni Gitlerga taklif qildi. Shu bilan birga Gitlerga Germaniyaning

Dansigni, Avstriya va Chexoslovakiyani bosib olishga Angliyaning rozi ekanligini bildirdi. Angliyaning roziligi bilan Germaniya 1938 yil 12 martda Avstriyani bosib oldi.

Uch yil davomida N.Chemberlen Gitlerni ko'p sonli yon berishlar yo'li bilan "tinchlantirish" siyosatining tashabbuskori va ijrochisi bo'ldi. N.Chemberlenning siyosiy maqsadi to'rt davlat - Angliya, Germaniya, Italiya va Fransiya o'rtasida bitim tuzishdan iborat edi. Uning fikricha, bunday bitim Yevropaning qolgan qismiga hukmini o'tkazuvchi ittifoqning tuzilishiga olib kelardi. Shu sababli N.Chemberlen hukumatining tashqi siyosati Germaniya bilan murosas yo'llarini izlashdan iborat bo'ldi. Angliya hukumati, Chexoslovakiya hukumati bilan nemis fashistlari o'rtasida vositachilik rolini o'ynadi. Buning natijasida 1938 yil 29-30 sentyabrda Germaniyaning Myunxen shahrida AQSHning qo'llab-quvvatlanishi bilan to'rt davlat - Germaniya, Angliya, Italiya va Fransiya hukumatlari rahbarlarining kengashi bo'lib, sharmandali bitim tuzildi.

Keskinlashib borayotgan xalqaro ahvol Angliya, Fransiya va AQSH hukmron doiralari umid qilganidek rivojlanmadi. 1939 yil 1 sentyabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga hujum qildi. Shundan keyin Angliya va Fransiya hukumatlari xalq ommasida oldida uzil-kesil sharmanda bo'lishdan qo'rqishdi. Natijada Germaniya dunyoni qaytadan ta'sir doiralari bo'lish to'g'risida Angliya bilan kelishmay, Yevropa va jahonda o'z hukmronligini o'rnatish yo'liga butunlay o'tib ketganligi uchun 1939 yil 3 sentyabrda Angliya va Fransiya, Germaniyaga urush e'lon qildilar.

Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Birinchi jahon urushi, Angliya, "Lloyd", "Barklay", "Midlend", "Vestminster", "Yunilever", "Imperial kemikl indastri", "Danlop rabbers", "Vikkers", konservatorlar, leyboristlar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Birinchi jahon urushining Angliya iqtisodiyotiga ta'siri qanday bo'ldi?
2. Angliyada birinchi leyboristlar hukumati qachon tuzildi?
3. Angliyada 1931 yilgi hukumat inqirozining kelib chiqish sababini aytib bering?
4. Bolduin va Chamberlen konservativ hukumatlari tashqi siyosatda qanday yo'l tutdi?
5. Vestminster nizomini izohlab bering.
6. Angliyaning Myunxen bitimida ishtirok etishidagi bosh maqsadini aytib bering.
7. Angliya Polshaga nega amaliy yordam ko'rsatmaganlik sabablarini tushuntirib bering.
8. Fashistlar Germaniyasi Polshaga qachon hujum qildi?
9. Angliyada "Milliy hukumat" kim tomonidan tuzildi?
10. Angliyaning ikki jahon urushi oralig'idagi muammolari?

FSMU texnologiyasi:

Talabalar bilan "FSMU" metodini qo'llashdan oldin ular yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni takrorlashadi.

•FSMU texnologiyasi talabalarning o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalar tomonidan egallangan bilimlarni tahlil qilishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda talabalarni bahslashish muloqotiga kirishishni o'rgatadi.

•Talabalarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishda yordam beradi.

•O'qituvchi tomonidan har bir talabaga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirish topshirig'ini beradi.


F -	fikringizni bayon eting;
------------	--------------------------

S -	fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
M -	ko'rstagan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
U -	fikringizni umumlashtiring.

Yakka tartibdagi ish tugagach, kichik guruhlariga ajratiladi va talaba o'z fikrini jamoa ichida himoya qilishi kerak.

Vazifa. Oq qog'ozda yozilgan FSMU ustida ishlang – **“Jahon iqtisodiy yillarda Angliya” va “1918-1945 yillarda Angliya tashqi siyosati”** masalalarida fikringizni bayon eting:

Insert pedagogik texnologiyasi



V	+	–	?
----------	----------	----------	----------

II BOB. 1918 - 1945 YILLARDA FRANSIYA

1-§. Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Fransiya

Urush 10 ta sanoat departamentini va ko'pgina qishloq rayonlarni butunlay vayron qildi. Urushda 1 million 400 ming kishi halok bo'ldi. Urush xarajatlari natijasida ko'rilgan zararining umumiy hajmi 200 milliard frankka etdi. Urush sudxo'r imperializm mamlakati bo'lgan Fransiyaning moliyaviy quvvatiga katta zarba berdi.

Fransiya AQSHdan 4 milliard dollar va Angliyadan 650 million funt sterling qarzdor bo'lib qoldi. Fransiya shunday katta zarar evaziga o'z ittifoqchilari bilan birgalikda Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan g'alaba qozondi.

Fransiya Germaniyadan Elzas va Lotaringiyani qaytarib oldi. Marokash ustidan protektoratini mustahkamladi. Turkiya mustamlakalari bo'lgan Suriya va Livanni idora qilish mandatini oldi. Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Togo va Kamerunni Angliya bilan bo'lishib oldi. Fransiya Yevropada o'z gegemonligini o'rnatishga zo'r berib urindi.

Elzas va Lotaringiyaning qo'shib olinishi natijasida fransuz metallurgiya sanoatining quvvati 1,5 marta oshdi. Temir rudasi qazib olish bo'yicha Fransiya Yevropada birinchi o'ringa chiqdi.

Germaniyadan olingan 8 milliard marka tovon puli sanoatni texnologiya jihatidan to'la qayta qurish imkonini berdi. Ayniqsa, og'ir

sanoat, harbiy sanoat taraqqiy etdi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi kuchaydi.

Bank va davlat apparati bilan bog‘liq bo‘lgan gigant monopolistik birlashmalar (“200 oila”) kuchayib ketdi. Fransuz bankining roli g‘oyat oshdi.

Ammo jahon miqyosida Fransiya sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jihatidan boshqa bir qator yirik kapitalistik mamlakatlardan orqada edi. Barcha kapitalistik mamlakatlarning birgalikda olingan umumiy sanoat mahsulotida Fransiyaning hissasi 1913 yilda 7,2% bo‘lsa, 1937 yilda 5,1% ni tashkil qildi, xolos.

1917 yil noyabrdan beri mamlakatni Klemanso boshliq radikallar hukumati boshqarib keldi. Radikallar partiyasi mayda va o‘rta burjuaziyaga tayanuvchi partiya bo‘lib, uning etakchisi Klemanso monopoliyalarning odami edi. U mamlakatda yarim harbiy-diktatorlik rejimini o‘rnatdi. Keyinchalik, sharoitga qarab Fransiya turli burjua partiyalaridan iborat “milliy blok” va “so‘l blok”lar tuzildi.

“Milliy blok” 1919 yilda revolyusion harakat yuksalib borayotgan sharoitda tashkil topdi. 1920 yil yanvardan 1924 yil may oyigacha mamlakatni “Milliy blok” hukumati (Mileran, Lyeg, Brian, Puankara hukumatlari) boshqardi. Ko‘p o‘tmay Mileran prezidentlik lavozimini egalladi.

Antanta bilan Germaniya va uning sobiq ittifoqchilari bo‘lgan Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya o‘rtasidagi sulh shartnomalarining hammasi 1919-1920 yillarda Fransiya Parij yonidagi joylar va saroylarda (Versal, Sen-Jermen, Neyi, Trianon, Sevrda) imzolangan edi. Ushbu shartnomalarda rasmiylashtirilgan xalqaro munosabatlar tizimi Versal tizimi nomini oldi.

Germaniya bilan Versal sulh shartnomasini tuzishda Fransiya Yevropada gegemonlik pozitsiyasini egallashni va Germaniyani ancha zaiflashtirishni mo‘ljallagan edi. Ammo Angliya va AQSH bunga yo‘l qo‘ymadi.

1921 yilda Fransiya Polsha bilan, 1921-1922 yillarda Chexoslovakiya, Yugoslaviya va Ruminiya bilan ittifoqchilik bitimlarini va Fransiya ta’siri ostida keyingi uch davlatdan iborat bo‘lgan ittifoq

tuzdi. Bu bitimlar va uch davlat ittifoqidan iborat bo'lgan Kichik Antantaning tuzilishi avvalo Sovet Rossiyasiga, so'ngra Germaniyaga qarshi qaratilgan va Fransiyaning Yevropada gegemonlik maqsadlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan edi.

2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Fransiya

1924 yildan boshlab boshqa kapitalistik mamlakatlardagi singari Fransiya ham barqarorlashuv davri boshlandi. Urushda zarar ko'rgan mamlakat xalq xo'jaligini tiklash, mashina uskunalarini yangilash va ayrim strategik ahamiyatga ega bo'lgan qurilishlar boshlandi.

1924-1925 yillarda Fransiya sanoat mahsuloti urushdan oldingi darajadan o'zib keta boshladi. 1925 yilda ko'mir qazib chiqarish urushdan ilgarigi darajaga nisbatan 107 % ga, po'lat eritish bo'yicha 102 % ga etdi. Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalashuvi kuchaydi.

1924 yil may oyida navbatdagi parlament saylovi arafasida radikal va radikal-sotsialistlar partiyasi boshqa mayda va o'rta burjua partiyalaridan (respublikachi sotsialistlar, mo'tadil antiklerikallardan), sotsialistik partiyadan iborat, "So'l blok" tuzdi.

Saylovda bu blok g'alaba qozondi, "milliy blok" esa mag'lubiyatga uchradi. Mamlakatda "so'l blok"ning Eduard Errio boshliq hukumati tuzildi. "So'l blok" mamlakatni 1924 yil iyun oyidan 1925 yil aprel oyigacha boshqardi.

1924 yil oktyabrda o'ng partiyalarning qarshiligiga qaramay Fransiya bilan Sovet Ittifoqi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1925 yil aprel oyida Puankare boshchiligida yirik burjuaziyaning "Milliy birlik" hukumati tuzildi. Hukumatda radikallar ishtirok etdi. "Milliy birlik" hukumati mamlakatni uch yil idora qildi.

Puankare inflyasiyaga qarshi kurash, frankni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni o'z ichki siyosatining muhim vazifasi deb e'lon qildi.

Tashqi siyosatda Rayleon Puankare hukumati mustamlakachilik tadbirlarini kuchaytirdi. 1926-1927 yillar Marokash va Suriyadagi milliy ozodlik harakati yovuzlarcha bostirildi. Shovinistik va fashistik

tashkilotlar faollashdi va polkovnik De Lya Rok boshchiligida 1927 yilda “jangavor krestlar” nomli yangi harbiy-fashistik tashkilot tuzildi. (Peten va De Goll fashistik tashkilotning yashirin a’zolari bo’lganlar).

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Fransiya

Fransiyada, 1929 yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi kechroq, 1930 yildan boshlandi. Chunki bu mamlakatda jahon urushida xarob bo’lgan xo’jalikni tiklash strategik qurilish sanoat mashina uskunalari yangilash davom etmoqda edi.

Inqiroz Fransiyada bir necha yillarga cho’zilib ketdi, ishlab chiqarishning ba’zi tarmoqlari esa ikkinchi jahon urushigacha inqirozdan qutila olmadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqardi, sanoat mahsulotining uchdan biri, qishloq xo’jalik mahsuloti va tashqi savdoning beshdan ikkisi, milliy daromadning uchdan biri qisqarib ketdi.

Ishchilarning ish haqi 40% ga kamaytirildi. Ishchilar ish haqining umumiy fondi 23 mlrd. frankka kamayib ketdi. Shtraflar olish avjiga chiqib ketdi. Ishlab chiqarish tobora ixchamlashtirilib, mehnat jarayoni jadallashtirildi va ish kuni 10-12 soatga uzaytirildi.

Xotin-qizlar va bolalar haddan tashqari ekspluatatsiya qilindi. Narx-navo ko’tarildi. Egri soliqlar oshdi. Ishsizlar ko’payib ularning soni 1,5 mln. kishidan oshdi, ishchilarning 50% butunlay va qisman ishsiz qoldi.

Inqiroz mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni kuchaytirdi va hukumatdagi guruhlar o’rtasidagi kurashning avj olishiga olib keldi. Faqat 1937 yildagina, Fransiya sanoati va tashqi savdosi inqirozdan oldingi darajaga qaytdi. Biroq, 1938 yilda yangi tanazzul boshlandi va u deyarli ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar davom etdi.

1926 yildan boshlab Fransiya burjuaziyasining an’anaviy yirik partiyalari Fransiyada hokimiyat tepasiga keldi. Ammo, 1929 yil noyabr oyidan 1932 yil may oyigacha mamlakatda 8 marta Fransiya burjua partiyalaridan tashkil bo’lgan hukumat almashdi.

1932 yil may oyidagi saylovlar Fransiya inqirozning ikki yili davomida so’lga qarab burilganini ko’rsatdi. Saylovlar sotsialistlar va

radikal-sotsialistlar blokiga g'alaba keltirdi. Yangi hukumatni yana Eduard Errio boshqardi.

1932 yil dekabr oyidan 1934 yil yanvar oyiga qadar Fransiya so'llarning 5 hukumati almashdi va ularning har biri uch oydan oz hukmronlik qildi. Ularning eng so'nggisi Eduard Dalade (1884-1970 yy.) hukumati bo'ldi.

1932-1933 yil iyul oylarida "Fransuz birdamligi", "fransistlar" degan yangi fashistik partiya va ittifoq tuzildi. Ilgari tuzilgan "Jangovar krestlar", "fransuz harakati" kabi fashist tashkilotlari aktivlashdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Fransiya

Fashistik tashkilotlarning boshliqlari (De Lya Rok) va boshqalar Gitler va Mussolini bilan aloqada bo'ldilar. Buning ustiga, Fransiya hukmron doiralari xalqaro vaziyat keskinlashib borayotganiga va Germaniyadan reparatsiya olish to'xtaganligiga qaramay, German fashizmini qo'llab-quvvatladilar.

Gitlerning hokimiyatga kelganidan ruhlangan Fransiya yirik moliya va sanoat sarmoyasining o'ng doiralari Fransiya ham fashistlar diktaturasini o'rnatishga urindilar.

1934 yil 6 fevralda, hukumat inqirozi siyosiy inqirozga o'sib o'tganidan so'ng, Parijda fashistlar isyoni boshlandi. 1934 yil 7 fevral kuni E.Dalade o'ziga ishonch bildirganiga qaramay iste'fo berdi. Bosh vazir qilib fashizmning ochiq tarafdori bo'lgan Gaston Dumerg (1863-1937 yy.) tayinlandi.

Fransiya mehnatkashlari fashistlar to'ntarishi mualliflari rejasini barbod qildilar. 1934 yil 9 fevralda Parij va boshqa shaharlarda antifashist kuchlarining katta namoyishlari bo'lib, politsiya bilan to'qnashuvlar yuz berdi, bir necha kishi halok bo'ldi. 12 fevralda butun Fransiya umumiy ish tashlash boshlandi. Unda 4,5 mln. kishi qatnashdi. Shu kuni Fransiya fashistlarga tarafdor reaksiya kuchlar tomonidan tayyorlangan davlat to'ntarishi barbod bo'lgani oydinlashdi. Fashizm Fransiya g'alabaga erisholmadi.

1936 yil yanvar oyida Xalq Frontining dasturi e'lon qilindi. Uni ishlab chiqishda mamlakat demokratik kuchlarining vakillari ishtirok etdilar. Dastur fashistlarga qarshi demokratik xususiyatga ega edi.

1936 yil bahorida Fransiyada deputatlar palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Xalq fronti partiyalari birgalikda, umumiy dastur asosida ishtirok etdilar. Saylovlarda Xalq fronti umumiy hisobda 57% ovoz to'plab, g'olib chiqdi. Xalq fronti hukumati o'z qonunlarini amalga tatbiq etishda juda katta qiyinchiliklarga to'qnash keldi. Reaksion kuchlar Xalq fronti hukumatiga qarshi ochiq hujum boshladilar, uning faoliyatini xalqqa qarshi yo'naltirishga urindilar.

Xalq fronti obro'sizlandi. Uning saflarida parchalanish yuz berdi. Eduard Dalade boshchiligidagi guruh Xalq fronti partiyalari bilan orani uzish va o'ng reaksiyon partiyalarga tayangan holda bir partiyali hukumatni tuzishni talab qildi.

Eduard Errio boshchiligidagi ikkinchi guruh esa Xalq fronti dasturiga sodiq qoldi. Radikal-sotsialistlarning 1938 yil oktyabr oyida Marselda bo'lib o'tgan s'ezdida Xalq frontidan ajralish to'g'risida qaror qabul qilindi. Fransiyaning Xalq fronti parchalandi.

Xalq frontining parchalanishi reaksiyon kuchlarga yo'l ochdi. 1938 yil 10 apreldan 1940 yil 18 maygacha hokimiyatni boshqargan E.Dalade hukumati davridayoq Fransiya mehnatkashlari uchun Xalq fronti hukumati joriy qilgan imtiyozlarga barham berila boshlandi. E.Dalade hukumati "milliy hiyonat" hukumatiga aylandi. Ostonada esa dushman birinchi imkoniyat tug'ilgandayoq Fransiyaning bosib olish niyatini hech kimdan yashirmagan fashistlar Germaniyasi turardi.

Hiyonat, xo'rlanish va mag'lubiyatlar yo'li Fransiya tashqi siyosatini bu davrda Fransiya yirik sarmoyasi bilan yaqin aloqada bo'lgan reaksiyon va fashistlarga tarafdor qarashlarini hech kimdan yashirmagan davlat va siyosat arboblari belgiladilar. Bular 1931 yil yanvar oyidan 1932 yil fevral oyigacha, 1935 yil iyun oyidan 1936 yil yanvar oyigacha Fransiya Bosh vaziri bo'lgan P.Laval, 1934 yil oktyabr oyidan 1936 yil yanvar oyigacha tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan P.Tarde, E.Dalade, J.Bone, A.Sarro va boshqalar edilar. Fransiyaning Yevropada gegemonligi qaror topishiga ishonchi yo'qolgan bu davlat va siyosat

arboblari Germaniya va Italiya fashistlari bilan til biriktirish yo'liga tushdilar, shu taxlit ular bilan to'qnashishdan qutulib qolishga umid qildilar. Ular mudofaaga asoslangan urush g'oyasini ilgari surdilar.

Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: departament, imperializm mamlakati, protektorat, Versal tizimi, "milliy blok", "so'l blok", Xalq fronti, "Fransuz birdamligi", "fransistlar", "milliy hiyonat" hukumati.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Birinchi jahon urushi Fransiya iqtisodiyotiga qanday ta'sir qildi?
2. "Milliy blok" hukumatining o'z oldiga qo'ygan dasturi nimalardan iborat edi?
3. "So'l blok" hukumati qachon hokimiyat tepasiga keldi?
4. Fransiya 1934 yilgi fevral voqealarining sababini ayting?
5. Fransiya antifashistik Xalq fronti hukumati qachon hokimiyat tepasiga keldi?
6. Ikkinchi jahon urushi arafasida Fransiya hukumati tashqi siyosatining mohiyatini ayting?
7. Fransiyaning Myunxen bitimida ishtirokining maqsadi nima edi?
8. Fransiya ittifoqchi sifatida nega Polshaga amaliy yordam ko'rsatmadi?
9. Versal tizimining mohiyati va Fransiya uchun oqibatlari nimalardan iborat bo'lgan?
10. Fransiyaning Yevropadagi tashqi siyosati va oqibatlari?

Talabalar bilishi shart bo'lgan tarixiy tushunchalar

Tarixiy sanalar: 1931 yil yanvar, 1932 yil fevral, 1935 yil iyun, 1936 yil yanvar, 1934 yil oktyabr , 1936 yil yanvar, davom ettiring	Tarixiy shaxslar: P.Laval, P.Tarde, E.Dalade, J.Bone, A.Sarro davom ettiring	Tarixiy voqealar: Imperializm, Xalq fronti hukumati, Myunxen bitimi davom ettiring
--	--	--

Ushbu metod biron muammoning ikki xil tomonini solishtirib tahlil qilishga imkon beradi. Tanqidiy mushohadani rivojlantiradi

T – sxema qoidalari tanishtiriladi.
Yakka tartibda rasmiylashtiriladi.

Topshiriq yakka tartibda 10 daqiqa vaqt davomida bajariladi.

Vaqt tugagach talabalar o‘z fikr-mulohazalarini izohlarsiz o‘qib eshittiradilar.

Barcha o‘quv guruhi yagona T-sxema tuzadilar.

Fransiya siyosatining shakllanishi va rivojlanishi

<i>Ichki siyosati</i>	<i>Tashqi siyosati</i>
1. 2. 3. 4.	1. 2. 3. 4.
<i>Xulosa:</i>	

III-BOB. 1918 -1945 YILLARDA GERMANIYA

1-§. Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Germaniya

Birinchi jahon urushi arafasida Germaniya eng kuchli imperialistik mamlakatlardan biri edi. Sanoat taraqqiyoti sohasida Germaniya, Angliya va Fransiya o'zib ketgan mamlakat edi. Birinchi jahon urushi yillarida ishlab chiqarish hamda kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi, monopoliyalarning o'sishi tezlashdi. Faqatgina, Krupp konsernining daromadi 15 marta oshdi. Ammo, shu bilan birga birinchi jahon urushi mamlakatga katta zarar, xalq ommasiga og'ir kulfatlar keltirdi. Iqtisodiy va siyosiy zulm kuchaydi. Sanoat korxonalarida harbiy katorga rejimi o'rnatildi. Ish soatlari uzaytirilib ish haqi pasaytirildi. Qishloq xo'jaligi chuqur inqirozga uchradi. Ekin maydonlarining yarimidan ortig'i qisqardi. Ko'p sanoat markazlari vayron bo'ldi.

Moliyaviy ahvoli yomonlashib davlat qarzi ko'paydi. Ochlik va epidemiya natijasida 900 mingdan ortiq kishi o'ldi. Urushda 1 million 800 mingdan ortiq kishi halok bo'ldi, 1 million 500 ming kishi mayib majruh bo'lib qoldi. Frontlardagi harbiy holat siyosiy iqirozni chuqurlashtirib yubordi. Germaniya imperializmini qutqarib qolishga intilgan AQSH prezidenti Vilsonning maslahati bilan 1918 yil 3 oktyabrda sotsial partiya o'ng qanotining vakillari bilan (Sheydeman va Bauer) ishtirokida shaxzoda Maks Badenskiy boshchiligida yangi, kaolitsion hukumat tuzildi. Lekin hukumat o'zgarishi ichki siyosiy ahvolni yengillashtira olmadi.

1918 yil 3 noyabrda Kilda harbiy flot matroslarining qo'zg'oloni bo'lib, Germaniyada inqilob boshlanib ketdi. Monarxiya hokimiyati ag'darilib tashlandi. Imperator Vilgelm II Gollandiyaga qochdi. 1918 yil 10 noyabrda Berlin Sovetining birinchi plenumi yangi hukumatni "Xalq vakillari Soveti"ni tuzdi. Ebert va Sheydemanlar hukumat boshliqlari bo'lib oldilar va hukumatni "Sof sotsialistik hukumat" deb atadilar.

1918 yil 11 noyabrda Germaniya bilan Antanta o'rtasida Germaniyaning batamom taslim bo'lishi to'g'risida yarash bitim imzolandi. 1918 yilning 16-21 dekabrda Sovetlarning birinchi umumiy Germaniya s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezd butun hokimiyatni Ebert hukumati qo'lida qoldirish va Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

1919 yil 19 yanvarda Milliy ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi. Ko'pchilik o'rinni burjua partiyalari "Xristian demokratik partiya", "katolik" "Markaz" partiya, savdo-sanoat burjuaziya partiyasi bo'lgan "Demokratik partiya" sanoat va moliya magnatlari partiyasi bo'lgan "Xalq partiyasi" va boshqa partiyalar egalladi. 1919 yil 6 fevralda kichik Veymar shahrida Ta'sis Majlisi ochildi. Shu kuni o'ng sotsial-demokratlar qo'lida bo'lgan ishchi va soldat deputatlari markaziy Soveti o'z huquq va majburiyatlarini Ta'sis Majlisiga topshirdi. Germaniya ishchi demokratlari sovetlari batamom tugatildi. Sheydeman boshchiligida sotsial demokratlardan, demokratik va katolik partiyalari vakillaridan iborat yangi hukumat tuzildi. Ebert prezident qilib saylandi.

1919 yil 31 iyulda Milliy majlis tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaga (Veymar konstitutsiyasi) muvofiq Burjua parlamenti formasidagi burjua respublikasi qaror topdi. Burjua-yunkerlar ittifoqida rahbarlik burjuaziya qo'liga o'tdi.

Konstitutsiyaga muvofiq, federativ tuzum saqlanganligi holda, markaziy hokimiyat kuchaytirildi. Markaziy hokimiyat - reyxstag (qonun chiqaruvchi organ - quyi palata), reyxstrag (O'lkalar vakillari Soveti-yuqori palata) va prezidentdan iborat bo'lib. Prezidentga katta huquqlar berildi va Konstitutsiyaning 48-moddasiga binoan, u 7 yilga saylanardi. Veymar konstitutsiyasi davlatdagi rahbarlik roli burjuaziya o'tganligidan dalolat edi.

So'ngra, yangi hukumat vakillari Parijda Versal tinchlik shartnomasini imzoladilar. 1919 yil 28 iyunda Versalda Germaniya bilan Antanta o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasi mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada yomonlashtirib yubordi. Versal sulhining ijodkorlari avvalo AQSH, so'ngra Angliya va Fransiya davlatlari edi. Sulh shartnomasiga ko'ra, Germaniya urushda Antanta mamlakatlariga yetkazilgan barcha zararlarni qoplaydigan bo'ldi. Umuman to'lanadigan reparatsiya summasi keyinroq (1921 yil mayida) oltin bilan 132 mlrd. oltin marka qilib belgilandi.

1919 yilda sobiq Kayzer armiyasining jinoyatchi ofitser va soldatlaridan, eng reaksiyon va shovinistik elementlardan iborat fashistik partiya tuzildi. Bu partiya o'zini "Milliy sotsialistik ishchi partiyasi" deb atadi. Fashistik partiyaning 25 bandedan iborat bo'lgan dasturi ishlab chiqildi. Natsistlar dasturi barcha nemislarni bir davlatda - Buyuk Germaniyada birlashtirishni talab etardi. Bu esa nemislar yashaydigan hududlarni - Chexoslovakiya, Avstriya, Polshaning bir qismi, Belgiya, Gollandiya, Boltiqbo'yini Germaniyaga qo'shib olishni bildirardi.

Adolf Gitler 1920 yildan boshlab fashistlar partiyasining yetakchisi bo'lib qoldi. U sobiq Kayzer armiyasining yefreytori va urushdan so'ng Myunxen shahar politsiyasining maxfiy agenti edi. Fashistlar shturm otryadlarini tuzdilar. "Irqiy ozodlik" shiori ostida reaksiyon-shovinistik propaganda avj olib ketdi. Natijada, mamlakatda siyosiy vaziyat

keskinlashib, hukumat inqirozi yuz berdi. Yirik burjuaziya va harbiy-monarxist doiralar reparatsiya to'lamaslikni talab qilib chiqdilar.

2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Germaniya

1923 yil oxirida o'tkazilgan pul islohoti inflyasiyani bir muncha bartaraf qildi. 8 soatlik ish kuni nogironlar va keksalarga beriladigan nafaqalar bekor qilindi. 1924 yil boshida harbiy holat yo'qotilib, yana parlament metodlariga o'tildi.

AQSHning taklifi bilan amerikalik bankir, general Daues boshchiligidagi ekspertlar komissiyasi tashkil etildi. Komissiya Germaniyaning tovon to'lovlarini tartibga solish rejasini ishlab chiqdi. Uning takliflari 1924 yil 16 iyulda Londonda bo'lib o'tgan mamlakatlar konferensiyasida (Daues rejasi) qabul qilindi.

“Daues rejasi”ga muvofiq, AQSH Germaniyaning moliya ishlarini o'z nazoratiga oldi hamda Germaniyaning og'ir sanoati va harbiy sanoatini tiklash uchun mo'ljallangan uzoq muddatli zayom va kreditlarning 70% ini berdi. 1924-1929 yillarda chet eldan Germaniyaga berilgan uzoq muddatli qarz 10-15 milliard markani va qisqa muddatli qarz 6 milliard markani tashkil qildi. Bu esa Germaniyaning shu yillardagi reparatsiya to'lovlaridan ikki hissa ko'p edi. Bundan tashqari 1925 yildan 1930 yilgacha AQSH Germaniya iqtisodiyotiga 10 milliard dollar sarmoya kiritdi. O'z navbatida bu Germaniya iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan yuksalishi uchun zamin yaratdi.

1928 yilda Germaniyada 1913 yilga nisbatan 5 barobar ko'p elektr energiyasi, 7 barobar ko'p avtomobil, 32 barobar ko'p alyuminiy ishlab chiqarildi. Shu yili Germaniya kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. 1929 yilda Germaniya 16 mln. tonna po'lat ishlab chiqardi (Angliya - 10 mln., Fransiya-10 mln.), mashinalar eksporti bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi.

1927-1928 yillarda sanoat va tashqi savdo urushdan oldingi darajadan o'tib, Angliya va Fransiyaning orqada qoldirdi. Nemis-Amerika, Nemis-Ingliz monopoliyalarning aloqalari kengaydi. Germaniyada

xususan Amerika kapitalining, ayniqsa, Morgan, Rokfeller, Mellon moliya guruhlarining mavqei tobora mustahkamlandi.

Germaniya Lokarno bitimlariga binoan, 1926 yil 10 sentyabrda Millatlar Ittifoqiga kirdi. Ayni paytda, Germaniya Versal tartibini yo‘qotish va ittifoqchilar nazorati ostidan xolos bo‘lishga intilmoqda edi.

Germaniya Amerika-Angliya moliya kapitalining yordami va AQSH vakili Yungning faol ishtiroki bilan 1929 yil fevral-avgustida reparaatsiya rejasi o‘rniga yangi “Yung rejasi”si qabul qilindi va u 1930 yil yanvaridan kuchga kirdi. Bu rejaga muvofiq, reparaatsiya to‘lovlari 20% ga kamaytirildi.

Stabillashuv yillarida nemis burjuaziyasining siyosiy mavqei ham birmuncha mustahkamlandi. Burjuaziya bilan yunkerlar bloki tuzildi. 1923 yil oxiridan 1928 yil iyunigacha mamlakatni “Kichik koalitsiya”-o‘ng burjua respublikasi partiyalari (katolik “Markaz”, “Xalq partiyasi”) koalitsiyasi boshqardi. Vilgelm Marks va Lyuter shu davrda tuzilgan hukumatlar tepasida turdilar. 1925 yil Ebert vafotidan keyin Kayzer armiyasining feldmarshali, birinchi jahon urushi jinoyatchilaridan biri bo‘lgan ashaddiy monarxist Gindenburg prezident qilib saylandi.

Gindenburgning topshirig‘iga muvofiq, 1928 yil iyun oyida reyxstagdagi Sotsial-demokratik fraksiyasining yetakchisi German Myuller sotsial-demokratlardan va o‘ng burjua partiyalari vakillaridan iborat “Katta koalitsiya” hukumatini tuzdi va 1930 yil martigacha mamlakatni boshqardi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Germaniya. Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi

Boshqa kapitalistik mamlakatlar qatorida Germaniyada ham iqtisodiy inqiroz boshlandi. Iqtisodiy inqiroz va reparaatsiya to‘lovlari mehnatkashlarning ahvolini juda ham yomonlashtirib yubordi. Ishsizlar soni 1932 yilda 7 million kishiga etdi. Burjuaziya esa Germaniyani fashistlashtira boshladi. Nemis monopoliyalari gitlerchilarni moliyaviy jihatdan tobora ko‘proq qo‘llab-quvvatlادilar.

1930 yil 1 aprelda prezident Gindenburg Myuller o'rniga reyxkansler qilib katolik "Markaz" partiyasining yetkchisi Genrix Bryuningni tayinladi. Yangi hukumat favqulodda dekretlar chiqardi. Mehnatkashlarning moddiy turmush darajasini yanada pasaytirib yubordi. Amerika monopolistlari fashistlar partiyasini qo'llab-quvvatladilar. 1929-1931 yillarda ular Gitlarga 25 million dollar berdilar. Mamlakatda fashistlar va millitaristlar faollashdi, terror siyosati kuchaydi.

1932 yilda prezidentlikka Gitler nomzodi ko'rsatildi. Ammo, saylovda 83 yoshdagi Gindenburg g'olib chiqdi. Shunga qaramay Gitler va fashistlarning mamlakat ichidagi mavqei yanada oshdi. 1932 yil 30 mayda Bryuning vazifasidan chetlashtirildi va uning o'rniga Frans fon Papen (1879-1969) tayinlandi.

Fon Papen gitlerchilar bilan aloqada edi. Gindenburgning qayta saylanishi va Fon Papen (1932 yil dekabrda esa general Shleyxer) hukumatining tuzilishi fashistlar uchun tag'in ham qulay sharoit yaratdi. Mamlakat yanada fashistlashib bordi.

Gitlarning o'z homiylari bilan birinchi uchrashuvi 1932 yil 27 yanvarda bo'lib o'tdi. "Po'lat tresti"ning direktori Tissen uni Germaniya sanoatchilariga tanishtirdi. Gitlarning 4 soatga cho'zilgan nutqi shunday iboralardan tuzilgan edi: "Demokratiya - ahmoqlar ishi", "Biz Germaniyada marksizmning ildizini quritishga qaror qildik", "Oq irq yer kurrasida yashovchi boshqa barcha xalqlarni o'ziga bo'ysundirishi lozim". Stinnesning "Buning uchun nima kerak?"- degan savoliga, Gitler qisqa qilib: "8 mln. kishilik armiya", deb javob berdi.

1933 yil 4 yanvarda Gitler Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchi hamda sarmoyadorlari ishtirokida majlis o'tkazdi, unda Gitler kansler bo'lishi kerak, degan qarorga kelindi. 1933 yil 30 yanvarda prezident Gindenburg fashistlar partiyasining boshlig'i Gitlerni reyxskansler qilib tayinladi. Fon Papen vitsekansler lavozimini egalladi. Shunday qilib, Germaniyada oshkora fashistik diktatura - moliya kapitalining eng reaksion, eng shovinistik va eng imperialistik elementlarining terroristik diktaturasi o'rnatildi. Shu bilan birga, 1933 yil iyul oyida Germaniyada shturmchilar nazorati ostida umumxalq plebissiti o'tkazilib, unda 36 mln. aholi Gitler siyosatini qo'llab-quvvatlashlarini

bildirdi. Bu Gitlerni ruhlantirdi va o'z siyosatining amalga oshishiga to'liq ishonch bag'ishladi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya

1933 yil mart oyi boshlarida Germaniyada yana saylovlar bo'lib o'tdi. Natsistlar unda 44% ovoz oldilar. Gitler o'zining natsistlar hukumatini tuzdi va 23 martda reyxstag Gitlerga o'z dekretlari bilan mamlakatni boshqarish huquqini beruvchi qonun qabul qildi. Gitler cheklanmagan huquqlarga ega bo'ldi.

1933 yil oktyabrida Germaniya Millatlar ittifoqidan chiqqan. AQSH, Angliya va Fransiya hukmron doiralari Germaniya imperializmini rag'barlantirib, uning qayta qurollanishiga yordam berdilar. 1933 yil iyulida Angliya va Fransiya hukumatlarining tashabbusi bilan Rimda Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya hukumatlari o'rtasida "birdamlik va hamkorlik ahdnomasi" ("To'rtlar ahdnomasi") imzolandi. 1934 yil yanvarida Germaniya bilan Polsha o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzildi.

1934 yil avgust oyida Gindenburg vafotidan so'ng prezidentlik lavozimi tugatildi. Gitler prezidentlik huquqini va vakolatini ham o'z qo'lga kiritib olib total (umumiy, yalpi) diktatura o'rnatdi va umrbod "fyurer" (dohiy) va "reyxskansler" unvoniga ega bo'ldi.

Hokimiyatni egallagach, Gitler natsistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiya va tashkilotlarni ta'qiqlovchi farmon chiqardi. Germaniya iqtisodiyotida mamlakat sanoatining asosini tashkil qiluvchi 30 ta eng yirik sanoat konsernlari - "IG Farbenindustri" (kimyo mahsulotlari, dori-darmon, porox, sintetik benzin va kauchuk ishlab chiqarish), "Feyrnygte Shtalverke" (po'lat ishlab chiqarish), "Krupp", "Flik", "Mannesman", "Simens", AEG va boshqalar etakchi o'rin egallab turardi. Gitler ularning boyishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berdi. "Krupp"ning daromadi 1934-1940 yillarda 4 baravar, "IG Farbenindustri"ning daromadi 17 baravar, "Flik"niki 65 baravar oshdi.

1936 yilda esa militaristik “4 yillik reja” qabul qilindi. 1937 yilgacha qayta qurollanish uchun 46 milliard marka sarflandi. To‘rt yil ichida barcha mamlakatlarning armiyasidan bir necha baravar ustun bo‘lgan eng zamonaviy armiya tashkil qilinishi lozim edi.

1938 yilda Germaniya sanoat mahsulotining yalpi hajmi jihatidan Angliya va Fransiya bilan yana o‘zib ketdi va kapitalistik dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinni egalladi.

Gitler Germaniyasi 1936-1939 yillarda Ispaniya respublikasiga qarshi fashistik Italiya bilan birgalikda intervensiya uyushtirdi. 1936 yil oktyabrida Germaniya bilan Italiya o‘rtasida ittifoq shartnomasi tuzildi. 1936 yil noyabrida Germaniya bilan Yaponiya “Antikomintern pakti” tuzdilar. 1937 yil noyabrida “Kommunizmga qarshi kurash” shiori ostida tuzilgan bu harbiy siyosiy blokka Italiya ham qo‘shildi va “Berlin-Rim-Tokio uchburchagi” vujudga keldi. Gitlerga ayniqsa, ikki mamlakat - Avstriya va Chexoslovakiya zarur edi. Ikkala mamlakat ham rivojlangan og‘ir sanoatga ega bo‘lib, Markaziy Yevropada muhim mavqeni egallardi.

Chexoslovakiya Ruminiya, Vengriya, Polsha, Avstriya va SSSR bilan umumiy chegaralarga ega edi. Avstriya esa Germaniya uchun Yugoslaviyaga bostirib kirish imkonini berardi. 1938 yil 13-14 mart kunlari Gitlerchilar Avstriyani bosib oldilar.

1938 yil 29 sentyabr oyida Myunxenda AQSHning maslahatiga ko‘ra Germaniya, Italiya, Angliya va Fransiya hukumat boshliqlarining konferensiyasi bo‘lib o‘tdi, sharmandali va jinoiy bitim imzolandi. Myunxen bitimiga muvofiq, 1938 yil kuzida Gitler qo‘shinlari Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini, 1939 yil mart oyida Chexoslovakiyani butun viloyatini bosib oldi.

Germaniya haddan tashqari tezkor usulda harbiylashtirildi. 1933 yildan 1939 yilgacha qurollanishga juda katta pul 90 milliard reyx marka sarflandi.

1938 yilga kelib Germaniya xo‘jaligi va armiyasining “katta urush”ga tayyorligi asosan tugallandi. Revanshist German armiyasi qayta tiklandi soldat va ofitser soni 1,5 million kishidan oshdi. Diviziyalar soni 1939 yilda 51 taga etdi. Harbiy havo floti tez rivojlandi. 1939 yilda

chegara istehkomlari qurilishi tamomlandi. 1938 yil sentyabrda Angliya, 1938 yil dekabrda Fransiya, Germaniya bilan hujum qilmaslik to'g'risida bitimlar tuzdilar. 1939 yilning yozida esa Germaniya SSSRga murojaat qilib hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzishni taklif qildi. Shunga ko'ra, 1939 yil 23 avgustda Germaniya bilan SSSR o'rtasida hujum qilmaslik ahdnomasi imzolandi.

Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: “Po‘lat tresti”, vitsekansler, “To‘rtlar ahdnomasi”, “fyurer”, “IG Farbenindustri”, “Feraynigte Shtalverke”, kapitalistik dunyo, “Antikomintern pakti”, “Berlin-Rim-Tokio uchburchagi”, hujum qilmaslik ahdnomasi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Birinchi jahon urushining Germaniya uchun natijalari qanday bo'ldi?
2. Versal sulh shartnomasining Germaniya iqtisodiyotiga ta'sirini ayting?
3. Rur inqirozi qachon yuz berdi?
4. Daues rejasining mohiyatini tushuntirib bering?
5. Yung rejasi nega qabul qilindi?
6. Germaniyada fashizm hokimiyat tepasiga qanday keldi?
7. German fashizmi tomonidan Versal sulh shartnomasi shartlarining buzilishini nimalarda ko'ramiz?
8. Birinchi jahon urushi tufayli Germaniya qaysi hudud va mustamlakalaridan ajraldi?
9. Anshlyus qachon amalga oshirildi?
10. Bosqinchilik “Ost” rejasining mohiyati nimada?

TARMOQLAR METODI (KLASTER)

Umumiy tushuncha


- Klaster (tutam, bog‘lam) axbort xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.
- Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O‘tkazish tartibi

- Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv tahtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.
- Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ular “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.


Natija

- Fikrlarning tarmoqlanishi talabalarni biror-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma–ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.



Ushbu mavzuni o‘zlashtirishda pedtexnologiyaning “Nilufar guli”metodi ham keng qo‘llaniladi.

“NILUFAR GULI” TEXNOLOGIYASI



“NILUFAR GULI”

	E	

	G	

	J	

B Iqtisodiy jihatdan	D Siyosiy boshqaruviga ko‘ra	E Amalga oshirish usuliga ko‘ra
F Siyosiy Konsepsiyasiga ko‘ra	Germaniya ichki siyosatining mazmuni	G Darajalariga ko‘ra
H Germaniya islohotlari	I Islohotlar vazifalari	J Siyosiy boshqaruvning

		umumiy xususiyatlari
B ?	D ?	E ?
F ?	Germaniya tashqi siyosati mohiyati	G ?
H ?	I ?	J ?

B ?	D ?	E ?
F ?	Germaniya mafkuraviy ta'limotining xususiyati va tamoyillari	G ?
H ?	I ?	J ?

IV BOB. 1918 -1945 YILLARDA ITALIYA

1-§. Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Italiya

Birinchi jahon urushi xalq xo'jaligiga katta zarar keltirdi. Urush harakatlari natijasida Italiyaning shimoliy-sharqiy viloyati vayron bo'ldi. Qishloq xo'jaligi juda katta ziyon ko'rdi. Savdo flotining 60% ishdan chiqdi. 635 ming kishi halok bo'ldi, 2 mln. kishi yarador bo'ldi va asir tushdi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli yomonlashib ketdi. Italiyaning ko'proq Angliya va AQSHga qaramligi kuchaydi va ulardan katta qarzdor bo'lib qoldi. Urush yillarida iqtisodiyotda tengsizlik kuchayib ketdi. Militaristik siyosatning avj oldirilishi va chet eldan olingan zayomlar natijasida mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoati kabi ayrim sanoat tarmoqlari rivojlanib, mamlakat agrar mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi kuchaydi. "Onsaldo", "Fiat", "Breda" kabi konsernlar o'sdi.

Italiya iqtisodiyoti katta harbiy harajatlarni ko'tara olmadi. Ichki davlat qarzlari to'rt yil ichida uch barobar ko'paydi. Bundan tashqari, Italiya o'z ittifoqchilaridan ham anchagina qarzdor bo'lib qoldi. Natijada, soliqlar keskin oshib ketdi, pul qadrsizlandi. Pulning qiymati 1920 yilning oxiriga kelib 1914 yilga nisbatan besh barobar pasaydi. Italiya burjuaziyasining Orlando boshchiligida, 1919 yil iyunida Nitti boshchiligida tuzilgan so'l liberal hukumati zo'rlik va senzura yo'li bilan, shuningdek ayrim yon berish va nayranglar yo'li bilan inqilobiy harakatni bostirishga urindi.

Italiya davlati 1919 yilgi Parij sulh konferensiyasidan norozi bo'ldi, chunki hududlar masalasida Antanta 1915 yilgi London shartnomasida bergan va'dalarini bajarmagan edi.

1919 yil may oyida Italiya Turkiyaning janubiy-g'arbiy qismini va birinchi galda Smirnani bosib olish maqsadida Turkiyaning g'arbiy qirg'oqlariga qo'shin tushirdi. Bu esa Italiyaning xalqaro pozitsiyasiga

yanada salbiy ta'sir etdi. Smirna masalasida Italiya va Gretsiya o'rtasida nizo paydo bo'ldi. Italiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1919 yil sentyabrida Antanta bilan Avstriya o'rtasida imzolangan Sen-Jermen shartnomasiga muvofiq, Italiya faqat Trentino va Janubiy Tirolni oldi, Albaniyani boshqarish mandatiga ega bo'ldi. Albaniyaning Vloria portidan Sarantada portigacha bo'lgan dengiz qirg'oq tumanlarini italyanlar okkupatsiya qilib turdilar. Lekin va'da qilingan bir qancha janubiy slavyan yerlari, masalan Dolmatsiya, Turkiya Smirnasi (Izmir) Italiyaga berilmadi.

Italiya davlati agressiv siyosatni davom ettirdi. Ular Adriatik dengiz bo'yalarida hukmron bo'lib olish va alban xalqining okkupantlariga qarshi kurashini bostirish uchun Albaniyaga qarshi harbiy avantiyurani rejalashtirdi. Albanlarga qarshi Tripolitaniyaga qo'shin yuborishga tayyorlandilar.

Italiya burjuaziyasining eng ilg'or va zarbdor kuchi siyosiy demagog, avantiyurist, sobiq sotsialist, renegat Benito Mussolini boshchiligidagi 1919 yil boshida tuzila boshlagan fashist ittifoqlari va ularning qurolli fashist otryadlari edi.

Terroristik totalitar tuzum ramziga aylangan "fashizm" atamasi Italiyada tug'ilgan va u italyanchadan "bog'lam", "dasta" degan ma'noni anglatadi. Bu atama 1919 yilda, frontdan qaytgan sobiq askarlar o'z manfaatlari himoyasi uchun "Fashi di kombattimento" ("Quroldoshlar uyushmasi") deb nomlangan tashkilot tuzgan paytda tug'ilgan. Mussolinining "milliy sotsializm" dasturiga ko'ra, davlatning mohiyati o'zgarishi, u mehnat va sarmoya o'rtasidagi hamkorlik shakliga, "korporatsiya"ga aylanishi lozim edi.

Fashistlar keng demagogik "dastur" bilan ish boshladilar va fashistik partiya bo'lib uyushdilar. Ular monarxiya va senatni yo'qotishni hamda Ta'ris majlisini chaqirishni, yirik kapitalga soliq solishni, harbiy sanoatni natsionalizatsiya qilishni, agrar islohat o'tkazishni, mehnatkashlarga yaxshi turmushni va'da qildilar.

1919-1921 yillardagi ichki kurash burjuaziyani mamlakatda "tartib" o'rnatish uchun kuchli hokimiyat qidirishga majbur qildi. Fashistlar bu maqsadga eng mos keladigan kuch edilar va 1920 yilning kuzidan

boshlab fashist tashkilotlari tez ko'paya bordi. Fashistlar "Ulug' Italiya" shiori ostida keng bosqinchilik g'oyalarini, ashaddiy shovinizmni targ'ib qildilar.

1920 yil avgustida Antanta bilan Turkiya o'rtasida tuzilgan Sevr sulh shartnomasiga binoan, Italiya Egey dengizidagi Dodekanes orollariga ega bo'ldi. Italiyaga Millatlar Ittifoqi sovetidan doimiy o'rin berildi. 1921-1922 yillardagi Vashington konferensiyasida katta harbiy kemalar bo'yicha Italiyaning harbiy dengiz floti Fransiya floti bilan tenglashtirildi.

Fashistlar yirik monopoliyalarning qo'llab-quvvatlanishidan, burjua hukumatlarining keng yo'l berib qo'yishi va sotsialist islohatchilarning murosachiligidan foydalandilar. Fashistlar shiddat bilan hokimiyat sari intildilar. 1921 yil may oyidagi saylovlarda ular parlamentda 35 o'ringa ega bo'ldilar. 1922 yil kuziga kelib, ko'pgina munitsipalitetlar ustidan nazorat o'rnatdilar. Mamlakatning Emiliya, Toskana va Lombardiya kabi eng nufuzli viloyatlari ham fashistlar nazorati ostiga o'tdi.

1922 yil oktyabrida ular o'z vakillariga bir necha vazirlik lavozimini berish talabi bilan hukumatga murojaat qildilar. Rimga yurish qilish uchun tayyorlanish maqsadida fashist guruhlarining yalpi safarbarligi e'lon qilindi. Qirol fashist isyoniga qarshi armiyani qo'llash huquqini beradigan farmonni imzolashdan bosh tortdi. Buning o'rniga 29 oktyabr kuni u Milanga telegramma yo'llab Mussoliniga bosh vazir bo'lishni taklif qildi.

1922 yil 27-28 oktyabr kunlari fashist otryadlari "Rimga yurish" qildilar. Hukumat qo'shinlari va politsiya ularga hech qanday qarshilik ko'rsatmadi. Yirik sanoat egalari konfederatsiyasi kirol Viktor Emmanuel IIIga murojaat qilib, Mussolini boshchiligida yangi hukumat tuzilishini talab etdi. Buning natijasida, Mussolini 1922 yil 30 oktyabrda fashistik partiyaning 4 ta, liberal katolik va monarxistlarning 10 ta vakilidan koalitsion hukumat tuzdi. Fashistlar hukumatda asosiy lavozimlarni egallab oldilar.

Shunday qilib, Italiya hukmron doiralarning qo'llab quvvatlanishi bilan mamlakatda moliya kapitali va yer aristokratiyasining eng reaksion, eng shovinistik, eng imperialistik elementlarining diktaturasi - Mussolini

boshchiligidagi fashistik diktatura o'rnatildi. 1922 yil 23 noyabrda esa qirol va parlament Mussoliniga cheklanmagan hokimiyat berdi.

1924 yil oxirida Mussolinining tazyiqi ostida parlament saylov qonunini o'zgartirdi. Yangi qonunga ko'ra, saylovlarda eng ko'p ovoz olgan partiya (kamida 25 fozi ovoz) deputatlar palatasida o'rinlarning uchdan ikki qismini olar edi. 1924 yilgi saylovlarda fashistlar katta g'alabaga erishdilar va deputatlar palatasini to'la o'z nazoratlari ostiga oldilar.

2-§. Fashistik totalitar rejim o'rnatilishi yillarida Italiya

1923-1924 yillarda Italiya sanoat ishlab chiqarishi bir muncha jonlandi. Harbiy sanoat tarmoqlariga ko'proq ahamiyat berildi. Italiya fashizmi chet el imperialistlariga avvalo AQSH monopolistlariga tayandi. Bankir Morgan xonadoni 1924 yili Mussolini hukumatiga 100 million dollar miqdorida zayom berdi. Amerika imperialistlari Italiya aksiyali jamiyatlariga qariyb 200 million dollar mablag' qo'ydi. Ba'zi munitsipalitetlar Amerika monopoliyalaridan 20-30 million dollarlab mablag' oldilar.

Mamlakatda mexnatkashlar va xalq ommasini tomonidan norozilik kuchayib bordi va Mussoliniga qarshi suiqaesdlar uyushtirildi. Ana shu bahona bilan 1926 yil noyabrda bir qancha terroristik favqulodda qonunlar qabul qilindi. Fashistik partiyadan tashqari hamma siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi. Mussoliniga cheklanmagan diktatorlik huquqlari berildi. "Davlatni qo'riqlash to'g'risida"gi qonun o'lim jazosini tikladi. "Maxsus tribunal" tuzildi. Siyosiy jinoyat uchun o'lim jazosi joriy qilindi. Fashist oxrankasi ("Ovra") tuzildi. Fashistlar totalitar rejimni niqoblash maqsadida sinflarni "yarashtirish" nazariyasini korporativ, ya'ni go'yo g'ayri sinfiy davlat tuzishni targ'ib qildilar. 1927 yil aprelida "Mehnat xartiyasi" chiqarildi. "Mehnat xartiyasi"da kapitalistik ishlab chiqarish usuli maqtaldi: "korporativ davlat" va kapitalistlar hamda fashistik partiya va sindikatlar vakillaridan iborat "korporatsiya" tuzish haqida gapirildi.

Italiya diktatori o'zining mamlakatdagi hokimiyatini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam qo'ydi. 1928 yil fevral oyida Mussolini Vatikan bilan bitim (Lyuteran ahdnomasini) tuzdi. Vatikan bilan kirollik o'rtasidagi eski nizolar bartaraf qilindi. Vatikan to'la suveren davlat huquqiga ega bo'ldi. Faol reaksiya kuch - Vatikan xalqni chalg'itish yo'li bilan fashizmga katta yordam ko'rsatdi. Shunday qilib Italiyada totalitar (cheklanmagan) fashistik diktatura rejimi tuzildi.

1925-1929 yillar davomida Angliya va Amerika bankirlari Italiyaga 7 mlrd. lira kredit berdilar. 1928 yil yana bir qancha qonunlar qabul qilinib, amalda parlamentchilik rejimi tugatildi. Parlament batamom o'z ahamiyatini yo'qotdi. Yirik burjuaziya va yirik yer egalari manfaatini ko'zlab "Ulug' Rim imperiyasi" tuzish rejasi ishlab chiqildi. Bu rejaga muvofiq Bolqon, Tunis, Misr, Angliya-Misr Sudani, Baleor orollari va Korsikani bosib olish mo'ljallandi. O'rta Yer dengizini Italiyaning ichki dengiziga aylantirish ko'zda tutildi.

Italiya fashistlari Yaqin Sharqda ham hukmron bo'lib olishni hayol qildilar. Shunga ko'ra, 1923 yilda Italiya Bolqonda ustun bo'lishga intilib, Gretsiyaga qarshi agressiv harakat boshladi va Korfu orolini bosib oldi. Biroq, Angliya jiddiy e'tiroz bildirgach, Italiya o'z qo'shinlarini Korfudan olib chiqib ketdi. 1923 yil sentyabrda Italiya 1920 yilgi Rapollo shartnomasini buzib, Fyumenni bosib oldi. 1924 yil yanvarida Italiya bilan Yugoslaviya o'rtasida Rimda imzolangan shartnomaga muvofiq "Fyumen shahri va Fyumen porti Italiyaniki" deb tanildi. Italiya fashistlari 1920 yilda qo'lga kiritilgan Egey dengizidagi Dodekanes orollarini butunlay o'zlariniki qilib oldilar. Yugoslaviyaning qarshiligiga qaramay, Italiya Albaniyani o'ziga tobe qildi. Italiya 1926 yili Albaniya bilan do'stlik to'g'risida, 1927 yili esa "ittifoqlik" to'g'risida shartnoma tuzdi va Albaniya ustidan o'z protektoratini o'rnatdi. Italiya 1926 yili Ispaniya bilan, 1927 yili Ruminiya va Vengriya bilan, 1928 yili Gretsiya va Turkiya bilan "Do'stlik" to'g'risida shartnomalar tuzdi. U Yevropa sharqiy janubida, hatto uning markaziy tumanlarida hukmron bo'lishga zo'r berib urindi. Bu masalalarda Italiya bilan Fransiya o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Italiya

1929 yilda Italiya iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Inqiroz yillarida sanoat mahsuloti 33%, tashqi savdo 3 marta qisqardi. Mehnatkashlarning turmush darajasi yanada pasayib ketdi. Ish haqi keskin suratda kamaydi. Ishsizlar soni 200 ming kishidan 1 mln. kishiga yetdi. Soliqlar ko'paydi. Davlat birinchi navbatda kasodga uchragan uchta eng yirik bankni qutqarish choralarini ko'rdi. 1933 yil boshida Italiyada davlat moliya idorasi - Sanoatni qayta qurish instituti tuzilib, u kasodga uchragan banklarning qimmatbaho qog'ozlarini davlat hisobiga sotib oldi. Bu harakat natijasida Sanoatni qayta qurish instituti banklar ustidan, ular orqali esa metallurgiya va mashinasozlik korxonalarining aksariyat qismi, kemasozlik va deyarli butun harbiy sanoat ustidan nazorat o'rnatdi.

Burjuaziya pozitsiyasini butunlay moliya kapitaliga bo'ysundirish maqsadida 1933-1934 yillarda mamlakatda "Korporativ tizim" tuzildi. Xalq xo'jaligining hamma sohalarini qamrab oladigan 22 ta korporatsiya tuzuldi. Korporatsiyalar tarkibiga fashistik kasaba ittifoqlari (sindikatlardan ham vakillar kiritildi. Fashistik matbuot, korporativ tuzum sharoitida go'yo mehnat bilan kapital o'rtasida nizolar sinfiy hamkorlik asosida hal qilinmoqda deb, ishchilar ishlab chiqarishni va davlatni boshqarishda ishtirok etmoqdalar deb jar soldi. Korporatsiyalar Mussolini boshchiligidagi maxsus korporatsiyalar vazirligiga bo'ysundirildi. Korporatsiya tizimi parlamentchilik qoldiqlarini rahbarlik rolini o'ynadi.

Italiya fashizmi o'ttizinchi yillarda mamlakat hayotining barcha tomonlarini o'ziga bo'ysundirib, totalitar diktaturani o'rnatdi. Demokratiyaning barcha, hatto rasmiy belgilari, shu jumladan, parlament ham tugatildi. Parlamentning saylanuvchi palatasi o'rniga fashi di kombattimento va korporatsiyalar palatasi tuzilib, unga tayinlanuvchi "deputatlar" kirdilar. Fashistlar partiyasi esa davlat tizimiga to'liq qo'shildi. Partiya nizomiga ko'ra u duche Mussolini buyruqlariga

bo'ysunib, davlat xizmatini bajaruvchi "fuqarolar militsiyasi" (lotincha "milicia- qo'shin")ga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari fashizmga xizmatga o'tib, fashist senzurachilari tomonidan qattiq nazorat qilindilar. Dorilfununlarda professorlar duchega (Duche - italyancha duce—dohiy, Italiyadagi fashistlar diktatori B.Mussolinining unvoni) sodiqlikka qasamyod qildilar. Ommaviy tashkilotlar tizimi, fashistik matbuot va maktab orqali, sershovqin targ'ibot kompaniyalari yordamida fashist g'oyalari ommaga singdirildi.

Biroq, fashizm italiyaliklarning ongini zaharlay yoki unga chuqur singa olmadi. Fashizm Italiya millati ongiga, uning diniy va demokratik an'analarga tamomila zid edi. Demokratik kuchlarning vakillari yashirin sharoitda fashistlarga qarshi kurashni davom ettirdilar. Fashistlarning tashkilotlariga joylashib, ularga qarshi faol qo'poruvchilik ishlarini olib bordilar, yoshlar orasida fashizmga qarshi kayfiyatlarning uyg'onishiga sabab bo'ldilar. Fashizmga qarshi kurashda katolik cherkovining qator vakillari ham munosib hissa qo'shdilar. Korparatsiya tizimi parlamentchilik qoldiqlarini tugatish va militarizmni kuchaytirishga imkon berdi. Turli fashistik tashkilotlar ko'paytirildi va ularning a'zolari soni 12 mln. kishiga etdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Italiya

Mamlakat iqtisodiyoti imperialistik agressiyaga tayyorlandi. Qurolli kuchlar ko'paytirildi. Italiya va Fransiya o'rtasida ziddiyat kuchaydi. Italiya bilan Germaniya o'rtasida Avstriya masalasida nizo paydo bo'ldi. Italiya Avstriyani o'z ta'siriga olish uchun harakat qilar edi. Italiya fashistlari Avstriya hukumati va xeymverni qo'llab-quvvatlar edi. 1934 yil iyul oyida Gitler Avstriyani bosib olishga uringan vaqtda Mussolini bunga e'tiroz bildirdi. Italiya fashizmi Yaponiya va Germaniya fashist agressorlari tomonidan Versal-Vashington tizimi (Italiya bu tizimdan norozi edi) poymol qilina boshlagan sharoitdan foydalanib, "Ulug' Rim imperiyasini" tuzishga kirishdi. "Buyuk Italiya" davlati butun O'rta Yer dengizi bo'ylarini o'z ichiga olishi va u "Buyuk Italiya"ning ichki

dengiziga aylanishi lozim edi. Bu davlat bir paytlar Rim imperiyasi tarkibiga kirgan barcha hududlarni birlashtirishni ko'zda tutardi. Mussolini italiyaliklarni O'rta Yer dengizini "o'z dengizimiz"ga aylantirishga chaqirdi. 1934 yilda jadal sur'atlarda harbiy-dengiz floti va harbiy aviatsiyani qurishga kirishildi.

1935 yil 3 oktyabrda Afrikada yangi mustamlakalarga ega bo'lish, shuningdek, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'llarida Angliyani zaiflashtirish maqsadida Italiya fashistlari urush e'lon qilmasdan, Habashistonga qarshi urush boshladilar. Habashiston qoloq, feodal mamlakat edi. habash xalqi bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashdi. Lekin, kuchlar barobar emas edi. Agressorlar eng yangi texnika bilan qurollangan 600 ming kishilik armiyani Habashistonga yubordilar va vaxshiylarcha qirg'inchilik urushini olib bordilar, hatto zaharli gazlardan foydalandilar. 1936 yil may oyida Habashiston Italiya tomonidan bosib olindi. Italiya-Habashiston urushi vaqtida Italiya Germaniya bilan yaqinlashdi. 1936 yil iyul oyida Italiya va Germaniya fashistlari respublikachilar Ispaniyasiga qarshi isyon, keyinroq intervensiya uyushtirdilar. Italiya qo'shinlari bir necha marta (ayniqsa, 1937 yil mart oyida Gvadalaxara yonida) jiddiy talofatga uchradi. Shu sharoitda Germaniya Italiyani halokatdan qutqarib qoldi. Italiya Germaniyaning Yevropa markazidagi yetakchilik rolini tan oldi. 1936 yil oktyabr oyida Italiya bilan Germaniya o'rtasida ittifoqlik shartnomasi (Berlin-Rim o'qi) tuzildi. 1937 yil 6 noyabrida Italiya, Germaniya bilan Yaponiya o'rtasida tuzilgan "Antikomintern ahdnomasi"ga qo'shildi va "Berlin - Rim - Tokio uch burchagi" vujudga keldi. Bu esa, "kommunizmga qarshi kurash" niqobi ostida barcha demokratik harakatlarni bo'g'ish va yangi agressiyani amalga oshirish maqsadida tuzilgan fashist davlatlari ittifoqi edi.

Mussolini uni atrofida butun Yevropa birlashishi lozim bo'lgan "doira" sifatida ta'rifladi. ("Berlin-Rim-Tokio doirasi" degan nom shundan kelib chiqdi). Ushbu bitimga ko'ra, Germaniya Efiopiyaning bosib olinishini tan oldi, xalqaro aloqalarda umumiy bo'lgan yo'nalish belgilandi, harbiy aviatsiyani rivojlantirishning yagona siyosati ishlab

chiqildi. Bolqon va Dunay bo‘yi davlatlaridagi ta’sir doiralari chegaralandi.

1937 yil 11 dekabrda Italiya Millatlar ittifoqidan chiqdi. 1938 yil mart oyida Mussolini hukumati Avstriyaning German fashistlari tomonidan bosib olinishiga rozilik berdi. 1938 yil sentyabr oyida fashistik Italiya sharmandali Myunxen bitimini tayyorlashda ishtirok etdi. Bu bitim esa Gitler Germaniyasining Yevropadagi agressiyasiga keng yo‘l ochib berdi. 1939 yil aprelida Italiya Albaniyani bosib oldi. O’sha yili 22 mayda Mussolini hukumati Germaniya bilan harbiy siyosiy ittifoq to‘g‘risidagi “Po‘lat bitim”ni imzoladi.

Mavzuni o‘rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Rapollo shartnomasi, “Fashi di kombattimento”, “Maxsus tribunal”, “fuqarolar militsiyasi”, duche, “Korporativ tizim”, “Ulug‘ Rim imperiyasi”, “kommunizmga qarshi kurash”, agressiya, “Po‘lat bitim”i.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Italiya birinchi jahon urushini qanday natijalar bilan yakunladi?
2. Italiyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi qanday yuz berdi?
3. Korporativ tizim nima?
4. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi fashistik Italiyaning tajovuzkorlik tashqi siyosatini nimalarda ko‘ramiz?
5. Italiya birinchi jahon urushi tugagandan keyin Antanta davlatlaridan nega norozi bo‘ldi?
6. Italiya fashizmining Germaniyadagi fashizmdan farqi nimada?
7. Mussolin qachon va qanday qilib o‘ldirildi?
8. Rapollo shartnomasi mazmun-mohiyati nima?

9. Avtarkik xo‘jalikning o‘ziga xos jihatlari?

10. Militsiya tartiboti ahamiyati?

“TOIFALASH JADVALI”

Toifa – xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Toifalash metodi ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishgach, kichik guruhlarda, olingan ma’lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.

Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. g‘oyalarni / ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin, yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu topshiriq ish natijalarining taqdimoti bilan yakunlanadi.

Davlat chilik belgilari	Korporat ivning asosiy vaziflari	Fashistik Italiya	Italiya tajavuzkor siyosati tasnifi	Italiyada davlat boshqaruvi tizimi

--	--	--	--	--

BLITS-SO‘ROV

“Davlatni boshqarish shakliga ko‘ra turlari”

Ushbu davlatlar qaysi boshqaruv shakliga tegishli bo‘lsa belgi qo‘yib belgilang.

No	Davlat nomi	Monarxiya	Respublika	Rahbarlari	Poytaxti	Taklif etadigan boshqaruv
1.	AQSH					
2.	Buyuk Britaniya					
3.	SSSR					
4.	Germaniya					
5.	Ispaniya					

V BOB. 1918 -1945 YILLARDA SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKALAR ITTIFOQI (SSRI)

1-§. 1918 yil to‘ntarishdan so‘ng Rossiya

Rossiyada 1917 yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng ishchi va dehqonlar, ya’ni proletarlar davlatini qurish jarayoni boshlanib ketdi. 1918 yil yanvar oyida Sovetlarning III s‘ezdi Rossiyani Sovet Respublikasi deb e‘lon qildi.

Ishchi va dehqonlar davlatining iqtisodiy siyosati ishlab chiqarishda xususiy mulkchilikni yo‘qotib, uning o‘rnida jamoa mulkchiligini barpo etishga asoslangan edi.

Ijtimoiy sohada esa bolsheviklarning asosiy harakatlari tabaqalanishning yo'qatilishiga, bepul ta'lim va shifokorlikni joriy etishga, sakkiz soatlik ish kunini, bolalar mehnatini ekspluatatsiyasini taqiqlashga qaratilgang edi. 1917 yil noyabr oyida qabul qilingan Rossiya xalqlarining huquq deklaratsiyasiga muvofiq barcha xalqlarning tengligi va mustaqilligi bayon qilingan edi.

Tashqi siyosatda esa davom etayotgan birinchi jahon urushini tezroq yakunlash yo'li tutilgan edi. Bunga binoan, 1918 yil mart oyida Rossiya bilan Germaniya o'rtasida Brest shartnomasi imzolandi.

Ammo Rossiyani birinchi jahon urushidan chiqishi mamlakat uchun tinchlik holatini tug'dirmadi. Hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi mamlakat ichida turli siyosiy sinflar o'rtasidagi to'qnashuvlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ishchi va dehqonlar manfaatini yoqlab chiquvchi bolsheviklarga qarshi eng avvalo xususiy mulk egalarining manfaatini yoqlovchi dvoryan va burjuaziya vakillari qarshi chiqdilar. 1918 yil boshlangan fuqarolar urushi chet el intervensiyasi bilan birga qo'shib ketdi. Rossiyadagi bolsheviklar boshchiligidagi yangi hokimiyatga qarshi kurash olib borayotgan kuchlar tomonida asosiy kapitalistik mamlakatlarning harbiylari urush harakatlarini olib bordilar. Bundaylar qatoriga Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Polsha va boshqa mamlakatlar kirdi. Ammo, shunga qaramay Qizil armiya nafaqat ichki kontrrevolyusion kuchlarni – Kolchak, Denikin, Yudenich va Vrangel armiyasini, balki tashqi interventlar armiyasini ham tormor etdi. Urush davomida bolsheviklar nafaqat ishchi va dehqonlarning keng ommasini, balki chor Rossiyasining bir qism general va ofitserlarini ham o'z tomoniga og'dira oldilar. 1920 yillarning oxiriga kelib Rossiyada fuqarolar urushi yakuniga yetdi.

Fuqarolar urushi mamlakatga katta talofatlar keltirdi. Mamlakat xalq xo'jaligi butunlay vayron bo'lgan edi. Sanoat ishlab chiqarishi yetti martaga, qishloq xo'jaligi esa ikki martaga qisqarib ketdi. 1921 yil mamlakat ocharchilikka duch keldi. Mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz yuz berdi va Sovet hokimiyatidan noroziliklar kuchayib bordi.

1921 yil mart oyida RKP(b)ning X s'ezdi harbiy kommunizm siyosati o'rniga yangi iqtisodiy siyosat yo'lini qabul qildi. Bu esa, o'z

navbatida ko'p ukkladli iqtisodiyotni, iqtisodiy sohada xusuiy kapitalning joriy etilishini, tashqi savdo monopoliyasini esa davlat qo'lida mujassamlanishini taqqozo etdi. Bunday siyosat natijasida 1925 yilga kelib sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish holati urushdan oldingi darajadan oshib ketdi va shu bilan birga mamlakat ichida ijtimoiy holat ancha yaxshilandi.

Yuzdan ortiq millat va xalqlar yashayotgan mamlakatda doimiy ravishda eng keskin muammo sifatida milliy masala turar edi.

Sovet hukumati 1918 yil dekabr oyida – Finlyandiya, 1918 yil avgust oyida – Polshani davlat mustaqilligini tan oldi. Sobiq Rossiya imperiyasining hududida RSFSRdan tashqari – Ukraina, Belorusiya hamda Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyalardan iborat Kavkaz orti federatsiyasi mavjud edi.

1922 yil 30 dekabrda Sovetlarning birinchi s'ezdi Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi (SSRI) tashkil topganligi haqidagi Bitim va Deklaratsiyani tasdiqladi. 1924 yilda esa SSRIning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Usha davirda Sovet hukumati oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu jahon mamlakatlari tomonidan tan olinishi edi. Shunga binoan 1920-1921 yillarda RSFSR Estoniya, Latviya, Litva, Finlyandiya va Polsha tomonidan tan olindi. 1922 yil 16 aprelda Genuya konferensiyasi vaqtida Sovet Rossiyasi va Germaniya o'rtasida Rapollo shartnomasi imzolandi. Shundan so'ng 20-yillar o'rtasida Avstriya, Daniya, Italiya, Norvegiya, Angliya va boshqa mamlakatlar RSFSRning tan olishdi. RSFSR bilan Turkiya, Eron va Afg'oniston o'rtasidagi do'stona munosabatlarning o'rnatilishi ushbu va boshqa mamlakatlarda antiimperialistik harakatlarning ko'tarilishiga ko'mak berdi.

2-§. Mamlakatda sotsializmning ijtimoiy-iqtisodiy asosini qurish jarayoni

Fuqarorolar urushi yakunlangandan so'ng mamlakat og'ir iqtisodiy vaziyatda edi. Shuning uchun ham 1920-1922 yillarda Rossiya oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu sanoat salohiyatini yaratish edi. Bu masalani hal etilishi nafaqat mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va

qishloq xo'jaligining qayta qurilishi, balki mamlakatning mudofaa tizimini shakllantirish bilan ham bo'g'liq edi.

1925 yil bolsheviklar partiyasining XIV s'ezdi mo'ljallangan xalq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha birinchi besh yillik (1928/1929 – 1932/1933 yy.) rejasini ishlab chiqish haqidagi qarorni qabul qildi. Rejadagi ko'rsatkichlar bajarilishi majburiy xarakterga ega edi. Bolsheviklarning navbatdagi 1930 yili bo'lib o'tgan s'ezdida industrilashtirishning jadallashtirish haqidagi qaror qabul qilindi. Unga binoan sanoat mahsulotlarining o'sishi har yili 30 % tashkil qilishi kerak edi. Ammo, uni bajarish uchun real imkoniyatlar yo'q edi. Natijada, birinchi besh yillikning ko'p ko'rsatkichlari bajarilmay qoldi. Ammo, shu yillarda 1500 sanoat korxonalari qurildi, yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi, yangi shaharlar va qishloqlar paydo bo'ldi.

Ikkinchi besh yillik (1933-1937 yy) rejalarini bajarish jarayonida mamlakatning industrial salohiyati bir muncha ko'tarildi. Ikkinchi besh yillik ichida 4,5 ming yirik zavodlar qurildi. 1928-1937 yillarda po'lat ishlab chiqarish uch martaga, elektroenergiya – 2,5 martaga, ko'mir ishlab chiqarish – 3,6 martaga, neft – 2,5 martaga o'sdi. Aynan, ushbu besh yilliklar ichida SSRI industriyasida - Dneprogress, Turksib, Magnitogorsk metallurgiya kombinati, Azovstal, Rosselmash, Stalingrad va Chelyabinsk traktor zavodi, Gorkiy avtomobil zavodi, Kuznetskdagi ko'mir havzasi, Belomor-Boltiq kanali vujudga keldi.

30- yillarning oxiriga kelib SSRI o'ziga xos yo'l bilan sanoatning birmuncha ko'rsatkichlari bo'yicha g'arb mamlakatlari bilan tenglashib oldi.

Yirik industrial davlatini yaratish masalasi mamlakatning qishloq xo'jaligida katta o'zgarishlarni talab etar edi. Bu masalani hal etishda bolsheviklar faqat bir yo'lni ko'rdilar. Bu ham bo'lsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda kooperatsiyalash, ya'ni kollektivlashtirish yo'li edi. Bu yo'lning mohiyati dehqonlar xo'jaligini jamoa mulki bilan birlashtirib kolxozlarning tashkil etish edi.

Kollektivlashtirishga qaratilgan siyosat 1927 yil VKP(b)ning XIV s'ezdida e'lon qilindi, 1929 yil esa amalda boshlab yuborildi. Rasman kolxozlarga kirish o'z xohishiga qarshi bo'ldi, amalda esa mahalliy

partiya va sovet organlarining tayziqi ostida majburiy ravishda kollektivlashtirish siyosati olib borildi. Ma'muriy-buyruqvozlik siyosati ostida olib borilgan kollektivlashtirish siyosati yakka holdagi qishloq xo'jaliklarining vayron bo'lishiga olib keldi. Rasmiy holda mamlakatdagi barcha dehqonlar quloq va kambag'allarga bo'lindi. Mamlakatning ayrim hududlarida dehqonlar kollektivlashtirish siyosatiga qarshi ham chiqdilar. Quloqlarning bunday harakatini hukumat sovetlarga qarshi chiqish deb baholandi va partiya tomonidan quloqlarni siyosiy sinif sifatida yo'q qilish haqida qaror qabul qilindi. Natijada quloqlarni uch guruhga bo'ldilar. Birinchi guruhga kiruvchilar - quloqlikdan chiqarilishi, hibsga olinishi va lagerlarga jo'natilishi, ayrim hollarda esa o'lim jazosiga hukm qilinishi kerak edi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar - quloqlikdan chiqarilgandan so'ng uzoq rayonlarga, uchunchi guruhdagilar esa kolxoz yerlaridan tashqariga surgun qilingan edilar. Mamlakatda jami bo'lib 12-15 % xo'jaliklar quloqlikdan chiqarildi.

Ma'muriy-buyruqvozlik siyosati natijasida 1937 yilga kelib mamlakat bo'yicha 93 % dehqonlar kolxozlarga kirdi. Shunday qilib kollektivlashtirish siyosati qishloq xo'jaligiga juda katta talofatlar keltirdi. Dehqonlar repressiya qilindi, ocharchilik avj oldi, yerga bo'lgan an'anaviy yondashuv yo'q qilindi.

3-§. Ma'muriy-buyruqvozlik tizimining shakllanishi

1936 yil dekabr oyida SSRI Sovetining VIII s'ezdida mamlakatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uni Stalin Konstitutsiyasi ham deb nomlashdi. Konstitutsiyaga binoan Sovet fuqarolariga keng huquq va erkinliklar berildi. Kommunistik mafkuraning rasmiy tasdig'iga binoan Sovet Ittifoqi dunyodagi eng demokratik mamlakat hisoblandi. Ammo, amalda esa fuqarolarning huquq va erkinliklari qo'pol ravishda buzilar edi. 30- yillar o'rtasida va ayniqsa, 1937-1938 yillarda avj olgan qatag'onlik siyosati buning yaqqol misoli bo'la oladi. Turli ayblovlar va tuhmatlar orqali yuz minglab odamlar otishga hukm qilindi, yoki qamoqlarga yuborildi.

Terror natijasida ko'plab partiya va davlat rahbarlari, ko'zga ko'ringan harbiy qo'mondonlar, madaniyat arboblari qatl etildi. Stalin va uning yon atrofida gilar tomonidan o'z xalqiga nisbatan tashkil etilgan repressiya va terror siyosati, mamlakatning boshqaruviga jiddiy zarar keltirdi, urushga tayyorgarlik holatini susaytirdi. Bularning hammasi SSRI Ulug' Vatan urushining dastlabki yillarida jiddiy mag'lubiyatlarga uchrashiga sabab bo'ldi.

Sotsializm qurilishi jarayonida SSRIda ma'muriy-buyrug'vozlik tizimining shakllanishi boshlandi. Uning asosiy maqsadi davlat tomonidan nafaqat unga tegishli bo'lgan funksiyalarni, balki fuqarolik jamiyatiga tegishli bo'lgan funksiyalarni ham o'z qo'liga olishdan iborat edi.

Bolsheviklar tomonidan olib borilgan propagandaga binoan, xalq ommasining ko'pchiligi partiya va shahsan Stalinning rahbarlik roliga ishonch bilan yondashdilar. Natijada, mamlakatda shaxsga sig'inish holati shakllandi.

4-§. SSRI tashqi siyosati

Germaniyada hokimiyat tepasiga fashizmning kelishi, Yevropada siyosiy kuchlarni o'rtasidagi joylashuvda tub o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'ldi. Bunday sharoitda kollektiv xavfsizlikni taminlash hamda Germaniya va Yaponiyaning agressiv rejalariga qarshi demokratik davlatlarning blokini tashkil etish, Sovet Ittifoqi tashqi siyosatining eng muhim vazifalaridan birib bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi AQSH bilan (1933 y.), Fransiya bilan (1935 y.) diplomatik munosabatlar o'rnatdi. 1934 yil Millatlar Ligasiga qo'shildi. Shu bilan birga, g'arb davlatlari Chor va Muvaqqat hukumatning bir qism qarzlari SSRIning ozod etdilar. Bu albatta Sovet Ittifoqi diplomatiyasining katta yutug'i edi. Tezkor holda antifashistik frontni shakllantirish zaruratini Ispaniyada ro'y bergan voqealar tasdiqladi. Ya'ni, Ispaniyada general Franko isyonini bostirishda xalqaro kuchlarning dastlabki harakati amalga oshirildi. Ammo, ayrim sabablarga ko'ra Yevropa mamlakatlari SSRIning Yevropada yagona antifashistik front tashkil etish tashabbuslarini qo'llab quvvatlamadilar.

Usha davrda tinchlikka asosiy xavf, o'zining agressiv harakatlarini faollashtirib borayotgan fashistik Germaniya tomonidan esar edi. 1938 yil bahor oylarida nemis askarlarining hujum qo'shinlari Chexoslovakiyaning chegarasi bo'ylab joylashtirildi. SSRI Chexoslovakiyaga yordam berishga tayyor edi, ammo Fransiya bilan imzolangan xalqaro shartnomaga ko'ra, uning roziligi va ishtirokisiz amalga oshira olmas edi.

Angliya va Fransiya sharmandalicha Myunxen shartnomasini imzolab, Chexoslovakiyani Gitler Germaniyasi qo'lga topshirib qo'dilar. Bundan tashqari Angliya va Fransiya navbatma navbat Germaniya bilan bostirmaslik haqidagi shartnomaga teng keluvchi kelishuvga imzo chekishdi. Chexoslovakiya Germaniya tomonidan okkupatsiyaga uchraganidan so'ng Angliya va Fransiya SSRI bilan kelishuvlar olib borishga majbur bo'ldilar. Bundan ular SSRIning Germaniyaga nisbatan qarshi qo'yishni ko'zda tutgan edilar. Ammo, bunday harakatlar o'z samarasini bermadi va 1939 yil 21 avgustda bunday kelishuvlar o'z yakuniga yetdi. Aksincha, 1939 yil 23 avgust kuni Sovet Ittifoqi va Germaniya o'rtasida sovet-german shartnomasi imzolandi va u tarixda Molotov-Ribbentrop pakti nomi bilan ataldi.

SSRI uchun uning uzoq sharqdagi chegaralarida ham xavfli vaziyat yuzaga keldi. SSRI va Yaponiya o'rtasidagi og'ir munosabatlar nafaqat ular o'rtasidagi vaziyatni keskinlashtirdi, balki to'g'ridan to'g'ri xarbiy to'qnashuvlarga ham olib keldi. Birinchi jiddiy to'qnashuv 1938 yil Xasan ko'li yonida sodir bo'ldi. Unda yaponlar jiddiy talofatga uchradi. 1939 yil may oyida yaponlar SSRIGA ittifoqchi bo'lgan Mongoliya hududiga, yaniy Xalxin-Gol daryosi rayoniga bostirib kirdi. Birlashgan Mongol va Sovet qo'shinlari shidatli janlardan so'ng 1939 yil avgust oyida Yaponlarni mag'lubiyatga uchratdi. Qizil Armiyaning bu yutuqlari Yaponiyaning talablarini ancha susaytirdi. Ammo shunga qaramasdan SSRI O'zoq Sharqda o'zining harbiy qo'shinlarini ushlab turishga majbur edi.


Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Sovet Respublikasi, fuqarolar urushi, repressiya, quloqlashtirish, SSRI industriyasi, intervent, “Stalin Konstitutsiyasi”, “Molotov-Ribbentrop pakti”, Xasan ko‘li jangi, Xalxin-Gol jangi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mamlakatda totalitar tuzum o‘rnatilishini tushuntirib bering?
5. “Harbiy kommunizm” siyosati qanday salbiy oqibatlarga olib keldi?
6. “Yangi iqtisodiy siyosat”ning “harbiy kommunizm” siyosatidan farqini ayting?
7. Mamlakatni boshqarishda Stalin yakka hukmronligi deganda nimani tushunasiz?
8. Mamlakatda amalga oshirilgan jamoalashtirishning salbiy oqibatlarini izohlang?
9. 30-yillarda SSRI tashqi siyosatining xususiyatlarini tushuntirib bering?
10. SSRI urushga qay darajada tayyor edi?
11. SSRI “o‘z chegaralarini mustahkamlash” niqobi ostida qanday bosqinchilik rejalarini amalga oshirdi?
12. Molotov-Ribbentrop paktining yashirin protokollarida nimalar ko‘zda tutilgan edi?

“BALIQ SKELETI” grafik organayzeri



SSRI tarkibiga kirgan
davlatlarning hayotiga
ta'sir etuvchi omillar

*Kichik
muammolar*

*Kichik
muammolar*

Dalillar

Dalillar

B B B jadvali

Ushbu metod mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldingi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar.

Ma’ruzani tinglaydilar va qo‘shimcha matnni mustaqil o‘qiydilar.

Mustaqil / kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limni to‘ldiradilar.

SSSRning tashkil topishi va siyosiy etakchilarining siyosiy hayotdagi o‘rni

	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1.V.I.Lenin.			
2.I.V.Stalin			
3.N.S.Xrushchyov			
4.L.I.Brejnev			
5.M.S.Gorbachyov			

VI BOB. 1918 -1945 yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH)

1-§. Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida AQSH

AQSH 1917 yil aprelidan jahon urushida ishtirok etdi. AQSHdan urushda halok bo'lgan va yarador bo'lganlarning soni 300 ming kishidan sal oshdi. Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalashuvi yanada kuchayib ketdi. Buning natijasida yirik monopolistik birlashmalar, juda katta trestlar vujudga keldi. Neft ishlab chiqarish, po'lat eritish singari yirik sanoat tarmoqlari, temir yo'llar Rokfeller, Morgan, Dyupon, Vanderbild, Mellon kabi yirik milliarderlar qo'lida to'plandi. Ularning olgan foydasi 1914 yil 3 mlrd. 940 mln. dollar bo'lsa, 1919 yilda 9 mlrd. 411 mln. dollarga etdi.

Chet mamlakatlarga mahsulot va kapital chiqarish tezlashib ketdi. 1920 yilda chet elga chiqarilgan mahsulot hajmi 8 mlrd. dollarga, kapital chiqarish 6,4 mlrd. dollarga yetdi. Eksport importdan ancha oshib ketdi. AQSH boshqa davlatlardan qarz oluvchi mamlakatdan qarz beruvchi mamlakatga aylandi. 1914-1919 yillarda boshqa mamlakatlarning AQSHdan qarzi 3,5 mlrd. dollardan 6,5 mlrd. dollarga etdi. Amerika kompaniyalari urush davrida jami 35 mlrd. dollardan ortiq sof daromad oldilar. Bundan tashqari, Yevropadagi 20 mamlakat AQSHdan 10 mlrd. dollar qarzдор bo'lib qoldi. Dunyoni moliya jihatidan ekspluatatsiya qilish markazi Fransiya, Germaniya va Angliyadan AQSHga ko'chdi. Olti yil ichida -1914 yildan 1920 yilgacha mamlakatning milliy boyligi 2,5 baravar oshdi. 1920 yilda AQSHda butun dunyoda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 47%i yaratildi. Boshqa ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha AQSHning yutuqlari yanada salmoqliroq edi. Mamlakatda dunyodagi jami avtomobillarning 80%i, neftning 67%i ishlab chiqarilardi. Amerika floti urush davomida 10 baravarga o'sdi. AQSH Angliya qatori dunyodagi yetakchi dengiz davlatiga aylandi.

Urushdan keyingi dastlabki yillardayoq AQSHda mamlakat tarixidagi eng shafqatsiz va keng miqyosli qatag'on avj oldirildi. 1918 yil mayida AQSH hukumati "Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat"ni e'lon qildi.

Unga ko'ra mamlakatdagi mavjud tuzum to'g'risida bildirilgan barcha salbiy fikrlar jinoyat deb e'lon qilindi. Bunday ayb bilan qamoqqa olingan har qanday odamga 10 ming dollar jarima solish yoki 20 yil muddatga qamoq jazosi ko'zda tutildi. 1920 yil yanvarida AQSH politsiyasi 70 shaharda taraqqiyparvar tashkilotlarning a'zolariga qarshi tadbir uyushtirdilar. 10 mingdan ortiq kishi qamoqqa olindi. Xuddi shu yili kasaba uyushmalari harakati faollari sanalgan italiyalik muhojirlar - Sakko va Vansetti qamoqqa olindilar. Ular bankni o'g'irlash va politsiyani o'ldirishda ayblandilar. 1927 yilda ular elektr kursida qatl qilindilar. Faqat Ikkinchi jahon urushidan so'ng ularga sohta guvohliklar asosida ayb qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

AQSH Parij sulh konferensiyasida imperialistik Versal tizimini tuzushda katta rol o'ynadi. U Germaniyani zaiflashtirib yubormaslikka, hatto Chexoslovakiyaning bir qismini Germaniya foydasiga ajratib olishga, kuchli nemis armiyasini saqlab qolishga, binobarin, Germaniyaning Antanta davlatlariga, avvalo Sovet Rossiyasiga, shuningdek, Angliya va Fransiya qarshi kuchli bir davlat bo'lib qolishiga intildi.

AQSH urushdan keyingi xalqaro munosabatlarda yetakchi rol o'ynashga, Angliya, Fransiya va Yaponiyani Xitoy hamda boshqa mamlakatlardan siqib chiqarishga urundi. Versal sulh shartnomasi Angliya va Fransiya davlatlarining manfaatlariga muvofiq bo'lib chiqdi.

1921 yilda AQSH Germaniya va uning sobiq ittifoqchilari bilan separat sulh shartnomalarini tuzdi. Yevropa ishlaridan chetda turish, "izolyasionizm" (ajralib va yakkalanib turish) niqobi ostida AQSH Yevropa ishlarida faollashib bordi.

AQSH Germaniya va bir qancha mamlakatlarning savdo-sanoat korxonalari va muassasalarini o'ziga qaratib oldi, Germaniya monopoliyasi bilan yaqin aloqada bo'ldi. Yevropada "dollar diplomatiyasi"ni ishga soldi. 1919 yil aprelidayoq AQSH federal zahira byurosi Germaniyaga zayom berishga qaror qildi.

AQSH 1923 yilda Latin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan "Monro Doktrinasi"ni yangidan yuzaga chiqarib uni amalga oshirishga harakat

qildi. AQSH Tinch okeaniga, Uzoq Sharqqa, Xitoyga ham katta e'tibor berdi.

1921 yil noyabridan 1922 yil fevraliga qadar AQSH Vashingtonda xalqaro konferensiya chaqirdi. Konferensiyaning eng asosiy qarorlari quyidagi uchta shartnomada o'z ifodasini topdi:

1) To'rt davlatning (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiyaning) "Tinch okeandagi bir-birlarining mustamlaka yerlarining dahlsizligi to'g'risidagi shartnomasi";

2) To'qqiz davlatning (konferensiyada ishtirok etgan hamma davlatlarning) "Xitoyning hududiy va ma'muriy mustaqilligi prinsipini tanish to'g'risidagi shartnomasi";

3) Besh davlatning (AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya va Italiyaning) "Dengiz qurollarini cheklash to'g'risidagi shartnomasi".

Bu shartnomalar Vashington tizimini vujudga keltirib, Uzoq Sharq va Tinch okeanida AQSHning pozitsiyasini mustahkamladi. Natijada, AQSH Angliya dengiz flotining AQSH dengiz floti bilan baravar bo'lishiga, Xitoyda Yaponiyaning hukmronligiga barham berib, Xitoydan "teng imkoniyatlar prinsipi" asosida bab-baravar foydalanishga erishdi.

2-§. Stabillashuv yillarida AQSH

1922-1929 yillarda AQSHda vaqtincha, qisman stabillashuv yillari bo'ldi. AQSHdagi stabillashuv Yevropa mamlakatlaridagi stabillashuvdan ilgariroq (1922 yil oxirida) boshlandi, hamda Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiyadan oldinda bordi. 1923-1929 yillarda AQSHdagi sanoat mahsulotining umumiy hajmi 20% oshdi, yollanma ishchilar soni esa 7,6% kamaydi. 1926-1929 yillarda AQSH sanoat mahsuloti yuqoridagi 5 ta mamlakat mahsulotidan 9% ortiq bo'ldi. 1928-1929 yillarda AQSH iqtisodiyotining juda yuksalgan yillari bo'ldi.

Iqtisodiyotdagi jadal o'sish o'z qo'llarida katta iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni jamlagan ulkan ishlab chiqarish va moliya birlashmalarining tashkil topishiga olib keldi. Avtomobilsozlikda uch yirik kompaniya – "Ford", "Jeneral Motors" va "Kraysler" butun avtomobil sanoatini o'ziga buysundirdi. Kimyo sanoatida "Dyupon" firmasi, po'lat qo'yish sanoatida

“Po‘lat tresti” hukmronlik qildi. Banklarning hukmronligi ayniqsa, beqiyos bo‘ldi. Morgan va Rokfeller nazorati ostidagi olti yirik bank mamlakatdagi jami sarmoyaning yarmidan ortig‘ini nazorat qildi. Amerikaning barcha yirik moliya va sanoat kompaniyalari birgalikda mamlakat ichki va tashqi siyosatini, Amerikadagi butun siyosiy tizimni nazorat qildilar. Ular Amerika davlat siyosatining shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdilar.

20-yillarda mamlakat siyosiy hayotida yangi sharoitga moslashishga erishgan Respublikachilar partiyasi muhim rol o‘ynadi. 1920 yildagi prezidentlikka saylovlarda Demokratlar partiyasi mag‘lubiyatga uchradi va Oq uyni respublikachilar egalladilar. Ular Oq uy va Kongressda 1932 yilgacha hukmronlik qildilar. Bu davrda prezidentlik kursida U.Garding (1921-1923), K.Kulij (1923-1924 va 1925-1929) va G.Guver (1929-1932) o‘tirdi. Bu davr Amerika iqtisodiyotining gullab-yashnash (prosperiti) davri bo‘ldi.

1924 yilda Amerikalik bankir Charliz Daues tashabbusi bilan Germaniyadan olinadigan reparatsiya bahonasi bilan “Daues rejasi” degan maxsus reja tuzildi. Bundan maqsad Germaniya iqtisodiyotida AQSHning moliyaviy pozitsiyasini kuchaytirish, katta foyda olish, Germaniya og‘ir sanoatini rivojlantirish edi.

Shimoliy Amerika zo‘ravonlari “katta tayoq” siyosatiga amal qilib, butun Amerika qit‘asida hukmron bo‘lib olish uchun kurashdilar. Markaziy Amerika mamlakatlariga (masalan, Gaiti, Gonduras, Kuba va boshqalarga) qarshi qurolli intrvensiya uyushtirildi. Panamadagi askarlar soni oshirildi. Panama AQSHning harbiy strategik platsdarmiga aylantirildi. Meksika neft boyligining 73% AQSH monopolistlari qo‘liga o‘tdi. 1928 yilga kelib Lotin Amerikasidagi 20 ta mamlakatdan 14 tasi AQSHga qaram bo‘lib qoldi. AQSH 1929 yilda Filippindagi milliy ozodlik harakatini qurol kuchi bilan yovuzlarcha bostirdi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari G‘arbiy Yevropadagi moliya tizimlarida ham yetakchi marralarni qo‘lga kiritib, bundan qit’a ustidan o‘z siyosiy hukmronligini o‘rnatish yo‘lida foydalandi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida AQSH

1929 yil oktyabr oyida mamlakatda iqtisodiy inqiroz boshlandi. AQSH 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozning asosiy o‘chog‘i bo‘lib qoldi. 1929-1933 yillar iqtisodiy inqirozi AQSH sanoat mahsulotini 56% kamaytirib, 1905-1906 yillardagi ishlab chiqarish darajasiga tushirib qo‘ydi. Po‘lat quyish 76% qisqardi, ya’ni 1901 yilgi darajaga tushib qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi deyarli yarmiga qisqardi, avtomobillar chiqarish 80%ga, eksport, import, chakana savdo aylanmasi ikki barobarga kamaydi. Ushbu inqiroz “Buyuk depressiya” deb nomlandi.

Qishloq xo‘jaligidagi vaziyat ham keskin yomonlashdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining harid narxlari tushib ketganligi fermer xo‘jaliklarining ommaviy inqiroziga sabab bo‘ldi. Inqiroz yillarida milliondan ortiq fermer xo‘jaliklarining bor-budi sotib yuborildi. Ularning egalari esa ishsizlar safiga qo‘shilishdi. Ishsizlik amerikaliklar uchun haqiqiy ofatga aylandi. 1933 yili mamlakatda 17 mln. ishsiz bo‘lib, har uchinchi ishchi ish haqidan mahrum edi.

Buyuk depressiya ommaviy ish tashlashchilik harakatiga turtki berdi, ishchilar va fermerlarning chiqishlari boshlandi. 1931 yil dekabrda va 1932 yili ishsizlarning Vashingtonga yurishlari tashkil etildi. Ular “ocharchilik yurishlari” deb nomlandi. G‘alayonlar qishloq xo‘jalik hududlariga ham tarqaldi.

Inqiroz va sinfiy kurash eng kuchaygan 1932 yili navbatdagi prezident salovi o‘tkazildi. Uning natijalariga ko‘ra demokratlar partiyasining tajribali va tadbirli siyosatchisi Franklin Ruzvelt prezident etib saylandi.

F.Ruzvelt AQSHning o‘ttiz ikkinchi prezidenti hamda Amerika tarixidagi eng mashhur prezidentlardan biri edi. U 1932 yildan 1945 yilgacha prezidentlikka to‘rt marta saylangan yagona prezidenti ham edi. Ruzvelt prezident bo‘lgach, Amerika iqtisodiyotida “yangi yo‘nalish” sifatida shuhrat qozongan keng miqyosli islohotlarni boshladi. Bu yo‘lning mohiyati ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik to‘liq saqlangan holda davlat boshqaruvini iqtisodiyotga va ijtimoiy munosabatlarga keng joriy etishdan iborat edi. Ruzvelt hamda uni

quvvatlovchi siyosiy arboblarning dadil qadam tashlay olishdi - mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning davlat dastaklarini qo'llash ko'zda tutilar, mehnat huquqini jiddiy qayta ko'rish, ishsizlikka qarshi kurashga katta mablag'lar ajratish va ijtimoiy sug'urta asoslarini yaratish (pensiylar, kasallik bo'yicha nafaqalar, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi tizimini takomillashtirish) rejalashtirilgandi. Shunday qilib, Ruzveltning "yangi yo'nalish"idagi asosiy vazifa davlatning iqtisodiy faoliyat jarayoniga faol aralashuvi yo'li orqali mamlakatni inqirozdan chiqarishdan iborat edi.

Ruzveltning "Yangi yo'nalishi" AQSHdagi ijtimoiy munosabatlarni liberallashtirish uchun ijtimoiy qonunchilik sohasida muhim siljishni amalga oshirdi. 1935 yili AQSH Kongressi "Vagner qonuni"ni qabul qildi, mazkur qonun bo'yicha ishchilar jamoaviy shartnomalar tuzish huquqiga va ish tashlash huquqiga ega bo'lishdi. Bundan buyon ish tashlashda qatnashganligi uchun ta'qib qilish man qilindi. Huddi shu yili AQSH tarixida birinchi marta ijtimoiy sug'urtalash haqidagi qonun qabul qilindi. Bu qonunda keksalarni ta'minlash va ishsizlik bo'yicha kompensatsiya to'lash, ko'zi ojizlarga, majruhlarga, yolg'iz onalarga va yetimlarga yordam berish ko'zda tutildi.

AQSH kongressi 1933 yilda 3,5 oy ichida 70 ta qonun qabul qildi. Bular orasida ayniqsa "Milliy sanoatni tiklash to'g'risida akt", "Qishloq xo'jaligini tartibga solish to'g'risida akt" ("Fermirlarga yordam berish to'g'risida qonun") muhim qonunlar edi. Ruzvelt hukumati sanoat, savdo va transport kompaniyalarini, banklarni, sug'urta jamiyatlarini halokatdan qutqarishga urindi va shu maqsadda ssuda (qarz)lar berildi. Hukumat qishloq xo'jalik mahsuloti narxlarini oshirishni ham ko'zda tutdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSH

Ruzvelt prezidentligi davrida ichki siyosatning liberallashtirilganligi tashqi siyosatda ham aks etdi. AQSHning tashqi siyosati yanada moslashuvchan va haqqoniyroq bo'lib qoldi. Yangi ma'muriyatning tashqi siyosatdagi birinchi yirik ishi - 1933 yil noyabrda Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatganligidir. Ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar me'yorlashganligi ularning iqtisodiy aloqalarini

faollashtirdi. 1935 va 1937 yillarda AQSH bilan SSSR o'rtasida ikki mamlakatning o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga imkon beruvchi savdo bitimlari tuzildi.

1933 yili AQSH hukumati Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan "yaxshi qo'shnichilik" siyosatini e'lon qildi. F.Ruzvelt Gaitidan Amerika qo'shinlarini chaqirib oldi. Kuba bilan shartnoma tuzilib, AQSHning intervensiya huquqi bekor qilindi. Lotin Amerikasi davlatlari bilan ular uchun qulay savdo bitimlari tuzildi. Siyosatning yangi usullari tufayli AQSH Janubiy Amerikadagi asosiy raqiblar – Angliya va Germaniyani tezda qisib qo'yishga erishdi.

30-yillar o'rtalarida AQSHdagi hukmron doiralarning diqqat markazini Yevropa va Uzoq SHarq siyosati muammolari egalladi. Bu masalalar bo'yicha o'tkir siyosiy kurash avj oldi. Izolyasionistlarning mavqei Amerikaning keng xalq doiralarida hukmron bo'lgan urushga qarshi kayfiyatlar, shuningdek, demokratik partiyaning o'zida "betaraflik - urushga qarshi vositachi" shiorini ilgari suradigan kuchli senatorlar guruhi mavqei tufayli kuchaya bordi. Bu senatorlar guruhi ko'pgina holatlarda tashqi siyosat masalalari bo'yicha muhim qarorlar qabul qilinishiga faol ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. 1935 yil avgustida ularning tazyiqi bilan betaraflik haqidagi qonun qabul qilindi. Bu qonun Yevropa qit'asidagi urushayotgan mamlakatlarga qurol-aslaha va harbiy materiallar yetkazilishini taqiqlardi. O'sha yillarda Xitoy va Uzoq Sharq rayonlarida AQSH bilan Yaponiya, Yevropa va Lotin Amerikasida AQSH bilan Angliya, AQSH bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib bormoqda edi. Tashqi savdo, kapital chiqarish va neft mahsuloti ishlab chiqarish sohasida AQSH Angliyadan o'zib ketdi, lekin jahon neft boyligining 75%i Angliya nazoratida edi.

Ruzvelt 1937 yil 5 oktyabr kuni Chikagoda so'zlagan nutqida agressorlar atrofida "karantin" o'rnatishga chaqirdi. U fashistik davlatlarning bosqinchilik harakatlarini ham keskin qoraladi. Shunday bo'lsada, AQSH davlat departamenti rahbarlari Myunxen bitimidan mamnun bo'lib, u "yangi xalqaro tartib" o'rnatadi, dedilar. Yirik monopolist Nudsen Gitlerni tabriklab telegramma yubordi. Reaksion diplomat Bullit o'zining bir maktubida Sharqda Germaniya bilan Rossiya

tezroq harbiy to'qnashuvini istayotganligini bildirdi. Myunxen bitimidan keyin Germaniya agressiyasining kengayishi va Yaponiya agressiyasini Xitoyning janubiy tomonlariga qaratilishi AQSH hukmron doiralarini ancha tashvishga solib qo'ydi.

1936 yil 26 iyul kuni AQSH Yaponiya bilan savdo shartnomasini bekor qildi. 1939 yil 4 noyabrda Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so'ng betaraflik haqidagi qonun qayta ko'rib chiqildi va bu Angliya hamda Fransiyaga AQSHdan qurol-yarog' sotib olish imkonini berdi. AQSH demokratik davlatlar tomonidagi o'z holatini qat'iy belgiladi.

1941 yil 11 martda Kongress AQSH mudofaasi uchun hayotiy muhim hisoblangan qurol va harbiy anjomlar qarzga (lend), yoki ijaraga (liz) berish uchun imkon yaratgan lend-liz haqidagi qonunni qabul qildi. AQSH lend-liz bo'yicha amalda Angliyaga, Sovet Ittifoqi va Xitoyga qurol bilan katta yordam berdi.

Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: “yaxshi qo'shnichilik”, “katta tayoq siyosati”, intervensiya huquqi, “Daues rejasi”, “yangi yo'nalish”, (“Fermerlarga yordam berish to'g'risida qonun”), “lend-liz”.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. AQSH Birinchi jahon urushini qanday ko'rsatgichlar bilan yakunladi?
2. Parij tinchlik konferensiyasida AQSH nega yakkalab qo'yildi?
3. Vashington konferensiyasi orqali AQSH nimalarga erishdi?
4. AQSHning Daues va Yung rejalarini Germaniyaga qabul qildirishdan ko'zlagan maqsadi nima edi?
5. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiyoti inqirozi AQSHga qanday ta'sir ko'rsatdi?

6. 1929-1933 yillarda AQSHda yuz bergan iqtisodiy inqirozning zararini ta'riflang?

7. F.Ruzveltning "Yangi yo'nalishi"ning mohiyatini tushuntirib bering?

8. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi AQSH tashqi siyosatidan ko'zlangan maqsad nima edi?

Toifalash jadvali

AQSH ekspansiyasini jahon davlatlariga ta'risi	Qamrab olishi	Ta'sir doirasi (ijobiy)	Ta'sir doirasi (salbiy)	Takliflar
SSRI				
Lotin Amerikasi mamlakatlari				
Osiyo mamlakatlari				
Afrika mamlakatlari				
G'arbiy Yevropa				


Venn diagrammasi

Venn diagrammasi – talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Talabalar o'zlashtirgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaraliroqdir.

Talabalar Venn diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda Venn diagrammasi tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikkinchi uchinchi doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadilar.

VILoyatlar 1945 YILLARDA LOTIN AMERIKA MAMLAKATLARI



XX asrning 20-yillarida jahon bozorida Lotin Amerikasi mamlakatlari mahsulotlari uchun qulay kon'yunktura (vaziyat) saqlanib turdi. Ammo iqtisodiy o'sish avvalgidek ko'proq ekstensiv faktorlarga asoslangan holda amalga oshirilardi. Shu bilan birga, hali ham qishloqda latifundiyali hukmronlik, ishlab chiqarishning tashqi bozorga mo'ljallanganligi, chet el kapitaliga muhtojlik xarakterlari saqlanib qolgan edi.

Siyosiy jihatdan esa 20-yillari Lotin Amerika mamlakatlari asosan nomi jihatidan respublika edilar. Mintaqada savodsiz va chala savodli aholi ayniqsa iqtisodiy va madaniy markazlardan tashqari joylarda ko'pchilikni tashkil etardi. Ular saylovda ishtirok etimaganligi tufayli demokratiya vakillari uchun “fuqaroli jamiyatini” hamda ijtimoiy bazani tashkil etolmasdilar.

Mintaqaning nisbatan qoloq mamlakatlarida respublika niqobi ostida konservativ ma'nodagi avtoritar va diktatorlik rejimlari mavjud edi. U yerlarda bir necha yillar davomida “kaudilo” (dohi) diktatorlar hukmronlik qilgan.

Boshqa mamlakatlarda rasmiy jihatdan konstitutsion vakilli idoralar mavjud edi. Ammo, aslida siyosiy jarayon pomeshik-burjua oligarxiyasi yuqori vakillari qo'lida mujassamlashgan edi. Masalan, Braziliyada markazdagi real siyosiy hokimlik "kofe" oligarxiyasi – tor doiradagi imtiyozli elita qo'lida mujassamlashgan edi. Saylovlarda bor yo'g'i bir qism fuqarolar qatnashardi (Braziliyada tahminan 30%).

Nisbatan rivojlangan kapitalistik respublikalarda – Argentina, Chili va Urugvayda – urushdan keyin konservativ oligarxiya rejimi o'rniga hokimiyat tepasiga konstitutsion liberal-demokratik hukumat keldi. Bu mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy hayotga aholining ko'pchilik qismi jalb etilgan edi va deyarli keng siyosiy erkinliklar mavjud edi. Bunday hukumatlar tomonidan (shuningdek 1910 – 1917 yy. Meksika inqilobidan so'ng) islohotlar o'tkazish harakatlari mintaqa tarixida yangi holat bo'ldi.

XX asr boshlarida Lotin Amerikasidagi liberal-reformizm, kuchaygan milliy burjuaziyaning va shuningdek aholining ko'pchilik qismini – mayda burjuaziya, o'rta tabaqa va ma'lum darajada mehnatkashlarning ma'nfatlari ifodalardi. Bunday holat, XX asr boshlaridagi G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika burjua reformizmi ta'siri ostida rivojlangan edi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida XX asr 20-yillarida boshlangan reformizm, asosan sanoat kapitalining tasdiq topish davridagi Yevropa liberalizmiga yaqin edi.

Reformistik hokimiyatlar katta e'tiborni ijtimoiy siyosatga qaratardi. Ularning bu yo'nalishdagi faoliyati 1917-1921 yy. Argentina, Chili, Urugvay, Braziliya va bir qator boshqa mamlakatlardagi ishchilar harakatining ko'tarilishi bilan rag'batlantirilardi.

Liberal-reformistik siyosatning namunasi sifatida Argentinadagi (1916-1922, 1928-1930 yy.) Ipolito Irigoyen hukumatining faoliyatini keltirish mumkin. U ikki marta prezident saylovlarida g'olib chiqqan. Uning hukumati milliy iqtisodiyotni rag'batlantirardi, davlat neft sanoatini yuzaga keltirdi. Qishloqda fermerlik tabaqasi kuchaytirildi, ijarachilar sharoiti yaxshilandi. Irigoyen qattiq turib 8 soatli ish kuni haqidagi qonunni qabul qilidirdi. Ish haqi oshirildi, ishchi va mehnatkashlarga nafaqa to'lash joriy etildi, ayollar va o'spirinlar mehnati cheklandi. Kasaba uyushma faoliyati erkinlikka ega bo'ldi.

Hokimiyat, ishchilar noroziligini susaytirishga va ular orasida davlatning vositachiligida sinfiy hamkorlik mumkinlik umidining yuzaga kelishiga erisha oldi. Alohida e'tibor ta'lim tizimiga qaratildi. Irigoyen Argentinaning milliy suverenitetini yoqlab chiqqan edi.

2-§. XX asr 30-chi yillardagi iqtisodiy inqiroz va siyosiy tuturiqsizlik

1929-1932 yillardagi iqtisodiy inqiroz mintaqamamlakatlarida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzulmaning tashqi bozorga bog'liqligini namoyish etdi. Inqiroz yillari Lotin Amerikasi mamlakatlarining mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj keskin tushib ketdi. Millionlab tonna kofe, don va plantatsiya mahsulotlari o'z ehtiyojini topmaganligidan yo'q qilindi. Ishlab chiqaruvchilar ommaviy ravishda xonavayron bo'ldilar. Ko'plar ishsiz qoldilar. Mehnatkashlarni va o'rta tabaqa aholining turmush tarzi yomonlashib bordi. Iqtisodiy inqiroz mintaqadagi hukmron rejimning moddiy va ijtimoiy bazasiga putur yetkazdi, ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqishiga va jushqin siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Bunday sharoitda turli mamlakatlarda voqealar turlicha rivojlana bordi.

Hokimiyat tepasida liberal-reformistlar hukumati mavjud bo'lgan mamlakatlarda, inqiroz ularga va ularning siyosatiga qattiq putur yetkazdi hamda bunday vaziyatdan o'ng oppozitsiya kuchlari foydalandi. Aynan, shunday voqea Argentinada sodir bo'ldi. Bu yerda 1930 yil harbiy to'ntarish natijasida Irigoyenning ikkinchi hukumati ag'darib tashlandi va hokimiyat tepasiga konservativ guruhlar keldi.

Braziliyada esa, aksincha, bu yerda inqiroz hukmronlik qilayotgan "kofe" oligarxlarining pozitsiyasini zayiflashtirib qo'ydi va bunday vaziyatdan ularga oppozitsiyada bo'lgan burjua-millatchilik doiralari foydalandi. 1930 yil sodir bo'lgan burjua inqilob oligarxiya rejimiga chek qo'ydi.

Kolumbiyada 1930 yil konservativ oligarxiya rejimi liberal-reformistik rejim bilan almashdi. Chili va Kubada 1930 yillar boshida

ommaviy inqilobiy chiqishlar natijasida inqirozgacha o'rnatilgan diktatorlik rejimlari ag'darib tashlandi.

Chilida 1932 yil 12 kun davomida hokimiyat sotsialistlar qo'liga o'tdi va "sotsialistik respublika" e'lon qilindi. Ko'p o'tmay bu yerda konstitutsion boshqaruv tiklandi.

Shunday qilib, XX asr 30-yillarida Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida bir-biri bilan almashib turgan turli siyosiy rejimlar – shakli jihatidan diktatorlik va konstitutsion boshqaruv, ijtimoiy mazmun jihatidan konservativ, liberal-reformistik, millatchilik va so'llar mavjud edilar.

3-§. Lotin Amerikasida davlat boshqaruvining xususiyatlari

Lotin Amerikasida davlatning iqtisodiyotdagi rolini faollashuvi, asosan kapitalistik taraqqiyot yo'ldan ilgarilab ketgan mintaqadagi mamlakatlarga (Argentina, Meksika, Braziliya, Chili, Urugvay) taalluqli edi.

XX asr 30-yillarida Lotin Amerikasi respublikalarida importga yuqori poshlina(boj)ni kiritishda va iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat tomonidan turli shakldagi (mahalliy tadbirkorlarga kreditlar, subsidiya, moliyaviy va soliq imtiyozlari berish, davlat sektorini rivojlantirish) qo'llab-quvvatlashda iqtisodiyotdagi davlatning boshqaruvi namoyon bo'ldi.

Bunday tadbirlar vaqt jihatidan aynan shunday tadbirlar rivojlangan G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarda bo'lib o'tgan davrga to'g'ri keldi hamda ularning bevosita tasiri ostida sodir bo'ldi. Ammo Lotin Amerikasida iqtisodiyotni davlat boshqaruvi mahalliy kapitalizm rivojini jadallashtirishga qaratilgan edi.

Lotin Amerikasida iqtisodiyotni davlat boshqaruvi turli variant va masshtabga ega edi. Argentinada Avgustin Xusto (1932- 1938 yy.) hukumati davrida iqtisodiyotga davlatning aralashuvi xazina daromadini va agroeksport oligarxiyasini qo'llab-quvvatlash maqsadini qaratilgan edi.

Braziliyada Jetulio Vargas (1930 – 1945 yy.) boshchiligidagi millatchilik diktaturasi davrida davlat boshqaruvi milliy burjua doiralarining ma’nfatlari qo’llab-quvvatlanishida namoyon bo’ldi. Bu yerda davlatning siyosati asosan milliy kapitalni qo’llab-quvvatlanishga va davlat sektorini tashkil etishga qaratilgan edi. Ushbu siyosat mehnatkashlarga ijtimoiy yon bosish yo’li bilan olib borilgan edi.

Chili va Meksikada davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, keng milliy-vatanparvar, demokratik va so’l kuchlarni shu jumladan, o’rta va mayda tadbirkorlarni, dehqonlar tabaqalari va shahar mehnatkashlarining manfaatlarini o’zida aks ettirdi. Ushbu mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi oligarxiyaga va imperializmga qarshi qaratilgan jiddiy voqealar, shu jumladan bir qator sanoat sohalarini milliylashtirish va ijtimoiy islohotlar bilan amalga oshirildi.

Chilida Xalq fronti (1938-1941 yy.) hukumati demokratik erkinliklarni va mehnatkashlar huquqlarini kengaytirdi hamda keskin o’ng tashkilotlarga nisbatan chora ko’rdi. 1939 yil ishlab chiqarishni rivojlantirish Korporatsiyasining tashkil etilishi obro’li davlat iqtisodiy sektorini tashkil etilishiga olib keldi. Mayda va o’rta yer egalariga yordam ko’rsatildi, bir qism bo’sh yotgan yerlar yersiz dehqonlarga berildi.

4-§. XX asr 30-yillarida Lotin Amerikasi mamlakatlariga xorijiy mamlakatlar qiziqishi

XX asr 30-yillarida Lotin Amerika mamlakatlardagi hukumatlarning iqtisodiy siyosatidagi o’zgarishlar, mahalliy ishlab chiqarishni va milliy kapitalni kuchayishiga olib keldi.

Ammo, shu bilan birga, ikki jahon urushi oralig’ida Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun AQSH bilan bo’lgan o’zaro munosabatlar jiddiy muammoga aylandi. Birinchi jahon urushi davrida Yevropa davlatlarining Lotin Amerikasiga bo’lgan e’tibori susayishidan foydalanib, Markaziy va Janubiy Amerikaga AQSH o’zining suqilib kirishini jadallashtirdi. 1913-

1929 yillarda mintaqada Shimoliy Amerikaning kapitali 4,5 martaga ko‘paydi.

Lotin Amerikasida AQSHga qaratilgan kayfiyatning kuchayib ketishidan qo‘rqib va bu mintaqada AQSHning ta‘sirini saqlab qolish va kuchaytirish maqsadida prezident F.Ruzvelt boshchiligidagi hukumat boshqacha yo‘l tutishni ma‘qul ko‘rdi. 1933 yili AQSH prezidenti F.Ruzvelt Lotin Amerika davlatlariga nisbatan intervensiyadan va ularning ishlariga turli shakldagi aralashuvdan voz kechishni hamda “muloyim qo‘shnichilik”, yoki “muloyim qo‘shnichilik hamkorligi” siyosatiga o‘tish to‘g‘risida e‘lon qildi. Bu esa, o‘z navbatida, Vashingtonni nisbatan egiluvchan shakldagi ekspluatatsiya yo‘liga o‘tishini bildirardi va shu bilan birga xalqaro munosabatlarda jiddiy ijobiy o‘zgarish bo‘lib hisoblandi.

Mavzuni o‘rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar


Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: ekstensiv, konservativ, oligarxiya, liberal-reformistik rejimi, Xalq fronti, F.Ruzvelt, “muloyim qo‘shnichilik”.

Mustahkamlash uchun savollar:


1. Birinchi jahon urushidan so‘ng Lotin Amerikasi mamlakatlarida qanday tipdagi siyosiy rejimlar mavjud edi?
2. XX asr 20-yillarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida liberal islohotlar siyosati deganda nimani tushunasiz?
3. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlariga qanday ta‘sir ko‘rsatdi ?
4. Lotin Amerikasida iqtisodiyotga davlat boshqaruv siyosatini qanday baholaysiz?

Ushbu mavzuni o‘zlashtirishda pedtexnologiyaning “Nima uchun” metodidan foydalanish mumkin.

“NIMA UCHUN” sxemasi



Birinchi jahon urushidan so‘ng Lotin Amerikasi mamlakatlarida turli tipdagi siyosiy rejimlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi va buning ta’siri bugungi kunda ham kuzatiladi. Nima uchun?



Ushbu mavzuni o‘zlashtirishda shuningdek, pedtexnologiyaning “Rezyume” metodini ham qo‘llash mumkin.

«REZYUME» texnologiyasi

“Rezyume” texnologiyasidan mavzuni xulosalashda, umumlashtirishda, paragraflar va bobni takrorlashda talabalar bilimini baholashda foydalanish mumkin. Bunda individual, kichik guruhlarda va jamoa bilan ham ishlash mumkin.



Talabalarga mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi tanishtiriladi, har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma ravishda bayon qilinadigan varaqlar tarqatiladi.



Guruhlar tomonidan berilgan fikrga yoki hulosalarga izoh beriladi, ular baholanadi va tahlil qilinadi.

Rezyume texnologiyasini qo‘llashdan oldin quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish samaradorlikni oshiradi:

XX asrning 20-30-yillarida Lotin Amerikasi mamlakatlarining taraqqiyot yo‘li ham turli-tuman edi. Bu esa, ularni turlicha iqtisodiy hayot va ijtimoiy muammolarni yuzaga kelishini taqozo etdi. Meksika, Argentina, Chili, Urugvay, Braziliya kabi davlatlarning taraqqiyot yo‘li quyidagicha aks etadi.

1. Argentinada Avgustin Xusto (1932 – 1938 yy.) hukumati davrida iqtisodiyotga davlatning aralashuvi xazina daromadini va agroeksport oligarxiyasini qo‘llab-quvvatlash maqsadiga qaratilgan edi.

2. Braziliyada Jetulio Vargas (1930 – 1945 yy.) boshchiligidagi millatchilik diktaturasi davrida davlat boshqaruvi milliy burjua doiralarining manfaatlari qo‘llab-quvvatlanishida namoyon bo‘ldi. Bu yerda davlatning siyosati asosan milliy kapitalni qo‘llab-quvvatlanishga va davlat sektorini tashkil etishga qaratilgandi. Ushbu siyosat mehnatkashlarga ijtimoiy yon bosish yo‘li bilan olib borilgandi.

3. Chili va Meksikada davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, keng qamrovda milliy-vatanparvar, demokratik va so‘l kuchlarni shu jumladan, o‘rta va mayda tadbirkorlarni, dehqonlar tabaqalari va shahar mehnatkashlarining manfaatlarini o‘zida aks ettirdi. Ushbu mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi oligarxiyaga va imperializmga qarshi qaratilgan jiddiy voqealar, shu jumladan bir qator sanoat sohalarini milliyalashtirish va ijtimoiy islohotlar bilan amalga oshirildi.

Chilida Xalq fronti (1938 – 1941 yy.) hukumati demokratik erkinliklarni va mehnatkashlar huquqlarini kengaytirdi hamda keskin o‘ng tashkilotlarga nisbatan chora ko‘rdi. 1939 yilda ishlab chiqarishni rivojlantirish Korporatsiyasining tashkil etilishi obro‘li davlat iqtisodiy sektorining tashkil etilishiga olib keldi. Mayda va o‘rta yer egalariga yordam ko‘rsatildi, bir qismi bo‘sh yotgan yerlar yersiz dehqonlarga berildi.

4. XX asr 30-yillari Lotin Amerika mamlakatlardagi hukumatlarning iqtisodiy siyosatidagi o‘zgarishlar mahalliy ishlab chiqarish va milliy kapitalning kuchayishiga olib keldi.

5. Lotin Amerikasida AQSHga qaratilgan kayfiyatning kuchayib ketishidan qo‘rqib va bu mintaqada AQSHning ta’sirini saqlab qolish va kuchaytirish maqsadida prezident F.Ruzvelt boshchiligidagi hukumat boshqacha yo‘l tutishni ma’qul ko‘rdi. 1933 yili AQSH prezidenti F.Ruzvelt Lotin Amerika davlatlariga nisbatan intervensiyadan va ularning ishlariga turli shakldagi aralashuvdan voz kechishni hamda “muloyim qo‘shnichilik”, yoki “muloyim qo‘shnichilik hamkorligi”

siyosatiga o'tish to'g'risida e'lon qildi. Bu esa, o'z navbatida, Vashingtonni nisbatan egiluvchan shakldagi ekspluatasiya yo'liga o'tishni bildirardi va shu bilan birga xalqaro munosabatlarda jiddiy ijobiy o'zgarish bo'lib hisoblandi.

<i>Lotin Amerikasi modeli</i>		<i>Yevropa(cha) model</i>		<i>Osiyo taraqqiyoti modeli</i>	
Ijobiy jihat	Salbiy jihat	Ijobiy jihat	Salbiy jihat	Ijobiy jihat	Salbiy jihat
Xulosa:					

MAVZULARGA DOIR TEST SAVOLLARI

I BOB. 1918 - 1945 YILLARDA BUYUK BRITANIYA

1. Qachondan boshlab Angliya “Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo‘shma qirolligi” deb ataladigan bo‘ldi?

- A) 1937-yildan B) 1967-yildan
- C) 1919-yildan D) 1921-yildan

2. XX asrning 30-yillarida Buyuk Britaniya tashqi siyosatda ikki asosiy muammoga duch keldi. Bular ...

- A) Fransiyaning kuchayishi, Rossiyaning Germaniya bilan yaqinlashuvi
- B) AQSHning Germaniyani qo‘llab-quvvatlashi, Turkiyaning Angliya himoyasi ostidagi Gretsiyaga harbiy tahdidi
- C) Ispaniyadagi fuqarolar urushi va Xitoyga chet davlatlarning intervensiyasi
- D) Fashistlarning Yevropadagi agressiv siyosati, Angliya mustamlakalarida milliy-ozodlik kurashining kuchayishi

3. Buyuk Britaniya – Germaniya dengiz bitimi nechanchi yil imzolangan?

- A) 1935-yil 30-iyun B) 1928-yil 18-mart
- C) 1931-yil 13-sentabr D) 1925-yil 22-aprel

4. Buyuk Britaniya – Germaniya dengiz bitimiga ko‘ra ...

- A) Germaniya Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining 3/1 qismiga teng dengiz floti tuzish imkoniyatiga ega bo‘ldi.
- B) Germaniya Boltiq dengizi havzasidagi harbiy flotini qisqartiradigan, O‘rta Yer dengiziga harbiy flot quradigan bo‘ldi.
- C) Germaniya Fransiya harbiy-dengiz flotiga teng flot tuzish imkoniyatiga ega bo‘ldi.
- D) Germaniya La-Mansh bo‘g‘ozida harbiy baza qurish huquqini qo‘lga kiritdi.

5. “Vestministr nizomi”ga muvofiq Buyuk Britaniya dominionlari
A) faqat ichki siyosatda mustaqillikni qo‘lga kiritdi
B) Buyuk Britaniya bilan birga “Britaniya Millatlar Hamdo‘stligi” ga birlashdi
C) Yangi Zellandiya va Janubiy Irlandiya mustaqillikni qo‘lga kiritdi
D) o‘z xalqining plebeyssiy yo‘li bilan mustaqil bo‘lish huquqini qo‘lga kiritdi
6. Janubiy Irlandiya mustaqil davlat bo‘lgan yilni aniqlang.
A) 1937-yil B) 1921-yil C) 1947-yil D) 1949-yil
7. 1928-yil Parijda qaysi davlatlar tashabbusi bilan Brian-Kellog bitimi imzolandi?
A) AQSH va Germaniya B) SSRI va Fransiya
C) Fransiya va AQSH D) Fransiya va Germaniya
8. Angliya va Fransiyaning qaysi bosh vazirlari Myunxenda o‘z imzolari bilan gitlercha hukmronlikni tasdiqlagan? (1938-yil 30-sentabr)
A) G. Dumerg, S. Bolduin
B) E. Daladye, N. Chemberlen
C) A. Lebren, R. Makdonald
D) A. Mileran, U. Cherchill
9. Angliya tarixini eslang. qachon mamlakatda ilk bor tinchlik paytida umumiy harbiy majburiyat joriy qilingan edi?
A) 1914-yil 10-martda, Birinchi jahon urushi arafasida
B) 1939-yil 15-aprelda, Germaniyaning g‘arbda Angliya va Fransiya qarshi urush boshlashi mumkinligi oydinlashgandan keyin
C) 1938-yil Myunxen shartnomasi qarorlaridan keyin
D) 1912-yil, Birinchi jahon urushi arafasida
10. Birinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniya va AQSHning Yevropadagi tashqi siyosati...

1) Genuya shartnomasini qo'llab-quvvatlashdir; 2) Fransiyaning Germaniyaga qarshi qurollantirish; 3) Fransiyaning Yevropadagi mavqegini pasaytirish yoki yo'qqa chiqarish; 4) Germaniyaning Yevropa siyosiy hayotidagi rolini oshirish

A) 1, 2 B) 1, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

11. Angliyada Vestministr nizomi qabul qilingan yilni aniqlang.

A) 1929-yil B) 1931-yil C) 1934-yil D) 1927-yil

12. Buyuk Britaniyada birinchi leyboristlar hukumatiga kim boshchilik qildi?

A) Makdonald B) Polmet C) Chemberlen

D) Vilson

13. 1866-1937-yillarda yashagan Buyuk Britaniya hukumat rahbarini aniqlang.

A) D. Lloyd-Jorj B) Bonar Lou

C) Stenli Bolduen D) Ramsey Makdonald

14. Xronologik xatoni toping.

A) 1929-1933 yillar dunyo iqtisodiy inqirozi .

B) 1919-yil-Versal tinchlik shartnomasini imzoladi.

C) 1925-yil Angliyada ikkinchi leyboristlar hukumati shakllandi.

D) 1936-1937-yillar Berlin, Rim, Tokio agressiya bloking shakllanishi.

15. Quyidagi davlatlarning qaysi biri 1921-yilda Buyuk Britaniya dominoni statusini qo'lga kiritdi?

A) Janubiy Irlandiya B) Shotlandiya C) Kanada

D) Shimoliy Irlandiya

16. Quyidagi davlatlardan qaysi biri birinchi jahon urushida kam kishi yo'qotgan?

A) Angliya B) Fransiya C) Rossiya D) Germaniya

II BOB. 1918 - 1945 YILLARDA FRANSIYA

1. 1920-yilga kelganda Fransiyaning davlat qarzi qanchani tashkil qildi?
A) 250 mlrd frank B) 300 mlrd frank
C) 420 mlrd frank D) 185 mlrd frank
2. Birinchi jahon urushidan keyin qaysi davlat temir rudasi qazib chiqarish bo'yicha Yevropada birinchi o'ringa chiqdi?
A) Angliya B) Italiya C) Rossiya D) Fransiya
3. Fransiya "Milliy blok" hukumati nechanchi yillarda boshqardi?
A) 1919-1924-yillar B) 1918-1923-yillar
C) 1920-1925-yillar D) 1919-1928-yillar
4. 1921-yil Fransiya Germaniya va Rossiyaga qarshi qaratilgan harbiy ittifoqni qaysi qaysi davlat bilan yuzaga keltirdi?
A) Chexoslovakiya B) Polsha C) Vengriya D) Daniya
5. Fransiya kommunistik partiyasi nechanchi yilda tuzilgan?
A) 1924-yil B) 1922-yil C) 1920-yil D) 1919-yil
6. Birinchi jahon urushidan keyin Millatlar Ittifoqi joriy etgan mandat tizimiga ko'ra Germaniya va Turkiya sobiq mustamlakalarining eng ko'p qismi qaysi davlatga o'tdi?
A) Fransiya B) AQSH C) Yaponiya D) Angliya
7. Birinchi jahon urushidan keyin Turkiyaning sobiq mustamlakalari bo'lgan Suriya va Livanda qaysi davlat nazorati o'rnatildi?
A) Fransiya B) Italiya C) Angliya D) Belgiya
8. Birinchi jahon urushidan keyin Fransiyaning o'z ittifoqdoshlari bo'lgan Polsha va Chexoslovakiyaga nisbatan hiyonatini nimada ko'rish mumkin.
A) 1938-yil Myunxenda Sudet viloyatini Germaniyaga berish haqidagi shartnomani imzolaganida.

B) 1925-yil Germaniya bilan hech qanday hujum qilmaslik haqida kelishib olganligida.

C) 1925-yil Fransiya Polsha va Chexoslovakiyaning Germaniya bilan chegaralarini kafolatlamaganligida.

D) 1932-yil Fransiyaning Rossiya bilan Sharqiy Yevropa davlatlarida o'z ta'sir doiralarini egallash haqidagi kelishuvida.

9. Fransiya nechanchi yilda ikki jahon urushi oralig'ida eng yuqori sanoat ishlab chiqarishga erishdi?

A) 1929-yil B) 1926-yil C) 1930-yil D) 1934-yil

10. Buyuk Britaniya nechanchi yilda ikki davlat harbiy-dengiz flotiga teng keladigan flot saqlash imkoniyatidan mahrum bo'ldi?

A) 1919-yil B) 1922-yil C) 1929-yil D) 1920-yil

11. Quyidagi qaysi davlatda "Jangovar xochlar" deb nomlangan fashistik tashkilot faoliyat olib borgan?

A) Italiyada B) Ispaniyada C) Germaniyada D) Fransiya

12. 1932-yilgi "Fransuz hamkorligi" fashistik tashkiloti kim tomonidan tuzilgan edi?

A) E.Errio B) Koti C) E.Dalade D) A.Koni

13. Myunxen shartnomasini imzolagan Fransiya hukumati rahbarini aniqlang?

A) R.Puankare B) E.Dalade C) L.Blyum D) A.Mileran

14. Nima sababdan Fransiya fashizm hokimiyatni egallay olmadi?

A) Fransiya fashizmning ijtimoiy tayanchi yo'qligi va xalq frontining fashizmga qarshi kurashi

B) Fransiya fashistlarga rahnamolik qiladigan shaxslarning bo'lmaganligi

C) Fransiya hukumatining fashistlar harakatini keskin taqiqlaganligi va ularning mamlakatdan haydalishi

D) Fransiyada fashistik targ'ibotlarning amalga oshirilmaganligi

15. Millatlar Ittifoqi joriy etgan mandat tizimiga ko'ra, Falastin, Transiordaniya, Iroq hududlarini boshqarish huquqi qaysi davlatga berildi?

A) Italiyaga B) AQSHga C) Buyuk Britaniyaga D) Fransiyaga

16. Millatlar Ittifoqi joriy etgan mandat tizimiga ko'ra, Germaniyaning Janubiy-G'arbiy Afrikasini boshqarish huquqi qaysi davlatga berildi?

A) Avstraliyaga B) Yangi Zelandiyaga
C) Buyuk Britaniyaga D) Janubiy Afrika Ittifoqiga

17. Qaysi davlatda qalbaki aksiya sotishni fosh qilgan "Stavisskiy ishi" amalga oshirilgan?

A) Fransiyada B) Rossiyada C) Italiyada D) Angliyada

18. Birinchi jahon urushi tufayli ... Fransiyalik halok bo'ldi, ... yarador bo'ldi.

A) 1,2 mln., 650 ming B) 2 mln., 15 mln
C) 750 ming, 800 ming D) 1,4 mln., 750 ming

19. "Milliy blok" deb nomlangan saylovoldi uyushmasi qaysi davlatda tuzilgan edi?

A) Fransiyada B) Germaniyada C) Italiyada D) Angliyada

20. 1919-yil noyabr oyida Fransiya burjua partiya tomonidan tuzilgan saylov oldi uyushmasi nomini aniqlang?

A) "Milliy blok" B) "Ishchi Sotsiallar"
C) "Sotsial-demokratlar harakati" D) "Birlik ittifoq"i.

21. 1919 yil noyabrda Fransiyada... .

A) urushdan keyin parlamentga birinchi saylovlar bo'lib o'tdi
B) Parijda fashistlar isyon ko'tardi
C) Nantda birinchi mashina ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi

D) Fransiyada konchilarning ish tashlashlari bo‘lib o‘tdi

22. Birinchi jahon urushidan so‘ng Fransiyada birinchi parlament saylovlari bo‘lib o‘tgan vaqtni aniqlang.

- A) 1919-yil-noyabr B) 1919-yil-yanvar
- C) 1921-yil-dekabr D) 1934-yil-aprel

23. 1934-yil 6-fevralda Fransiyada bo‘lgan voqeani aniqlang.

- A) iqtisodiy inqirozdan chiqib ketildi
- B) Parijda fashistlar isyon ko‘tardi
- C) Nantda birinchi mashina ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi
- D) parlamentga birinchi saylovlar bo‘lib o‘tdi

24. Butun Fransiyada fashizmga qarshi umumiy namoyish boshlangan vaqtni aniqlang.

- A) 1934-yil 12-fevral B) 1936-yil 4-oktabr
- C) 1932 yil 11-mart D) 1937-yil 22-iyun

25. 1923-yil yanvarda fransuz qo‘shinlari Germaniyaning Rur viloyati hududiga kirdilar. Buning sababini aniqlang.

- A) Germaniyaning Fransiyaga kontributsiya to‘lashni vaqtincha to‘xtatgaligi
- B) Fransiyaga Rur ko‘mirining butunlay bormay qolishi
- C) Rur viloyatidagi konchilarning Germaniya hukumati chaqirig‘i bilan ish tashlashlari
- D) Angliya va AQSHning Germaniya sanoatiga ko‘maklasha boshlaganligi

26. 1934-yil 12-fevralda Fransiyada umumiy namoyishlarda qancha odam qatnashgan?

- A) 4,5 mln. kishi B) 7 mln. kishi
- C) 2,5 mln. kishi D) 2 mln. kishi

27. Fransiya tashqi ishlar vaziri A. Brian qaysi davlatga urushdan milliy siyosat quroli sifatida voz kechish haqida shartnoma imzolashni taklif qilgan edi?

A) Germaniyaga B) AQSHga C) Rossiyaga D) Buyuk Britaniyaga

28. 1932-yil Fransiya qaysi davlat bilan hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzoladi?

A) Rossiya B) Germaniya C) Yaponiya D) Angliya

29. Fransiyada tashkil topgan fashistik partiyalarni aniqlang .

- A) "Fransuz hamkorligi", "Jangovar xochlar"
- B) "Fransuz falangasi", "Xalq fronti"
- C) "Vatanparvarlik ittifoqi", "Katta fashist kengashi"
- D) "Qulordoshlar uyushmasi", "Xalq fronti"

30. Fransiyada jahon iqtisodiy inqirozi o'ta og'ir shaklda kechdi. Inqiroz ayniqsa, sanoatning qaysi tarmog'iga qattiq ta'sir qildi?

- A) qishloq xo'jaligiga
- B) to'qimachilik va yengil sanoatga
- C) metallurgiya sanoatiga
- D) ko'mir qazib chiqarish sanoatiga

31. 1934-yil Fransiya va Sovet davlatining jamoaviy xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma loyihasini qaysi davlat qabul qilmadi?

A) Buyuk Britaniya B) AQSH C) Germaniya D) Yaponiya

III-BOB. 1918 -1945 YILLARDA GERMANIYA

1. Lokarno shartnomasi qaysi davlatlar o'rtasida imzolangan?

- A) Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Chexoslovakiya, Polsha
- B) Buyuk Britaniya, Rossiya, Gollandiya, Portugaliya, Ispaniya
- C) Fransiya, Chexoslovakiya, Avstriya, Shveysariya, Daniya, Belgiya
- D) Ruminiya, Yugoslaviya, Bolgariya, Vengriya

2. Birinchi jahon urushida Germaniyaning umumiy talofati qancha kishini tashkil qilgan?

A) 2,2 mln. B) 4,3 mln. C) 7,5 mln. D) 9 mln.

3. Yevropa davlatlari Germaniyaning Millatlar Ittifoqiga qabul qilishni qachon kelishib olgan edi?

A) 1922-yil Rapollo shartnomasida
B) 1921-yil London konferensiyasida
C) 1924-yil Lozanna konferensiyasida
D) 1925-yil Lokarno konferensiyasida

4. 1918-yil 3-noyabrda Germaniyaning qaysi shahrida harbiy dengizchilar urush davom etishiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?

A) Kil B) Bremen C) Gamburg D) Shtutgard

5. Germaniyada 1918-noyabrda monarxiya qulagach hokimiyat ...

A) Milliy Kongress qo'liga o'tdi
B) Veymar respublikasi qo'liga o'tdi
C) Xalq vakillari Soveti qo'liga o'tdi
D) Germaniya sotsial-demokratik partiyasi qo'liga o'tdi

6. Veymar respublikasining birinchi prezidentini aniqlang.

A) E. Lyudendorf B) V. Kapp C) Fridrix Ebert D) Ernest Telman

7. 1920-yil 13-martda Germaniyada davlat to'ntarishi o'tkazishda ishtirok etib, o'zini kansler deb e'lon qilgan shaxsni aniqlang.

A) V.Kuno B) E.Telman C) V.Kapp D) E. Lyudendorf

8. Rossiyada bolshiveklar partiyasi tomonidan qishloq xo'jaligini to'la kollektivlashtirish to'g'risida qachon qaror qabul qilindi?

A) 1927-yil B) 1931-yil C) 1930-yil D) 1923-yil

9. Germaniya sotsial-demokratik partiyasidagi markazchilar guruhining yirik namoyandalarini aniqlang.

- A) K.Libknext va R.Lyuksemburg
- B) K.Kautskiy va Gaaze
- C) F.Ebert va SHeydeman
- D) Bernshtien va Noske

10. Daues rejasi qaysi konferensiyada qabul qilingan?

- A) Lokarno konferensiyasida
- B) London konferensiyasida
- C) Lozanno konferensiyasida
- D) Vashington konferensiyasida

11. Daues rejasida nimalar ko‘zga tutilgan edi?

1) Germaniya sanoatini chet el sarmoyasi yordamida rivojlantirish; 2) Germaniya sanoatini ko‘mir konlarining Germaniyaga qaytarish yo‘li bilan tiklash; 3) Germaniya sanoatini Germaniya va Rossiya o‘rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish orqali tiklash; 4) 1925-yil Germaniya Antanta davlatlariga 1 mlrd. markani oltin hisobiga to‘lashi ko‘zda tutilgan; 5) 1929-yil Antantaga to‘lanadigan tovon 2,5 mlrd. markani tashkil etishi kerak edi.

- A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 4, 5

12. Fransiya qachon Rur viloyatidan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketdi?

- A) 1923-yil B) 1922-yil C) 1924-yil D) 1925-yil

13. 1924-1929-yillar oralig‘ida chet davlatlarning Germaniyaga kiritgan qarzi va sarmoyasi qancha edi?

- A) 10 mlrd. marka B) 15 mlrd. marka
C) 32 mlrd. marka D) 21 mlrd. marka

14. Germaniyada 1930-yilda monopoliyalar soni qanchaga yetdi?

- A) 2100 B) 3700 C) 1810 D) 1500

15. Fransiya va Germaniyaning bir-biriga hech qachon hujum qilmaslik majburiyatini olgan shartnomani toping?

- A) 1925-yilgi Reyn kafolat pakti
- B) 1932-yilgi Moskvadagi shartnoma
- C) 1924-yilgi London konferensiyasi
- D) 1938-yilgi Myunxen shartnomasi

16. Nechanchi yilda Italiyada fashistik partiyalardan boshqa partiyalar tarqatib yoborildi?

- A) 1923-yil B) 1925-yil C) 1926-yil D) 1929-yil

17. Germaniya prezidenti P.Gindenburg nechanchi yillarda yashagan?

- A) 1860-1940-yillar B) 1869-1934-yillar
- C) 1872-1934-yillar D) 1874-1934-yillar

18. Germaniya fashizmining ommaviy asosini kimlar tashkil qilgan?

- A) Yangi korxona rahbarlari, ziyolilar, xristian ruhoniylari va yirik sanoat magnatlari
- B) Birinchi jahon urushida eng ko‘p zarar ko‘rgan tabaqalar – hunarmandlar, dehqonlar, urush faxriylari va ishsizlar
- C) O‘rtahol ishchilar, talabalar, ziyolilar, mayda va yirik sanoat korxonalari xo‘jayinlari
- D) Harbiylar – dengiz qo‘shini, harbiy xavo qo‘shinlari, mamlakatning muntazam armiyasi

19. Gitler hokimiyat tepasiga kelishi bilan Germaniyada kasaba uyushmalari taqiqlandi va ular o‘rniga qanday tashkilot tuzildi?

- A) “Germaniya mehnat fronti”
- B) “Germaniya ishchilar uyushmasi”
- C) “Germaniya xalq fronti”
- D) “Germaniya milliy mehnat uyushmasi”

20. Germaniya fashistlarining o‘lim lagerlarida qancha odam yo‘q qilib yuborilgan?

A) 20 mln B) 15 mln C) 10 mln D) 9 mln

21. Germaniyada qachondan 18-25 yoshlilar uchun ichki mehnat majburiyati joriy etildi?

A) 1935-yil apreldan B) 1933-yil maydan
C) 1932-yil martdan D) 1931-yil iyuldan

22. 1939-yilga kelib Germaniyaning harbiy harajatlari qanchani tashkil etgan?

A) 21 mlrd marka B) 12 mlrd marka
C) 10 mlrd marka D) 18 mlrd marka

23. Germaniyada “Milliy mehnatni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

A) 1934-yil 20-yanvar B) 1934-yil 30-iyul
C) 1936-yil 25-may D) 1931-yil 21-aprel

24. Germaniyada qabul qilingan “Milliy mehnatni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra...

A) Iqtisodiyotni harbiy yo‘nalishga o‘tkazishning 4 yillik rejasi qabul qilindi
B) Fuqarolar uchun mehnatni erkin tanlash huquqi bekor qilindi
C) Aholiga mehnatni erkin tanlash huquqi joriy qilindi
D) Ish tashlash taqiqlandi, kasaba uyushmalari faoliyati to‘xtatildi

25. 1925-yil Germaniya prezidenti bo‘lgan shaxsni aniqlang.

A) Genrix Bryuning B) Ernest Telman
C) Paul Gindenburg D) E.Lyudendorf

26. Gitler yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo‘lmagan qancha nemisni o‘ldirib yubordi?

A) 14 ming B) 145 ming C) 250 ming D) 275 ming

27. “Rappalo bitimi” qachon va qayerda imzolandi?

A) 1922-yil Genuyada B) 1924-yil Xitoyda

C) 1925-yil Gdanskda D) 1921-yil Yaponiyada

28. Genuya shartnomasi qaysi davlatlar o'rtasida tuzildi?

- A) Germaniya va Rossiya B) Rossiya va Italiya
C) Germaniya va Italiya D) Fransiya va Rossiya

29. 1919-yilgi Veymar konstitutsiyasini eslang. Unga ko'ra kansler...

1) quyi palata vakillari orasidan saylanardi; 2) prezident tomonidan tayinlanardi; 3) reyxstagga hisob berardi; 4) xalq tomonidan saylanar edi va prezident oldida hisob berar edi.

- A) 1, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 3 D) 3, 4

30. 1923-yil 8-oktabrda Gitler...

- A) Fashizm mafkurasining bosh asari bo'lgan "Mayn kampf" kitobini yozdi
B) "Fyolkisher Beobaxter" gazetasini tashkil etdi
C) Myunxenda davlat to'ntarishi qilishga urinib, fashistlar isyonini tashkil qildi
D) qamoqdan chiqib, yangi hukumat tuzishga kirishdi

31. 1936-yil yozida Germaniyada natsistlar rahbariyati tamonidan ishlab chiqilgan 4 yillik harbiy dasturining asosiy vazifasi?

- A) dunyodagi eng qudratli bo'lgan armiyani tashkil qilish
B) po'lat ishlab chiqarishni bir necha barobar oshirish
C) G'arbiy Yevropaga to'satdan urush ochish va to'xtovsiz zarbalar berish
D) Germaniyada sintetik benzin va kauchk ishlab chiqarishni rivojlantirish vositasida xom-ashyo bilan o'z-o'zini ta'minlash

32. Ma'lumki, I jahon urushidan so'ng Germaniya sotsial-demokratik partiyasi bo'lib yuborilib, unda uch oqim paydo bo'lgan. Shulardan biri bo'lgan O'nglar oqimi qanday tartiblar va tuzum tarafdorlari edilar?

- A) Kayzer hukumatini inqilobiy yo'l bilan ag'darib tashlash va monarxiya tarafdori edilar

- B) Hukumatni inqilobiy yo‘l bilan ag‘darib tashlash, ishchilar rahbarligida sotsialistik jamiyat qurish tarafdori edilar
- C) Kayzer hukumatini ag‘darib tashlash, yangi tartiblar o‘rnatish va fashistik diktatura o‘rnatish tarafdori edilar
- D) Mamlakatda tartibni saqlash, parlamentar respublika o‘rnatish tarafdori edilar

33. Germaniyada fashistlar diktaturasining o‘rnatilishiga olib kelgan omillarni aniqlang.

1) yirik sanoatchilar bu tuzumda siyosiy va iqtisodiy inqirozdan chiqish yo‘lini ko‘rdilar; 2) o‘rta tabaqalar va qashshoq aholi iqtisodiy tanglikning yengillashishiga umid qildilar; 3) nasistlarning davlat to‘ntarishida barcha aholi vakillarining ishtirok etganligi; 4) mamlakatda fashistlar diktaturasining o‘rnatilishiga qarshi turishga qodir kuchlar topilmadi.

- A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 3

34. Germaniyada fashist tuzumining bosh tayanchlaridan biri SS - qo‘riqlash qo‘shinlarining tarkibiy qismini ko‘rsating.

- A) Gestapo va SD (razvedka va kontrrazvedka)
- B) E.Rem boshliq shturmchilar otryadlari
- C) davlat maxfiy politsiyasi va “Qora qo‘l” tashkiloti
- D) “xolokast” ni targ‘ib qilish uchun maxsus tayyorlangan guruhlar

35. Germaniyada fashist tuzumining bosh tayanchlaridan biri SS - qo‘riqlash qo‘shinlari boshlig‘i bo‘lgan shaxsni aniqlang.

- A) G.Gering B) G.Gimmler C) G.Gess D) G.Gebbels

36. Germaniyada fashizm diktaturasi davrida xavfsizlik otryadlari qanday nomlangan?

- A) SS B) Gestapo C) Xolokast D) SD

37. Veymer Respublikasiga xos xususiyatlarni aniqlang.

1) ikki palatadan iborat qonun chiqaruvchi hokimiyatning mavjudligi; 2) Prezidentga favqulodda vakolat berishning yo‘lga qo‘yilishi; 3)

Germaniya federativ respublika deb e'lon qilindi; 4) 20 yoshdan katta bo'lgan erkak va ayollarga saylovda ishtirok etish huquqi berildi; 5) Prezidentning Reyxstagdan xoli bo'lgan holda 7 yilga saylanganligi; 6) Bir palatali qonun chiqaruvchi korpus tashkil etildi.

A) 2, 3, 6 B) 4, 6 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6

38. Daues rejasining mohiyatini aniqlang.

A) Germaniya reparatsiya to'lovlarini to'xtatish

B) Germaniyaning xorijiy zayom va kreditlardan to'siqsiz foydalanish

C) Germaniya va Tinch okeani davlatlari o'rtasida o'zaro savdoni rivojlantirish

D) AQSHning Germaniya inqiroziga barham berishi va uni rivojlantirish

39. "Daues rejasi" nimaga olib keldi?

A) AQSH uchun Uzoq Sharqda faol siyosat eshiklarini ochib, bu mintaqada AQSH gegemonligiga olib keldi

B) Germaniyaning iqtisodiy ishlab chiqarishi bo'yicha Rossiya va Turkiyadan o'tib, Yevropada to'rtinchi o'ringa ko'tarilishiga

C) 1929-yil AQSHdan boshlangan dunyo iqtisodiy inqiroziga

D) Germaniya iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan yuksalishi uchun zamin yaratdi

40. Germaniyaning og'ir iqtisodiy holatga solgan Versal shartnomasi nechanchi yilda barham topdi?

A) 1929-yil B) 1925-yil C) 1932-yil D) 1931-yil

41. Natsistlar partiyasining hokimiyat tepasiga kelishi sabablari...

A) 1923-yil 8-oktabrda Gitler boshchiligidagi "xalq inqilobi" harakati bilan bog'liqdir

B) Germaniyada general Daues va Yung rejasining amalga oshganligi bilan bog'liqdir

C) Germaniya va magnatlarining natsistlarga yo'l ochib berganligi bilan bog'liqdir

D) AQSH hukumatining fashistlarni qo'llab-quvvatlagani bilan bog'liq

42. Germaniya iqtisodiyotining yuksalish yillari qaysi yillarga to'g'ri keladi?

- A) 1921-1925-yillar B) 1921-1928-yillar
- C) 1923-1930-yillar D) 1924-1929-yillar

43. Gitler Germaniyada qachon umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun qabul qildi?

- A) 1937-yil yanvarda B) 1924-yil fevralda
- C) 1933-yil yanvarda D) 1935-yil martda

44. Germaniyada SS otryadlari qanday vazifalarni bajargan?

- A) SS otryadlari davlatni qo'riqlaydigan otryad bo'lib, chegaralarda alohida qirg'inlar uyushtirgan
- B) SS faqat nemis mafkurasi bo'lib, u Gitlarning "Mayn Kampf" asarida bayon etilgan mafkuraga asoslanadi
- C) o'zgacha fikrlaydigan odamlarni ta'qib qilish, qirish, ommaviy qirg'in o'tkazish bilan mashg'ul bo'lgan
- D) bu tashkilot Germaniyaning razvedkachi idorasi bo'lib, urushayotgan mamlakatlarda razvedka ishlarini olib borgan

45. 1921-yil 3-avgustda Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) va Umumiy mehnat konfederatsiyasi(UMK)ning katta xatoga yo'l qo'yishining sababi nima edi?

- A) Mehnat va sarmoyaning samarali o'zaro ta'siri natijasida Italiyani yagona korporatsiyaga aylantirish
- B) "Fashi di kombattimento" uyushmasiga a'zo bo'lishi
- C) Fashist rahbariyati bilan "totuvlik pakti"ni imzolanishi
- D) Vatikan bilan Mussolini o'rtasidagi shartnomaga qo'shilishi shahrini Gitlarga topshirishlari

46. Gitleryugend so'zining mohiyati nima?

- A) Germaniyadagi natsistlar partiyasi ostida faoliyat ko'rsatgan yoshlar tashkiloti

- B) 1930 yil sentyabrda fashizmga qarshi kurash ittifoqi
- C) 1932 yil fashistlarga qarshi aksiya harakati
- D) Germaniyasidagi davlat maxfiy politsiyasi

47. I jahon urushidan so‘ng Germaniya sotsial-demokratik partiyasi o‘ng oqimi qanday siyosat yurgizdi?

- A) “Spartak” guruhi vakillari sifatida parlamentar respublikani o‘rnatish siyosatini
- B) Ebert, Sheydeman, Bernshteyn, Noskelarning tinchlik va parlament o‘rnatish siyosatini
- C) K.Kautskiy, Karl Libknext hukumatni inqilobiy yo‘l bilan ag‘darib tashlash siyosatini
- D) “Spartak” guruhi yo‘nalishidagi prezident respublikasi o‘rnatish siyosatini

48. Yung rejasi qachon, qayerda qabul qilindi?

- A) 1929-yil London konferensiyasida
- B) 1928-yil Vashingtonda
- C) 1925-yil Lokarno konferensiyasida
- D) 1929-yil Gaaga konferensiyasida

49. Yung rejasiga ko‘ra

- A) Germaniya dastlab yiliga 2 mlrd. markadan reparatsiya to‘lashi, keyinchalik bu raqam 1 mlrd markaga tushirilishi lozim edi
- B) Germaniya to‘laydigan har yilgi reparatsiya 2 mlrd. marka miqdorida chegaralandi, reparatsiyaning umumiy miqdori kamaytirildi
- C) Germaniya dastlab yiliga 3 mlrd. markadan reparatsiya to‘lashi, 1934-yilda reparatsiya to‘lab bo‘linishi lozim edi
- D) Germaniya to‘laydigan har yilgi reparatsiya 3 mlrd. marka miqdorida chegaralandi, reparatsiyaning umumiy miqdori kamaytirildi

50. Germaniyada 1934-yil 30-iyun tunda SAning yuksak lavozimdagi barcha rahbarlari o‘ldirilgan tun nima deyiladi?

- A) “Qora qilich tuni” B) “Uzun pichoqlar tuni”
- C) “Uchinchi reyxs tuni” D) “Po‘lat bitim kechasi”

51. Germaniya va Yaponiya “Kominternga qarshi bitim”ni imzolagan vaqtni aniqlang.

- A) 1939 yil 22-sentyabr B) 1938-yil 12-mart
C) 1936 yil 25-noyabr D) 1941 yil 4-dekabr

52. Birinchi jahon urushi natijasida Germaniya to‘lashi lozim bo‘lgan reparaatsiya qachon to‘xtatib qo‘yildi?

- A) 1931-yil B) 1933-yil C) 1932-yil D) 1934-yil

53. “Reyn kafolat pakti” nechanchi yil imzolangan?

- A) 1927-yil B) 1936-yil C) 1925-yil D) 1929-yil

54. Ikkinchi jahon urushi oralig‘ida Germaniya qaysi davlatning qo‘llab-quvvatlashi natijasida xavfsizlik tizimi doirasida tenglik huquqini qo‘lga kiritdi.

- A) AQSH B) Angliya C) Italiya D) Rossiya

IV BOB. 1918 -1945 YILLARDA ITALIYA

1. Birinchi jahon urushidan so‘ng Turkiyaga qarashli Dodekanes oroli qaysi davlatga berildi?

- A) Belgiya B) Fransiya C) Italiya D) Angliya

2. Birinchi jahon urushidan keyin qaysi davlatga Fransiya harbiy-dengiz flotiga teng flotga ega bo‘lish huquqi berildi?

- A) AQSHga B) Yaponiyaga C) Belgiyaga D) Italiyaga

3. Birinchi jahon urushidan keyin Italiya o‘zi da’vo qilgan qaysi hududlarni ololmadi?

- A) Triest porti, Adriatika dengizi sohilidagi yerlar
B) Dalmatsiya, Valoniya, Simerna

- C) Janubiy Tirol, Dodekanes oroli
- D) Dalmatsiya, Triest oroli, Janubiy Tirol

4. Italiyada Orlando nechanchi yillarda bosh vazir lavozimida faoliyat olib borgan?

- A) 1917-1919-yillar B) 1918-1920-yillar
- C) 1915-1919-yillar D) 1914-1918-yillar

5. 1918-yil Italiya Rossiyaning qaysi hududlariga qo'shin kiritgan?

- A) Uzoq Sharq va Janubiy Sibir
- B) Arxangelsk, Ukraina, Bessarabiya
- C) Armaniston va Ozarbayjon
- D) Odessa, Murmansk, Vladivostok

6. Italiya bosh vaziri Orlando iste'foga chiqqach, bosh vazirlik lavozimini kim egalladi?

- A) Jollitti B) Mussolini C) Nitti D) Alchido de Gasperi

280. Mussolini va Vatikan o'rtasida nechanchi yil shartnoma imzolandi?

- A) 1929-yil B) 1931-yil C) 1923-yil D) 1936-yil

7. Mussolini qaysi shartnomani "Yevropa uning atrofida birlashsa arziydigan ahdnoma" deb atadi?

- A) "Antikomintern pakti"ni B) "Po'lat bitim"ini
- C) "Myunxen shartnomasi"ni D) "Lokarni bitimi"ni

8. 1937-yilga kelib Italiya

- A) Albaniyaga hujum boshladi
- B) industrial-agrar davlatga aylandi
- C) Albaniyani butunlay bosib oldi
- D) agrar-industrial davlatga aylandi

9. Italiya qiroli Viktor-Emmanuel III ga telegramma jo'natib, undan hokimiyatni Mussoliniga topshirishni talab qilgan shaxslar qaysi tashkilot rahbarlari edi?

- A) "Katta fashist kengashi" partiyasi
- B) "Fashi di kombattimento" tashkiloti
- C) "Matmak suplias" sanoat korxonasi
- D) "Sanoat bosh konfederatsiyasi"

10. Quyidagi qaysi davlatda "Katta fashist kengashi" deb atalgan tashkilot faoliyat yuritgan?

- A) Ispaniyada B) Italiyada C) Fransiya D) Ruminiya

11. 1923-yil Gresiyaga qarashli bo'lgan Korfu orolini qaysi davlat bosib olgan?

- A) Italiya B) Yugoslaviya C) Turkiya D) Angliya

12. 1924-yil Yugoslaviyaga qarashli Fiuma porti qaysi davlat ixtiyoriga o'tdi?

- A) Fransiya B) Chexoslovakiya C) Italiya D) Ruminiya

12. Duche qaysi shaxsning unvoni bo'lgan?

- A) Gitlerning B) Frankoning
- C) Antoneskuning D) Mussolinining

13. Barcha zarur mahsulot turlari bilan o'zini-o'zi ta'minlaydigan xo'jalikning mohiyatiga muvofiq keluvchi atamani aniqlang.

- A) totalitarizm B) avtarkiya C) aparteid D) moratoriy

14. I jahon urushidan so'ng g'oliblar ichidagi mag'lub davlatni aniqlang.

- A) Ispaniya B) Fransiya C) Angliya D) Italiya

15. Birinchi jahon urushidan so'ng Italiya iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlaridan birini aniqlang.

- A) qishloq xo'jaligining nihoyatda qoloq ekanligi

- B) qishloq xo'jaligidagi o'ziga xos rivojlanish
- C) engil sanoatning yangicha o'zgartirishlarga muhtoj bo'lib qolganligi
- D) avtomobil ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi

16. XX asrning 30-yillarida Sanoatni qayta qurish instituti qaysi davlatda tuzilgan?

- A) Fransiyada B) Germaniyada C) Italiyada D) Angliyada

17. 1937-yil Italiya...?

- A) "Berlin-Rim o'rtasidagi pakti"ga qo'shildi
- B) "Rim pakti" ga qo'shildi
- C) "Po'lat pakti"ga qo'shildi
- D) "Antikomintern" bitimiga qo'shildi

18. Birinchi jahon urushidan keyin nega Italiyani "g'oliblar o'rtasidagi mag'lub mamlakat" deb atashgan?

- A) Italiya faqat janubiy Tirol va Adriatika sohilidagi Triest portini olishga muvassar bo'ldi
- B) Italiya faqat Eyphen va Malmedi okruglarini qo'lga kiritdi
- C) Italiya faqat Transilvaniyani olishga erishdi
- D) Italiya faqat Dardanell bo'g'ozi ustidan nazorat o'rnatishga erishdi

19. Ikkinchi jahon urushi arafasida Italiya nechanchi yil Efiopiyani o'z mustamlakasiga aylantirdi?

- A) 1936-yil B) 1935-yil C) 1938-yil D) 1939-yil

V BOB. 1918 -1945 YILLARDA SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKALAR ITTIFOQI (SSRI)

1. "Kichik Antanta" tashkiloti qaysi davlatlarga qarshi qaratilgan edi?

- A) Germaniya va Rossiya B) Angliya va Rossiya

C) Germaniya va Italiya D) Fransiya va Rossiya

2. Bir yilda sodir bo'lgan voqealarni belgilang.

A) Fransiya Germaniya bilan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzoladi; Italiyada fashistik rejim yakson bo'ldi;

B) Ispaniyada monarxiyaning ag'darilishi va Italiyada fashizmning paydo bo'lishi

C) Rossiyada yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi va Kronshtatda dengizchilar qo'zg'oloni

D) Markaziy Osiyoda ilk oliy o'quv yurtining ishga tushirilishi; Italiyada "qizil ikki yillik"ning yakunlanishi

3. 1930-yilda sobiq ittifoq respublikalarida boshlangan yoppasiga kollektivlashtirish ...

A) Kooperativ harakatini kuchaytirib yubordi.

B) Kommuna va artellarning ommalashuviga olib keldi.

C) Kolxozlarda ommaviy pudratning ahamiyatini kuchaytirdi.

D) Dehqonlarda norozilik tug'dirib, ularning chiqishlariga sabab bo'ldi.

4. 1921-yil mart oyida Rossiya-Polsha tinchlik shartnomasiga ko'ra, Polsha qaysi hududlarga ega bo'ldi?

A) Latviya va Estoniyaning janubiy qismi

B) Ukraina va Belorussiyaning g'arbiy qismi

C) Litva va Bessarabiya hududi

D) Shimoliy Kavkaz va Janubiy Ukraina

5. Qizil Armiya qo'shinlari Vladivostok shahrini egallagan yilni aniqlang?

A) 1920-yil B) 1919-yil C) 1921-yil D) 1922-yil

6. Rossiyada fuqarolar urushi yillarida faoliyat olib borgan oq gvardiyachilar nima sababdan chekka o'lkalardagi aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

A) Ular faqat rus xaqi manfaatini himoya qilganligi uchun

- B) Oq gvardiyachilarning aksariyati sobiq imperator tarafdorlari bo'lganliklari uchun
- C) Oq gvardiyachilar Rossiya hududining bo'linmasligini e'lon qilganligi uchun
- D) Chekka o'lkalardagi qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish urush tufayli inqirozga uchraganligi sababli

7. Turkiston o'lkasidagi Sovet davlatiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari qachon va qayerda boshlangan?

- A) 1918-yil fevralda Farg'onada
- B) 1918-yil aprelda Buxoroda
- C) 1919-yil mayda Farg'onada
- D) 1920-yil sentabrda Xorazmda

8. Turkiston o'lkasida Sovet davlatiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari nechanchi yilgacha davom etdi?

- A) 1931-yilgacha B) 1935-yilgacha
- C) 1933-yilgacha D) 1938-yilgacha

9. Sovet davlatida mahsulotlarni taqsimot asosida berish bekor qilingan yilni aniqlang?

- A) 1923-yil B) 1922-yil C) 1921-yil D) 1924-yil

10. SSRI tashkil topgan sanani aniqlang.

- A) 1920-yil 15-dekabr B) 1922-yil 31-mart
- C) 1923-yil 23-may D) 1922-yil 30-dekabr

11. SSRI qaysi respublikalar negizida tashkil etilgan?

- A) Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Boltiqbo'yi davlatlari
- B) Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Boltiqbo'yi davlatlari
- C) Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Zakavkaze respublikalari
- D) Rossiya va O'rta Osiyo respublikalari

12. Sobiq SSSR davlatining bayrog‘i nima sababdan qizil rang qilib tanlangan edi?

- A) Sovet davlati qon to‘kish evaziga vujudga kelganligi uchun
- B) Sovet davlatidagi mehnatkash aholi qizil rang timsoli bo‘lganligi uchun
- C) Ittifoqdosh respublikalarning barchasi bayrog‘ida qizil rangning mavjud bo‘lganligi uchun
- D) Harbiy qo‘shin qizil kiyimda bo‘lganligi uchun

13. Sovet hukumati XX asrning 20-yillarida sotsializim qurish rejasini ishlab chiqqan bo‘lib, u qaysi qismlardan iborat bo‘lgan?

- A) Mamlakatni industrilashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, madaniy inqilob
- B) Kasaba uyushmalarini tashkil etish, yer islohoti, kollektivlashtirish
- C) Mamlakatdagi barcha mulklarni xususiyashtirish, oziq-ovqat diktaturasini o‘rnatish, yangi iqtisodiy siyosat
- D) Harbiy kommunizm, yangi iqtisodiy siyosat, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish

14. Germaniya nechanchi yilda Millatlar Ittifoqiga qabul qilindi?

- A) 1933-yil B) 1934-yil C) 1926-yil D) 1928-yil

15. 1937-yilga kelib qaysi davlat sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘ringa chiqib oldi.

- A) Angliya B) Germaniya C) Fransiya D) Rossiya

16. Buyuk davlatlar o‘rtasida “Siyosatda urushdan voz kechish va barcha kelishmovchilik hamda nizolarni tinch vositalar yordamida hal etish to‘g‘risida” shartnoma imzolagan yilni aniqlang?

- A) 1928-yil B) 1932-yil C) 1935-yil D) 1925-yil

17. SSRIda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish jarayonida jami qancha odam quloq qilindi?

- A) 7 mln. B) 9 mln. C) 12 mln. D) 35 mln.

18. Sovet davlatining dastlabki yillarida mamlakat aholisining necha foizini ziyolilar tashkil qilgan?

- A) 7,2 % B) 4,6 % C) 10 % D) 2,2 %

19. Glavlit nima?

- A) Rossiyada 1922-yilda tuzilgan alohida senzura organi
B) Ukraina o‘rmonlarida tashkil etilgan quloqlar konslageri
C) 1922-yil Rossiyada boshlangan elektrlashtirish kompaniyasi
D) Rossiyada yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish ustidan nazorat qiluvchi oliy organ

20. Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish davrida O‘zbekistonda quloq qilinganlarning katta qismi qayerga surgun qilindi?

- A) Janubiy Sibir dashtlariga
B) Belorussiyaning Gomel viloyatiga
C) Ukrainaning Xerson viloyatiga
D) Ukrainaning Xarkov viloyatiga

21. 1927-yilga kelib Sovet Rossiyasida qancha insitut va universitetlar faoliyat olib borgan?

- A) 98 ta B) 148 ta C) 135 ta D) 123 ta

22. 1921-yil Rossiyada qaysi oliy o‘quv yurti ochildi?

- 1) Mafkura kadrlarini tayyorlovchi kommunistik universitet; 2) K.Marks va F.Engels instituti; 3) Qizil professorlar instituti; 4) Lenin instituti; 5) Sharq mamlakatlarining kommunistik instituti
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 5 C) 1, 4 D) 2, 4

23. Sobiq SSSRda nechanchi yil umumiy majburiy boshlang‘ich ta’lim joriy etildi?

- A) 1932-yil B) 1928-yil C) 1930-yil D) 1934-yil

24. Sobiq SSSRda 10 yillik ta’lim tizimi joriy etilgan yilni toping?

- A) 1932-yil B) 1930-yil C) 1935-yil D) 1934-yil

25. SSRI da kommunistik mafkuraning to'la qaror topishi qaysi davrga to'g'ri keladi.

- A) XX asrning 50-yillarida
- B) XX asrning 30-yillari oxirida
- C) XX asrning 20-yillari oxirida
- D) XX asrning 40-yillari o'rtalarida

26. SSRI va AQSH o'rtasidagi diplomatik munosabatlari nechanchi yilda o'rnatilgan edi?

- A) 1930-yil B) 1928-yil C) 1982-yil D) 1933-yil

27. SSRI va Fransiya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim qachon imzolandi?

- A) 1936-yil B) 1934-yil C) 1937-yil D) 1935-yil

28. Qaysi voqeadan keyin dunyoning bir-biriga dushman bo'lgan ikki qutbga bo'linish barham topdi?

- A) Ikkinchi jahon urushining yakunlanishidan keyin
- B) Berlin devorining qulashidan so'ng
- C) Sovet davlatining qulashidan so'ng
- D) BMTning tashkil etilishidan so'ng

29. Germaniya va Sovet davlati o'rtasida barcha da'volardan, qarz va tovonlardan ham voz kechish haqidagi shartnoma qachon va qayerda imzolangan?

- A) 1925-yil avgustda Lokarnoda
- B) 1921-yil mayda Londonda
- C) 1922-yil aprelda Rapalloda
- D) 1924-yil uyulda Parijda

30. Lokarno konferensiyasidan norozi bo'lgan Rossiya o'z chegaralari xavfsizligi bo'yicha qaysi davlatlar bilan betaraflik to'g'risida shartnoma imzoladi?

- A) Fransiya, AQSH, Yaponiya, Xitoy
- B) Eron, Turkiya, Germaniya, Yaponiya

- C) AQSH, Angliya, Turkiya, Eron
- D) Germaniya, Turkiya, Litva, Afg'oniston

31. 1918-yilning oxiriga kelganda Rossiyadagi savxozlar soni qanchani tashkil qilgan?

- A) 2,5 mln.ga yaqin B) 4 mln.dan ortiq
- C) 3 mln.dan ortiq D) 1,5 mln. atrofida

32. 1918-yil Yevropa davlatlarining Rossiyaga intervensiyalari paytida Ruminiya qaysi hududni bosib oldi?

- A) Ukrainani B) Bessarabiyani C) Latviyani
- D) Shimoliy Belarussiyani

33. Rossiyada oziq-ovqat diktaturasi qachon o'rnatildi?

- A) 1918-yil yanvardan B) 1919-yil yanvardan
- C) 1918-yil maydan D) 1919-yil fevraldan

34. Rossiyada oziq-ovqat diktaturasi joriy etilgan paytda o'z g'allasining ortiqcha qismini davlatga topshirmay, uni bekitganlarga qanday jazo qo'llangan?

- A) 10 yil ozodlikdan mahrum etish, mol-mulkini musodara qilish
- B) 20 ming rubl jarima to'lash yoki 15 yil ozodlikdan mahrum etish
- C) 10 rubl jarima yoki 20 yil ozodlikdan mahrum etish
- D) 15 yil ozodlikdan mahrum etish, mol-mulkini musodara qilish

35. 1918-yil oxiriga kelib Rossiyada qizil armiya soni qanchaga etdi?

- A) 500 ming B) 1 mln. C) 800 ming D) 650 ming

36. Quyidagi qaysi davlat hukmati o'z davlatini "yagona harbiy lager" deb atagan edi?

- A) Italiya fashistlar davlati
- B) Rossiya Sovet davlati
- C) Germaniya natsistlar davlati
- D) Braziliya Qo'shma Shtatlari

37. Lokarno bitimi qachon imzolandi?

A) 1926-yil B) 1922-yil C) 1925-yil D) 1921-yil

38. 1920-yil yozida Rossiya Polsha davlatini magʻlub etgandan soʻng, Polshada Sovet davlatini barpo qilishga intiladi. Boʻlajak Polsha Sovet davlati hukumatiga kim rahbarlik qilishi kerak edi?

A) Janubiy-gʻarbiy front qoʻmondoni A.Yegorov
B) Butunrossiya favqulodda komissiyasi raisi F.Dzerjinskiy
C) Gʻarbiy front qoʻmondoni M.Tuxachevskiy
D) Janubiy front qoʻmondoni E.Miller

39. SSRIda 1921-yi joriy qilingan Yangi iqtisodiy siyosatning (NEP) asosiy yoʻnalishlarini kim ishlab chiqqan edi?

A) V.Lenin B) M.Lorin C) P.Vrangel D) E.Miller

40. Rossiyadagi fuqarolar urushi va chet el intervensiyasiga qarshi kurashda bolsheviklar gʻalabasining asosiy sababi nima edi?

A) bolsheviklarning oʻta qattiqqoʻllik, zoʻravonlik asosida aholini jazolashi
B) bolsheviklarning ayrim kuchli davlatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi
C) bolsheviklarning mamlakat aholisining asosiy qismi boʻlgan mayda va oʻrtahol dehqonlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi
D) bolsheviklarning yirik burjuaziya va monopoliya egalari tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi

VI BOB. 1918 -1945 YILLARDA AMERIKA QOʻSHMA SHTATLARI (AQSH)

1. 1920-yil AQSH da butun dunyoda ishlab chiqarilgan neftning qanchasi ishlab chiqarildi?

A) 47 % B) 67 % C) 71 % D) 80 %

2. “Baltimor-Ogayo” deb nomlangan reja qaysi davlatda qabul qilingan?

A) Fransiyada B) Italiyada C) Ispaniyada D) AQSHda

3. AQSH hukumati 1918-yilda qabul qilgan “Da’vatkorlik to’g’risidagi hujjat”ga ko’ra, mamlakatdagi mavjud tuzum to’g’risida bildiriladigan har qanday salbiy fikrlar jinoyat, deb e’lon qilindi. Shunga binoan, mamlakatning qancha aholisi jazolarga mahkum etildi?

A) 2 mingdan ortiq B) 9 mingga yaqin
C) 10 mingdan ortiq D) mingga yaqin

4. Qaysi mamlakatda kasaba uyushmalari harakatining faollari bo’lgan Sakko va Vansetti ishi amalga oshirilgan edi?

A) Kubada B) Italiyada C) Chilida D) AQSHda

5. Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishning Yevropacha yo’li – bu ...

A) ijtimoiy muammolarni ijtimoiy islohotlar yo’li bilan hal etish
B) tadbirkorlik faoliyatini yanada o’stirish orqali mulkdorlarni yanada boyitish
C) boylikning katta qismini ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflash
D) yerga ishlov berishning yangi shakllarini joriy etish orqali mayda dehqonlar ishini yengillashtirish

6. AQSHda 1927-yili ... dona avtomobil ishlab chiqarildi.

A) 10 mln. B) 28 mln. C) 7 mln. D) 9 mln.

7. Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishning Amerikacha yo’li – bu ...

A) ijtimoiy muammolarni ijtimoiy islohotlar yo’li bilan hal etish
B) tadbirkorlik faoliyatini yanada o’stirish orqali mulkdorlarni yanada boyitish va boylikning bir qismini ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflash
C) ishsizlar sinfini korxonalar tashkil etish orqali yo’qotish
D) yerga ishlov berishning yangi shakllarini joriy etish orqali mayda dehqonlar ishini yengillashtirish

8. “Buyuk depressiya” davrida AQSHdagi banklarning qanchasi kasodga uchradi?

A) 10 ming B) 5 ming C) 15 ming D) 3 ming

9. Tarixda “yangi ijtimoiy falsafa” deb nom olgan hodisa qaysi davlatda vujudga kelgan edi?

A) Fransiya B) Rossiya C) AQSHda D) Buyuk Britaniya

10. XX asrning birinchi yarmida “Halol raqobat kodeksi” deb nomlangan hujjat qaysi davlatda ishlab chiqilgan edi?

A) Fransiya B) Rossiya C) AQSHda D) Buyuk Britaniya

11. XX asrning 20-yillariga qadar Lotin Amerikasiga sarmoya joylashtirish bo'yicha birinchi o'rinda turgan davlatni aniqlang.

A) Fransiya B) Rossiya C) AQSH D) Buyuk Britaniya

12. XX asrning 20-yillari oxiriga kelib Lotin Amerikasiga sarmoya joylashtirish bo'yicha birinchi o'ringa chiqib olgan davlatni aniqlang.

A) AQSH B) Rossiya C) Fransiya D) Buyuk Britaniya

13. Nechanchi yilda AQSH tarixida birinchi marta ijtimoiy sug'urtalash haqida qonun qabul qilindi?

A) 1929-yil B) 1936-yil C) 1935-yil D) 1932-yil

14. AQSHning qaysi prezidenti talabi bilan 1921-1922-yillardagi Vashington konferensiyasi chaqirilgan edi?

A) G. Guver B) U. Garding C) K. Kulij D) V. Vilson

15. 1928-yilga kelganda Lotin Amerikasining nechta davlati AQSHga moliyaviy qaram bo'lib qoldi?

A) 20 ta B) 11 ta C) 9 ta D) 14 ta

16. AQSH Kongressi qachon “Fermerning yordam haqida”gi qonunni qabul qildi?

- A) 1935-yil 18-iyulda B) 1932-yil 7-martda
C) 1933-yil 12-mayda D) 1936-yil 11-iyulda

17. 1930-yil Londonda o'tkazilgan konferensiyada qaysi davlat harbiy-dengiz floti Buyuk Britaniyaniki bilan bir xil qudratga ega bo'lishi to'g'risida qaror qabul qilindi?

- A) AQSH B) Rossiya C) Fransiya D) Germaniya

18. AQSH tarixida kim to'rt marta ketma-ket prezidentlikka saylangan yagona shaxs hisoblanadi?

- A) T. Ruzvelt B) U. Garding C) F. Ruzvelt D) V. Vilson

19. Birinchi jahon urushidan so'ng qaysi davlatning iqtisodiy va siyosiy pozitsiyasi birdaniga kuchaydi?

- A) Rossiyaning B) Germaniyaning C) Fransiyaning D) AQSHning

20. AQSHda o'zgacha fikrlovchilarga qarshi kurashni qonunlashtiruvchi "Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat" qachon qabul qilindi?

- A) 1918-yil B) 1921-yil C) 1931-yil D) 1923-yil

21. XX asrning 20-yillarida AQSH tashqi siyosatida ikki yo'nalish izolyasionalizm va internatsionalizm tarafdorlari o'rtasida doimiy kurash jarayoni bordi. Izolyasionistlar qanday tadbirlarning tarafdorlari edilar?

A) AQSHning birinchi navbatda tashqi muammolar bilan shug'ullanishi tarafdorlari edilar

B) AQSHning qimmat turuvchi tashqi siyosiy tadbirlarga pul va mablag' sarflamasligi lozimligining tarafdorlari edilar

C) AQSHning eng avvalo ichki muammolar bilan shug'ullanish tarafdorlari edilar

D) Amerika qit'asidagi barcha davlatlarni birlashtirish tarafdorlari

22. AQSH hukumati "Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat"ni e'lon qiladi. Mazkur hujjatga ko'ra hibsga olingan shaxsga nisbatan qanday jazo qo'llangan?

- A) 15 ming dollar jarima yoki 18 yil muddatga qamoq jazosi

- B) 20 ming dollar jarima yoki 10 yil muddatga qamoq jazosi
- C) 3 ming dollar jarima yoki 8 yil muddatga qamoq jazosi
- D) 10 ming dollar jarima yoki 20 yil muddatga qamoq jazosi

23. AQSH sanoatidagi xususiy mulkdorlikni qoralovchi har qanday da'vatlar man etilgan yilni aniqlang.

- A) 1914-yilda B) 1915-yilda C) 1916-yilda D) 1919-yilda

24. AQSHda e'lon qilingan "Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat"ning maqsadini aniqlang.

- A) hukumatga qarshi noroziliklarni bostirish bo'lgan
- B) monopoliyalarni hokimiyatni egallashini yo'qqa chiqarish bo'lgan
- C) Rim papalari bilan ittifoq tuzish bo'lgan
- D) mamlakatning iqtisodini rivojlantirish bo'lgan

25. F. Ruzveltning "Yangi yo'l" siyosatidagi asosiy maqsadi nima edi?

- A) Iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan boshqarilishini joriy etish orqali mamlakatni inqirozdan olib chiqish
- B) Iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlariga davlatning aralashuvisiz mamlakatni inqirozdan olib chiqish
- C) Davlat iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini maksimal darajada kiritish orqali davlatni inqirozdan olib chiqish
- D) Harbiy sohani rivojlantirish orqali boshqa davlatlarga o'z bosimini o'tkazish

26. AQSHda Kongressi "betaraflik to'g'risida" qonun qabul qildi. Bu voqea qachon sodir bo'ldi?

- A) 1935-yil B) 1936-yil C) 1937-yil D) 1938-yil

27. AQSH Kongressi "betaraflik to'g'risida" qonun qabul qildi. Bu qonunga ko'ra ...

- A) AQSH Tinch okeani hududidagi urushlarga aralashmaydigan bo'ldi
- B) Angliya va Fransiyadan tashqari boshqa davlatlarga harbiy ko'mak bermaydigan bo'ldi

- C) urush boshlangudek bo'lsa, tomonlarga faqat harbiy texnika bilan yordam ko'rsatishi belgilandi
- D) prezident urushga qatnashuvchi davlatlarga qurol sotishni taqiqlash huquqiga ega bo'ldi

28. 1935-yili AQSH Kongressi Vagner qonunini qabul qildi. Unga muvofiq...

- A) soliqlar kamaytirildi, davlat banklari kichik korxona egalariga kreditlar berdi
- B) ishchilar jamoa shartnomasini tuzish va ish tashlash huquqlariga ega bo'ldilar
- C) ishchilar jamoa shartnomasini tuzish va xohlagan vaqtda ishdan ketish huquqiga ega bo'ldilar
- D) keksalarni himoyalash va ishsizlik bo'yicha kompensatsiya to'lanadigan bo'ldi

29. AQSH Kongressi 1935-yilda keksalarni moddiy ta'minlash, ishsizlik bo'yicha kompensatsiyalar to'lash ko'zi ojizlarga, nogironlarga, yolg'iz onalarga va yetimlarga yordam berishni ko'zda tutgan qanday qonun qabul qildi?

- A) Ijtimoiy sug'urtalash haqida
- B) iqtisodiy rivojlanish to'g'risidagi qonun
- C) Da'vatkorlik to'g'risidagi qonun
- D) Vagner qonuni

30. AQSHda Kongressi "betaraflik to'g'risida" qonun qabul qildi. Bu qonunga ko'ra harbiy qurollar sotilmaydiga davlatlar ro'yxatiga quyidagi qaysi davlatlar kiritilmagan edi?

- A) Angliya va Rossiya B) Germaniya va Italiya
- C) Fransiya va Angliya D) Germaniya va Yaponiya

31. AQSHning Versal shartnomasiga munosabati qanday bo'lgan?

- A) AQSH Versal shartnomasi bandlarini tuzib berdi, lekin uni tasdirlashni ortga surdi
- B) AQSH Versal shartnomasini tasdiqladi

C) AQSH Versal shartnomasini tasdiqlash va Millatlar Ligasiga kirishdan bosh tortdi

D) AQSH Versal shartnomasining bandlariga qo'shildi hamda tasdiqladi va Millatlar Ligasiga a'zo bo'lishini keyinga surdi

32. AQSHda iqtisodiy inqiroz illarida ishsizlarning Vashingtonga yurishlari nima deyiladi?

A) "Non isyonlari"

B) "Ocharchilik yurishlari"

C) "Norozilik yurishlari"

D) "Ish tashlashlar yurishlari"

33. Birinchi jahon urushidan so'ng 20 ta Yevropa davlati AQSH dan qancha qarz bo'lib qolgan?

A) 10 mlrd. \$ B) 9 mlrd. \$ C) 13 mlrd. \$ D) 4 mlrd. \$

34. 1920-yil AQSH da butun dunyoda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning qanchasi yaratildi?

A) 47 % B) 34 % C) 43 % D) 13 %

35. XX asr 20-yillarida AQSH da dunyodagi jami avtomobillarning qanchasi ishlab chiqarildi?

A) 80 % B) 35 % C) 45 % D) 28 %

36. G.K.Guver AQSHda nechanchi yillarda prezident bo'lgan?

A) 1930-1934-y. B) 1928-1932-y.

C) 1924-1928-y. D) 1923-1927-y.

VII BOB. 1918 -1945 YILLARDA LOTIN AMERIKA MAMLAKATLARI

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin Lotin Amerikasining qaysi davlatida butun hokimiyatni amalda qahva oligarxiyasi qo'lga oldi?

A) Kuba B) Braziliya C) Peru D) Venusiela

2. Ikkinchi jahon urushidan keyin Lotin Amerikasining qaysi davlatlari iqtisodiy jihatdan nisbatan taraqqiy etgan davlatlar edi?

- A) Argentina, Chili, Urugvay B) Braziliya, Kuba, Paragvay
C) Peru, Argentina, Kolumbiya D) Nikaragua, Gonduras, Salvador

3. XX asrning birinchi yarmida I. Irigoen qaysi davlatda liberal islohotlarni amalga oshirgan?

- A) Braziliyada B) Chilida C) Kubada D) Argentinada

4. F. Ruzvelt AQSH prezidenti etib saylangach, birinchi ishni ...

- A) “Sanoatni qayta tiklash to‘g‘risidagi” qonunni qabul qilishdan boshladi
B) “Halol raqobat kodeksi” deb atalgan hujjatni imzolashdan boshladi
C) banklarni saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlardan boshladi
D) fermerlarga davlat byudjetidan katta miqdorda pul ajratishdan boshladi

5. 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi nima sababdan Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiyotiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi?

- A) bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti chet el bozoriga bog‘liq bo‘lganligi va xorijiy kapitalga qaramligi
B) bu davlatlarning faqatgina qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarganligi
C) bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti AQSH ning kapitaliga qaramligi
D) bu davlatlarning iqtisodiyotida natural xo‘jalikning ustun bo‘lganligi

6. AQSHning qaysi prezidenti Lotin Amerikasi davlatlari bilan “yaxshi qo‘shnichilik” siyosatini e’lon qilgan?

- A) V. Vilson B) U. Garding C) K. Kulij D) F. Ruzvelt

7. AQSHning qaysi prezidenti Lotin Amerikasiga nisbatan intervensiyadan voz kechganligi hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligi haqida bayonot bergan?

- A) V. Vilson B) U. Taft C) T. Ruzvelt
D) F. Ruzvelt

8. XX asr boshida Germaniya sarmoyasi Lotin Amerikasining qaysi davlatlari iqtisodiyotiga joylashtirilgan edi?

- A) Argentina, Braziliya, Chili, Paragvay
B) Kolumbiya, Ekvador, Kuba, Gaiti
C) Gvatemala, Peru, Venusuela, Kuba
D) Braziliya, Meksika, Panama, Kosta-Rika

9. Germaniya fashistlari Lotin Amerikasida ham fashistik tashkilotlar tuzishga urindilar. Ularning rejasiga ko'ra, qaysi davlatlar fashizm ekspansiyasining Lotin Amerikasidagi tayanchlari bo'lishi kerak edi?

- A) Peru va Chili B) Argentina va Braziliya
C) Ekvador va Peru D) Paragvay va Urugvay

10. Quyidagi qaysi davlatda 1930-yil davlat to'ntarilishi amalga oshirilishi natijasida J. Vargas diktaturasi o'rnatildi?

- A) Argentinada B) Meksikada C) Kubada D) Braziliyada

11. Braziliyada 1935-yil fashizmga qarshi kurash kurash maqsadida tuzilgan tashkilotni aniqlang.

- A) "Braziliya milliy harakati kengashi"
B) "Buyuk ozodlik fronti"
C) "Xalq fronti umumbraziliya tashkiloti milliy ozodlik Alyansi"
D) "Vatanparvarlik ittifoqi"

12. Birinchi jahon urushidan keyin qaysi davlat bug'doy eksport qilish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib oldi?

- A) Argentina B) Braziliya C) Kanada D) Kosta-Rika

13. Birinchi jahon urushidan keyin qaysi davlat go'sht mahsulotlari eksporti bo'yicha birinchi chiqib oldi?

- A) Kanada B) Peru C) Kuba D) Argentina

14. Birinchi jahon urushidan keyin qaysi davlat bug‘doy eksport qilish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egalladi?

A) Argentina B) Braziliya C) Kanada D) Kosta-Rika

15. Qaysi davlatda general Xose F. Uriburu boshchiligida davlat to‘ntarishi o‘tkazildi?

A) Kanadada B) Meksikada C) Kubada D) Argentinada

16. Tarixga “Savedro Lamas pakti” nomi bilan kirgan hujjatning mohiyatini aniqlang.

A) Lotin Amerikasi davlatlari va AQSH o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik va yarashuv to‘g‘risida

B) Meksika neftini Lotin Amerikasi davlatlariga eksport qilish haqida

C) Lotin Amerikasi davlatlarining AQSH ekspansiyasini cheklashga oid shartnomasi

D) Argentinada cherkovning barcha mulklarini davlat mulkiga aylantirish haqida

17. 1917-yilning 5 fevralida qaysi davlatda demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi?

A) Braziliyada B) Kubada C) Argentinada D) Meksikada

18. 1938-yilning mart oyida Meksika hukumati qaysi sohani millilashtirish haqida qaror qabul qildi?

A) metal ishlab chiqarish sanoatini

B) neft sanoatini

C) toshko‘mir va gaz ishlab chiqarish sohasini

D) fan va maorif tizimini

19. Kubaning birinchi jahon urushida ishtiroki asosan qanday xizmatdan iborat bo‘ldi?

A) Yevropaga qand-lavlagi mahsulotlarini jo‘natishdan

B) Yevropaga tibbiy xizmat guruhlarini jo‘natishdan

C) Yevropaga kiyim-kechak jo‘natishdan

D) Yevropaga harbiy-texnika jo‘natishdan

20. XX asrning 20-yillarida Kuba eksportining 90 % ini qaysi mahsulot tashkil etgan?

A) kauchuk B) ko'mir C) qand D) qahva

21. 1933-yil Kubada prezidentlik lavozimiga saylangan San Martin asli ...

A) Gavana universiteti professori edi

B) Kubaning AQSHdagi elchisi edi

C) qahva oligarxiyasining rahbari edi

D) mamlakat bosh vaziri edi

22. XX asrning 30-yillarida F. Batista diktaturasi qaysi davlatda o'rnatilgan edi?

A) Kanadada B) Meksikada C) Kubada D) Argentinada

23. 1917-yilning 26-oktabrida Germaniyaga urush e'lon qilgan Lotin Amerikasi davlatini aniqlang.

A) Argentina B) Braziliya C) Kanada D) Kuba

24. Meksikada nechanchi yil ruhoniylarning siyosatga aralashuvini taqiqlovchi qonun kuchga kirdi?

A) 1926-yil B) 1928-yil C) 1933-yil D) 1919-yil

25. 1934-yilda qilgan Lotin Amerikasining qaysi davlatida "Agrar kodeks" kuchga kirdi?

A) Kanadada B) Meksikada C) Kubada D) Argentinada

26. 1917-yilning 17-aprelida Germaniyaga urush e'lon qilgan Lotin Amerikasi davlatini aniqlang.

A) Argentina B) Braziliya C) Kanada D) Kuba

27. XX asrning 20-yillariga kelib Kuba qandiga talabning kamayishiga sabab bo'lgan omilni aniqlang.

- A) Kubada boshqa turdagi sanoatning ham rivojlanishi
- B) Kubadagi qand ishlab chiqaruvchi zavodlarga AQSH monopoliyasining o'rnatilishi
- C) Yevropada qand ishlab chiqarishning ko'payishi
- D) Yevropa davlatlarining Sharq davlatlari bilan tuzgan manfaatli shartnomalari

28. 1931-yilgi Kubadagi norozilik harakatlari natijasida qaysi universitet yopib qo'yildi?

- A) Machado universiteti B) Mansanilo universiteti
- C) Guantanamo universiteti D) Gavana universiteti

29. Qaysi davlatda 1938-1940-yillarda Roberto Ortis prezidentlik lavozimida bo'ldi?

- A) Braziliyada B) Kubada C) Argentinada D) Meksikada

30. Ikkinchi jahon urushiga qadar Braziliyada qaysi yillarda konstitutsiya qabul qilingan?

- A) 1891, 1934-yillar B) 1889, 1933-yillar
- C) 1891, 1938-yillar D) 1888, 1928-yillar

40. Birinchi jahon urushi davrida Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sa boshlashiga sabab nima edi?

1) I-jahon urushida qatnashayotgan davlatlarda Lotin Amerikasi mamlakatlari xomashyosi va qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan talabning ortib ketganligi; 2) urush tufayli Yevropadan keltiriladigan tayyor mahsulotlar keskin kamayganligi; 3) jahon bozorida xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi ko'tarilganligi; 4) ishlab chiqarish texnikasining Yevropaga nisbatan zamonaviylashtirilganligi.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

GLOSSARIY

Absolyutizm - mutloq hokimlik, cheklanmagan hokimiyat.

Avantyurizm - osongina muvaffaqiyatga erishish, foyda olishni kuzlab, tavakkalchilik bilan qilingan xatti-harakat.

Agressiya - tajovuzkorlik, bosqinchilik, urush va hujum qilish, bostirib kirish.

Anarxiya - hokimiyasizlik, boshboshdoqlik, har qanday davlat hokimiyatini inkor etish.

Anarxo-sindikalizm - beboshlik, tartibsizlik, xalqaro ishchilar harakatidagi anarxizm ta'sirida bo'lgan kasaba uyushma og'machi oqimi.

Anneksiya - mag'lub davlat hududi bir qismining g'olib mamlakat tomonidan zo'ravonlik bilan qo'shib olinishi.

Antimilitarizm - militarizmga qarshi ijtimoiy oqim.

Antisemitizm - millatchilikning semit xalqi – yahudiylarga qarshi qaratilgan kurinishlaridan biri.

Barrikada - ko'chani to'sish, band qilish, ko'prik va tog' yo'llariga yog'och, qum, tuproq, qulatilgan daraxtlar bilan sun'iy to'siq qurish.

Blokada - qamal qilmoq, ajratib qo'yish, yakkalash. Siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan aloqa bog'lashiga imkon bermaslik.

Boykot - norozilik e'lon qilish, ijtimoiy kurash uchun biror shaxs, tashkilot yoki davlat bilan aloqani tamoman yoki qisman uzish, inkor qilish.

Burjuaziya - mulkdorlar va savdogarlar.

Burmistr - qishloqlarda tartib saqlovchi, dehqonlarning majburiyatini nazorat qiluvchi.

Garnizon - shahar yoki qal'ada doimiy yoki vaqtincha joylashgan harbiy qismlar, shtablar, harbiy o'quv yurtlari birlashmasi.

Gestapo - fashistlar Germaniyasidagi davlat maxfiy politsiyasi.

Gitleryugent - 1926-1945 yillarda Germaniyadagi fashistlarning yoshlar tashkiloti.

Gomindan - Xitoy milliy partiyasi.

GOERLO - Rossiya xalq xo'ligini tiklash va yuksaltirish yo'lidagi 10-15 yilga mo'ljallangan istiqbolli reja.

GULAG - ahloq tuzatish-mehnat lagerlari va qamoq joylari Bosh boshqarmasi.

Depressiya - ortiqcha ishlab chiqarish inqirozidan so'ng ro'y beradigan, iqtisodiyot turg'unligi.

Deputat - hokimiyat organlariga saylab qo'yilgan vakil.

Diktatura - huquqi cheklanmagan hokimiyat.

Diskriminatsiya - kamsitish, xo'rlash, past nazar bilan qarash.

Doktrina - o'rganish, ta'limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, siyosiy tizim.

Dominion - Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan, ingliz qirolini o'z rahbari deb e'tirof etuvchi davlatlar.

Duche - Italiyadagi fashistlar rahbarining unvoni.

Zabastovka, stachka - ish tashlash.

Imperiya - hokimiyat, davlat, imperator boshliq monarxiya davlati.

Imperator - hukmdor.

Immigratsiya - ko'chirib yuborilgan muhojirlar. Bir mamlakatga boshqa mamlakat fuqarosining vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelib joylashishi.

Immigrant - muhojir, o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga ketib yashovchi shahs.

Investitsiya - sarmoyaning biror bir korxona, ishiga uzoq muddatga joylashtirilishi.

Intervensiya – kuch ishlatish, bostirib kirish, tajovuz, bir davlatning ikkinchi bir davlat ichki ishlariga yoki uning uchinchi mamlakat bilan o'zaro munosabatlariga aralashuvi.

Inflyasiya - qog'oz pullarning qadrsizlanishi va real tovar taklifiga nisbatan muomilada ularning haddan tashqari ko'payib ketishi bilan bog'lik bo'lgan harid qobiliyatining pasayishi.

Istilo - bo'ysundirish, zabt etish.

Kartel - kapitalistik monopoliyalarning asosiy shakllaridan bo'lib, bir turli yoki bir-biriga o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi bir nechta korxona egalarining ittifoqi.

Kongress - uchrashuv, yig'ilish.

Koalitsiya - birlashgan, uyushgan ittifoq.

Koloniya - mustamlaka.

Konvensiya - bitim, shartnoma.

Konsenvator - saqlovchi.

Konstitutsiya - tuzum, qoida, qonun.

Konsern - aralashtirmoq, qorishtirmoq, monopoliya bo'lib birlashmoq.

Konsessiya - yon berish, ijozat berish.

Konservatorlar - u yoki boshqa o'zgarishga qarshilar.

Kontributsiya - boshqinchi tomonidan egallangan hududda aholidan majburiy yig'imlar, urushdan keyin mag'lub davlatning g'olib davlat foydasiga to'lovi.

Korporatsiya - birlashma, jamiyat va tashkilot, uyushma.

Korrupsiya - sotib olish, qonunsiz harakat qiluvchi amaldorlar ittifoqi.

Ku-kluks-klan - AQSHda reaksiya burjuaziya mablag' bilan ta'minlab turadigan fashistik terrorchi tashkilot.

Landtag - yer, mamlakat, yig'in.

Leyboristlar - Angliyadagi ishchilar partiyasi.

Liberalizm - siyosiy va g'oyaviy oqim.

Lokaut - kapitalistlarning ishchilarga qarshi kurash usuli.

Magistrat - boshqarma, hokimiyat.

Manifest - oliy hokimiyat tomonidan biror muhim masala yuzasidan xalqqa qarata qilingan tantanali murojaati.

Memorandum - eslab turish lozim bo'lgan narsa, davlatlar o'rtasidagi yozishmalardan biri.

Migratsiya - kuchuvchi, joyni o'zgartiruvchi.

Missiya - topshiriq, yuksak burch, mas'uliyatli vazifa.

Monarxiya - yakka hukmronlik.

Monopoliya - davlat, tashkilot yoki firmaning muayyan sohada yagona huquqi.

Moratoriy - xalqaro huquqda qaysidir harakatni ma'lum muddat amalga oshirmaslik yoki uni keyinga surish borasida davlatlar urtasida kelishuv.

Natsizm - Germaniya fashizmi nomlaridan biri.

OGPU - SSSR Komissarlar Kengashi huzurida 1923-1934 yillarda faoliyat kursatgan davlat xavfsizligini qo'riqlash idorasi.

Okkupatsiya - bosib olish, ishg'ol qilish.

Oligarxiya - ozchilkning hokimiyati.

Pangermanizm - nemis millatchilarining siyosiy harakati.

Panislomizm - islom dinida barcha xalqlarni bir davlat qilib birlashtirishni targ'ib qilgan reaksion diniy-siyosiy mafkura.

Panturkizm - XIX - asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiyaning burjua-pomeshchik doiralari orasida tashkil topgan oqim.

Parlament - kapitalistik davlatda butunlay yoki qisman saylov asosida qonun chiqaruvchi oliy davlat organi.

Plantator - plantatsiyaga egalik qiluvchi shahs.

Platsdarm – qo'shin to'planadigan maydon, hujum qilish uchun mo'ljallangan hudud.

Plebissit - umumxalq muhokamasi, ovoz berish.

Politsiya - ichki jamoat va davlat tartibini saqlash uchun tashkil etilgan qurolli kuch.

Pravoslavie - xristian dinidagi asosiy mazhablardan biri.

Prezident - oldinda o'tiruvchi, belgilangan muddatda davlat boshqaruvchisi.

Provinsiya - poytaxtdan uzoq joy, viloyat.

Protektorat - kuchsiz davlatlarni bo'ysundirish.

Radikalizm - keskin choralar va harakatga intilish.

Radikal - keskin va qat'iy choralar tarafdori.

Ratifikatsiya - davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomaning hukumat tomonidan tasdiqlanishi.

Regent - monarxiya davlatlarida muvaqqat hukmdor, vaqtincha podsho.

Rezidensiya - davlat boshlig'i yoki oliy mansab egalarining doimiy yoki vaqtincha turadigan joyi.

Reyxkansler - Germaniyada hukumat boshlig'ining unvoni.

Reyxstrat - parlament nomi.

Reyhstag - Germaniyada markaziy hokimiyat organlaridan biri, parlament.

Rekrut - rus, fransuz, nemis armiyalarida xizmat o'tovchi yollanma askar.

Remilitarizatsiya - ilgari qurolsizlantirilgan hudud yoki davlatni qurolsizlantirish.

Repressiya - davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan qamoq.

Reparatsiya - urush aybdori bo'lgan davlatdan undiriladigan tovon puli.

Respublika - davlat tuzumi shakllaridan biri, saylab qo'yiladigan vakolatli oliy davlat hokimiyati.

Reforma - isloh qilish.

Reformizm - ijtimoiy harakatga qarshilik qiluvchi oqim.

Samoderjaviye - Rossiyada monarxiyaning cheklanmagan davlat tuzumi.

Satellit - rasman mustaqil, biroq amalda boshqa, nisbatan kuchli davlatga bo'ysinuvchi davlat.

Separatizm - markaziy davlatdan ajralib chiqishga intilish.

Sindikalizm - kasaba uyushma harakatidagi mayda mulkdor, og'machi oqim.

Sindikat - kapitalistik mamlakatlarda raqobatni yo'qotish, bozorlarga tanho ega bo'lish, narxlarni oshirish, ko'p foyda olish maqsadida tuziladigan monopolistik birlashma.

Sionizm - Quddusda joylashgan Sion tepaligi nomidan olingan reaksiyon millatchilik harakati.

SS - Germaniyadagi fashistlarning tashkiloti, fashist tuzumining bosh tayanchlaridan biri.

Stixiya - uyushtirilmagan, qovushmagan harakat.

Strategiya - yirik harbiy operatsiyalar va umuman urush olib borish san'ati.

Suverinitet - davlatning tashqi siyosatda mustaqilligi.

Terror – qo‘rqituv, zo‘ravonlik siyosati.

Tred-yunionlar - ingliz kasaba uyushmalari harakatidagi oqim, shart-sharoitlarni yaxshilash uchun kurashuvchi tashkilot.

Trest - kapitalistik monopoliyalarning bir turi.

Totalitarizm - davlat boshqaruvining shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotining barcha sohalaari ustidan to‘la davlat nazorati o‘rnatilishi.

Ultimatum - xalqaro munosabatlarda bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga muayyan muddat ichida munozara va e’tirozsiz bajarilishi shart bulgan qat’iy talabi.

Fashizm - XX asr 20-yillarda Italiyada paydo bo‘lgan siyosiy oqim, burjuaziyaning eng reaksion va agressiv kuchlari manfaatlari ifodachisi.

Fraksiya - parchalanish, bo‘linish.

Shovinizm - ashaddiy millatchilik, boshqa xalqlarni ta’qib etish va ho‘rlash, turli irq va millatlar o‘rtasida adovatni kuchaytirish.

Shtat - ma’lum darajada o‘z-o‘zini idora etuvchi davlat-hududiy birlik.

Evakuatsiya - xavfli joydan aholini, korxona va muassalarni moddiy va madaniy boyliklarni olib chiqish.

Ekspansiya - yirik davlatlarning iqtisodiy, diplomatik va harbiy usullar bilan boshqa mamlakatlarda o‘z ta’sir doirasini kengaytirishi.

Ekstremizm - keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik.

Emigrant - muhojir.

Emigratsiya - siyosiy yoki boshqa sabablarga ko‘ra majburiy yoki ixtiyoriy ravishda o‘z mamlakatidan boshqa mamlakatga ko‘chib borib yashash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Nazariy metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2018. – 508 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2019. – 400 b.

Umumiy adabiyotlar:

1. Анго М. Классическая Индия. - М.: Вече. 2007.
2. Арзаканян М.Ц. История Франции. Учебник для студентов вузов. – М: Дрофа. 2005.
3. Африка в 70-80-е годы. - М.: Наука. 1980.
4. Вальтер Раушер “Гинденбург”. - М.: “Ладомир”. 2003.
5. Васильев Л.С. История Востока: Учебник для студентов вузов. В 2т. Изд-е4-е. - М.: Высшая школа. 2005.
6. Викторov В.В. Российская цивилизация: тенденции развития от истоков к современности: Учебное пособие.– М.: Вузовский учебник. 2009.
7. Восточная Европа на историческом переломе. - М.:1991.
8. Восточная Европа: контуры пост коммунистической модели развития. - М.: 1999.
9. Всемирная история. - М.: «Большая Российская энциклопедия». 2003.
10. Вторая мировая война. Краткая история. - М.: 1989.

11. Вторая мировая война.(итоги и уроки). - М.: 1985.
12. Годс М. Реза. Иран в XX веке. Политическая история. - М.: 1994.
13. Дискуссионные проблемы японской истории. - М.: 1991.
14. Дэниел К. Англия. История страны. – М.: Эксмо, СПб; Мидгард. 2008.
15. Елисеев Д. История Китая: корни настоящего. - СПб, Евразия. 2008.
16. Загладин Н.В. Истории России и мира в XX веке. - М.: 2006.
17. Иванян Э.А.История США: Учебное пособие. 2-е изд. - М.: Дрофа. 2006.
18. Иванян Э.А. От Джорджа Вашингтона до Джорджа Буша. Белый дом и пресса. - М.: 1991.
19. Ismailova J.H., Ismailov A.F. O‘zbekiston tarixi fanidan praktikum. – Т.: «Komron Press», 2015. - 556 .
20. История Великобритании. – М.: Весь мир. 2008.
21. История второй мировой войны. Т.-1-12. - М.: 1974-1980.
22. История дипломатии. - М.: АСТ. 2005.
23. История Индии. - М.:Альтернатива. 2004.
24. История Китая:Учебник для вузов.3-е изд. – М.: Изд-во МГУ: ОНИКС 21 век. 2004.
25. История новейшего времени стран Европы и Америки 1945-2000. Под ред. Е.Ф.Язькова. - М.: 2002.
26. История России под.ред. акад. В.Милова в 3-томах. - М.: МГУ. 2008.
27. История стран Азии и Африки в новейшее время. - М.: Наука. 1976.
28. История США (Хрестоматия). - М.: 2005.
29. История Японии. Учебное пособие. В 2 Т. - М.: 1998.
30. История Японии. - М.: Евролинц:Рус. Панорама. 2008.
31. История Франции. – СПб: Евразия. 2008.
32. Китай после «Культурной революции». - М.: Наука. 1979.

33. Кривогуз И.М. Крушение «реального социализма» в Европе и судьбы освобившихся народов. - М.: 2001.
34. Крысин М.Ю. Прибалтика между Сталином и Гитлером. - М.: «Вече». 2004
35. Крюгер Р. Полная история Поднебесной. - М.: Эксмо. 2006.
36. Медведев В.А. Распад. Как он произошел в мировой системе социализма. - М.: 1994.
37. Молчанов А.И. Генерал де Голль. - М.: 1988.
38. Непомнящий Н.Н. 100 великих загадок истории. - М.: «Вече». 2004.
39. Новейшая история Китая. 1917-1970 гг. - М.: Наука. 1972.
40. Новейшая история Китая. 1928-1943 гг. - М.: Наука. 1984.
41. Новейшая история стран Европы и Америки. XX век. Част-3. 1945-2000. - М.: 2001.
42. Новейшая история стран Европы и Америки. Часть-1. Учебник для ВУЗов. - М.: «Владос». 2003.
43. Новейшая история стран зарубежной Азии и Африки. - Л.: Наука. 1983.
44. Nuriddinov E., Qichqilov X., Lafasov M. Eng yangi tarix (1918-1945 yillar). Darslik. – Toshkent, 2010.
45. Nuriddinov E., Qichqilov X. Eng yangi tarix (1989-2008 yillar). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2010.
46. Nuriddinov E.Z., Zokirov SH.SH., Ismatullaev F.O. Jahon tarixi. Eng yangi davr / darslik. – Toshkent, “INNOVATSIYA-ZIYO” 2019, 372 B.
47. Очерки русской истории. - М.: 1998.
48. Питер Кальвокоресси. Мировая политика после 1945 года. Т-1.. - М.: 2000.
49. Питер Кальвокоресси. Мировая политика после 1945 года. Т-2. - М.: 2000.
50. Россия и ее соседи. Соотношение национальных интересов внутри СНГ. - М.: 1999.
51. Согрин В.В. История США: Учебное пособие. – СПб. Питер. 2003.

52. Строгонов А.И. Новейшая история Латинской Америки. - М.: 1995.
53. Хидоятов Г.А., Гулямов Х.Г. Всемирная история. Новейший период Европа и США после второй мировой войны (1945-1995). - Т.: 1999.
54. Шульце Х. Краткая история Германии. - М.: 2004.
55. Чешко С. Распад Советского Союза. - М.: 2000.
56. Экономика КНР в 80-году. - М.: Наука. 1991.
57. Эйза Бригсс, Патриция Клевин. Европа нового и новейшего времени с 1789 года и до наших дней. -М.: 2006.

Elektron resurs:

1. Historic.ru
1. Ziyonet.uz
2. <http://lesson-history.narod.ru/sv.htm>
3. www.rambler.ru
4. www.google.uz
5. www.yandex.ru
6. www.yahoo.com

M U N D A R I J A

KIRISH 3

I BOB. 1918 - 1945 YILLARDA BUYUK BRITANIYA

1.1.	Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Buyuk Britaniya	5
1.2.	Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Angliya	7
1.3.	Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Angliya	10
1.4.	Ikkinchi jahon urushi arafasida Angliya	12
	Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	13

II BOB. 1918 - 1945 YILLARDA FRANSIYA

2.1.	Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Fransiya	16
2.2.	Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Fransiya	18
2.3.	Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Fransiya	19
2.4.	Ikkinchi jahon urushi arafasida Fransiya	20
	Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	22

III-BOB. 1918 -1945 YILLARDA GERMANIYA

3.1.	Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Germaniya	24
3.2.	Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Germaniya	27
3.3.	Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Germaniya. Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi	28
3.4.	Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya	30
	Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	32

IV BOB. 1918 -1945 YILLARDA ITALIYA

4.1.	Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Italiya	38
4.2.	Fashistik totalitar rejim oʻrnatilishi yillarida Italiya	41
4.3.	Jahon iqtisodiy inqiroz yillarida Italiya	43
4.4.	Ikkinchi jahon urushi arafasida Italiya	44
	Mavzuni oʻrganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	46

V BOB. 1918 -1945 YILLARDA SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKALAR ITTIFOQI (SSRI)

5.1.	1918 yil toʻntarishdan soʻng Rossiya	48
5.2.	Mamlakatda sotsializmning ijtimoiy-iqtisodiy asosini qurish jarayoni	50
5.3.	Maʼmuriy-buyruqvozlik tizimining shakllanishi	52
5.4.	SSRI tashqi siyosat	53
	Mavzuni oʻrganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	55

VI BOB. 1918 -1945 YILLARDA AMERIKA QOʻSHMA SHTATLARI (AQSH)

6.1.	Birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida AQSH	58
6.2.	Stabillashuv yillarida AQSH	60
6.3.	Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida AQSH	62
6.4.	Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSH	63
	Mavzuni oʻrganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	65

VII BOB. 1918 -1945 YILLARDA LOTIN AMERIKA MAMLAKATLARI

7.1.	XX asr 20-yillarida Lotin Amerikasi mintaqasidagi vaziyat	68
7.2.	XX asr 30-yillardagi iqtisodiy inqiroz va siyosiy	70

	tuturiqsizlik	
7.3.	Lotin Amerikasida davlat boshqaruvining xususiyatlari	71
7.4.	XX asr 30-yillarida Lotin Amerikasi mamlakatlariga	72
	xorijiy mamlakatlar qiziqishi	
	Mavzuni o'rganishga doir uslubiy metodlar va tavsiyalar	73
	Mavzularga doir test savollari	79
	Glossariy	118
	Adabiyotlar ro'yxati	124
	Mundarija	128

NURIDDINOV ERKIN ZUXRIDDINOVICH
tarix fanlari doktori, professor

MIRZAEV G‘ULOM RIZOQULOVICH
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JAHON TARIXI
Eng yangi davri (1918-1945)
fanidan o‘quv qo‘llanma